

ISSN: 2181-3507

VOLUME-1, ISSUE-5



# ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA

Scientific Journal Impact Factor: 4.389

Aniq fanlar  
Tabiiy fanlar  
Iqtisod fanlari  
Texnika fanlari  
Tibbiyot fanlari  
Filologiya fanlari  
Pedagogika fanlari  
Psixologiya fanlari  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
San'at va madaniyat fanlari

NOYABR

2022/5

ILMIYTADQIQOT.UZ



# ISSN 2181-3507

## 1-TOM, 5-SON

### NOYABR 2022



<http://ilmiytadqiqot.uz/>

**TAHRIR HAY'ATI:**

*Masalieva Oltinoy Masalievna. Dotsent. Tarix fanlari nomzodi. Uzbekiston davlat jaxon tillari universiteti*

*Mavlyanov Aminjon. Dotsent, Fizika-matematika fanlari nomzodi, Astraxan' davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali.*

*Axmedova Muyassar Xadimatovna, dotsent TDPU, psixologiya kafedrası*

*Turgunova Aziza Tashpulatovna, Dotsent, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, Xalqaro islom akademiyasi*

*Mamatova Yoqutxon, f.f.d., prof. O'zMU Jurnalistika fakulteti Jurnalistika kafedrası*

*Mirsoatova Mahliyo.dots., f.f.n., O'zMU Jurnalistika fakulteti*

*Abdusatarov Ramziddin Xayriddinovich dots., f.f.n., O'zMU Jurnalistika fakulteti Jurnalistika kafedrası.*

*Ibragimov Shavkat Mo'minovich. dots., f.f.n., O'zMU Jurnalistika fakulteti Jurnalistika kafedrası,*

*Xakimov Zafar Tulyaganovich, texnika fanlari doktori (DSS), Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangier filiali*

*Mamatov Mamajan Axmadjonovich, Dotsent, iktisodiet fanlari nomzodi. Toshkent davlat iktisodiet universiteti*

*Idrisov Xusanjon Abdujabborovich, Qishloq xo'jaligi fanlari falsafa doktori (PhD) Farg'ona Davlat Universiteti*

*Rizaev Nurbek Kadirovich, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

*Rahimov Akmal Matyaqubovich. Dotsent, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent moliya instituti*

*Jo'raev Isroil Ibrohimovich, Dotsent, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, Toshkent moliya instituti,*

*Qurbonov Rufat Baxtiyorovich, Dotsent, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent moliya instituti,*

*Avazov Ilxom Ravshanovich, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Toshkent moliya instituti,*

*G'aniev Zafar Usanovich, Dotsent, Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent moliya instituti,*

*Davlatova Ra'no Xaydarovna, Dotsent (DSS), Navoiy davlat pedagogika instituti,*

*Yuldasheva Umida Asanalievna, Dotsent(PhD), Toshkent moliya instituti*

*Xojamkulova Yulduzoy Jaxonkulovna, O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi" laboratoriya mudiri ,q.x.f.f.d. (PhD), Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti*

*Kodirova Nodira Ilyos kizi, Dotsent, Filologiya fanlar nomzodi, Uzbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi*

**Bosh muharrir: Nazim Bo'ronov**  
**Mas'ul muharrir: Nargiza Dusimbetova**

## USE OF SEWING PRODUCTS IN HEALTHY DEVELOPMENT OF CHILDREN

Assistant **Orziqulova Gavharxon Sultonmurod qizi**,

student **Yorbekov Asadbek Dusbek o'g'li**

Jizzax politexnika instituti,

[gavharxon.orziqulova@bk.ru](mailto:gavharxon.orziqulova@bk.ru)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qad-qomatning noto'g'ri rivojlanishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklarni oldini olish maqsadida foydalaniladigan tikuv mahsulotlari turlari va tavsiyalari tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar.** Qomat shakllanishi, umurtqa assimetrriyasi, qomatni tuzatuvchi bandaj.*

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ШВЕЙНЫХ ИЗДЕЛИЙ ДЛЯ ЗДОРОВОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ

***Аннотация.** В данной статье анализируются виды и рекомендации по пошиву изделий, применяемых для профилактики заболеваний, вызванных аномальным ростом.*

***Ключевые слова.** Формирование тела, асимметрия позвоночника, корригирующие повязки.*

## THE USE OF SEWING PRODUCTS FOR CHILDREN'S HEALTHY DEVELOPMENT

***Annotation.** This article analyzes the types and recommendations of sewing products used to prevent diseases caused by abnormal growth.*

***Keywords.** Body formation, spinal asymmetry, body corrective bandage.*

The formation of stature is important throughout life. A healthy lifestyle has important effects on the correct formation of height. The correct formation of stature plays a key role in the aesthetics of clothing and prevention of several diseases of old age. It is necessary to pay attention to the correct formation of stature from the birth of a child. Children under the age of 4-5 should not be led by adults for a long time, because the spine may be bent due to the fact that one side of the child rises up. When walking, he should keep his head upright, take moderate steps, not stoop, and

frequently change his body position and type of work during work class. In children and adolescents, various forms of scoliosis often distort the stature due to defects such as flat feet and joint disease. It is also necessary to pay attention to the child's sleep at night. The child should sleep in a flat place with a slightly firm blanket. Some children sleep like babies. Such a condition also affects height, children and teenagers should be taught from a young age to engage in physical exercises that help to form the correct height. For example: Gymnastics, swimming, volleyball, pull-ups, etc. Distortion of height not only affects the appearance of a person, but also negatively affects the development and function of internal organs (such as lungs, heart, liver, kidneys, stomach and intestines). When such people do physical work, engage in physical education and sports, they feel short of breath, their heart beats faster, and they get tired quickly [4]. The formation of stature continues until the age of 18. At the age of 7-11, the bones of the hands gradually harden. Distortion of stature is considered a disease in the early stages. It is mostly seen as a disease or enlargement of the spine in its natural state. It is represented by the appearance of the shoulder line in the position of asymmetry, in the chest in relation to the head. Such changes have a functional style. Insufficient attention by adults to the formation of the correct height in children - leads to a certain degree of disturbance in the development of the body. will bring. It is this condition that develops during the transition from one youth period to another. In their normal structure, the foot structure rests on the outer long support, which creates flexibility in walking. Children with stunted growth are not recommended to engage in certain types of sports, it is recommended to replace vigorous activity with physical minutes; special exercises related to the muscles of the back, abdominal muscles, and shoulders are recommended [5]. Various devices can be used for the correct development of stature. In particular, various types of bandages with a strap, which is a product of sewing products, give a good effect. When it is determined that such bandages are felt in the proper development of the body, it is considered necessary to use these devices based on the recommendation of doctors.



**Figure 1. Types of healing bandages.**

Samples of shape-correcting bandages of various forms are considered above. These devices are produced in different countries at different prices. The development of bandages with convenient construction and technology for mass use at a low cost will effectively benefit children's healthy development.

### List of used literature:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlari kunida so‘zlagan nutqi. Toshkent 2021 30-iyun
2. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”.  
Sh.Mirziyoyev-Toshkent 2017
3. Юнусов, К. З., Шумкарова, Ш. П., Ядгарова, Х. И., & Арзикулова, Г. С. (2016). Изменение качественных показателей тканей для постельного белья с различными поверхностными плотностями. Молодой ученый, (1), 243-249
4. Zamonaviy ta’limda tarbiya masalari. “International conference on educational innovations and applied sciences” xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. 15.04.2022.
5. Yangi o‘zbekistonda raqamli ta’lim tizimi. Xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya. 2022.
6. Лебедева, Н. Т. Проблемы формирования здоровья школьников [Текст] / Н. Т. Лебедева. — М., 2000. — 255 с.
7. Лебедева, Н. Т. Школа и здоровье учащихся [Текст] / Н. Т. Лебедева. — М., 2000. — 221 с.
8. M.To‘lqunova, M.K.Rasulova, G.S.Orziqulova. “Design features of apparel for early children with orthopedic diseases”. O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali, (3), 94-101

## O‘ZBEK TILIDA “SAR” LEKSEMASI

**Nodirbek Habibullayev Nosirjon o‘g‘li**

NamDU magistranti, Namangan international school xususiy maktabi

Uychi filiali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kun murakkabliklaridan biri bo‘lib kelayotgan “sar” so‘zining o‘zbek tilidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, mazkur leksema qatnashgan so‘zlar tahlilga tortiladi.*

***Abstract:** In this article complex word “sar” will be discussed. Also words that include this word will be analysed.*

***Tayanch so‘zlar:** “sar” so‘zi, “sar” leksemali sodda tub so‘zlar, “sar” leksemali sodda yasama so‘zlar, “sar” leksemali qo‘shma so‘zlar, “sar”li so‘zlar derevatsiyasi, “sar”li so‘zlar kompozitsiyasi.*

### KIRISH

O‘zbek tili qadimdan boshqa tillar bilan aloqa qilib, shu bilan birga, rivojlanib kelgan. Bu tillar orasida fors tili katta ahamiyatga ega. U bizning tilimizga shunchalik chuqur o‘rnashib olganki, ba‘zi so‘zlarni biz o‘zimiz ham ajratishda qiyinchiliklarga duch kelamiz. Chunki fors-tojik tilidan bizning tilga nafaqat so‘zlar, balki qo‘shimchalar ham juda ko‘p kirib kelgan va bu jarayon hali ham davom etmoqda. Quyida “sar” leksemasi haqida mulohazalar berilgan.

“Sar” so‘zining ma‘nolariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, uning “bosh”, “kalla”, “boshlanish”, “uch”, “cho‘qqi”, “eng yaxshi” kabi semalari mavjudligiga guvoh bo‘lamiz. Mazkur so‘z haqida ma‘lumotlar manbaalarda kam uchraydi. 2017-yilgi Farg‘ona davlat universiteti bitiruvchisi Ma‘murjon Ibragimov “O‘zbek tilida affiksoidlar” mavzusida bitiruv-malakaviy ish tayyorlagan. BMIda yozilishicha, “sar” affiksoid hisoblanib, bu qism ham, so‘z yasovchi qo‘shimcha, ham so‘z bo‘lib kelishi mumkin. Jumladan, sarkotib, sarlavha, sarhisob so‘zlari sodda yasama so‘z ekani ta‘kidlangan. Buni qo‘shimcha sifatida ham talqin qiladiganlar ham mavjud. Izohli lug‘atda “sar”ni alohida izohlar bilan ko‘rsatib, misollar ham keltirilgan. Bundan chiqdi, buni so‘z sifatida qabul qilish va u qatnashgan qo‘shib yoziladigan, ikkinchi qismi tilimizda mustaqil ma‘no anglata oladigan so‘zlarni qo‘shma so‘z sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: Sartaxta – katta, bosh, asosiy taxta. Ikkinchi qismi tilimizda ma‘no anglata olmaydigan so‘zlar o‘zga tilda yasama bo‘lishi mumkin, ammo bizning til nuqtai nazaridan bunday so‘zlar yasama hisoblanmaydi. Masalan, Sarafroz so‘zini olaylik. Bu so‘zning ma‘nosi – boshi yuqori ko‘tarilgan,

magʻrur, gʻururli. Mazkur soʻzda “sar” soʻzining mavjudligi sezilsa ham, afroz soʻzi oʻzbek tilida mavjud emasligi sabab uni qoʻshma soʻz sifatida qabul qila olmaymiz. Shu sabab quyida ikki ustunga boʻlingan jadvalni eʼtiboringizga havola qilyapmizki, biri “sar”dan tashqari holatda maʼno anglata olmaydigan, ikkinchisi “sar”dan tashqari holatda maʼno anglata oladigan. “Sar”dan tashqari holatda maʼno anglata oladigan qismlar tarkibida ikkinchi qism soʻz emas, oʻzbek tilidagi mavjud qoʻshimcha boʻlishi ham mumkin. Masalan, “sarposh” soʻzini olaylik. Bu soʻz qozon vas hu kabilarning ustini yopuvchi narsa, qopqoq maʼnosini bildiradi. “Sar” soʻzi haqida yuqorida mulohaza yuritdik. Oʻzbek tilida “-poʻsh” morfemasi ustini yopmoq, oʻramoq maʼnosini bildiruvchi qoʻshimcha hisoblanadi. Shundan kelib chiqsak, “sarposh” soʻzi grammatik jihatdan sodda yasama soʻzdir. Shunga oʻxshash soʻzlarni quyida koʻrishingiz mumkin.

“Sar”dan ajragan holda maʼno anglata olmaydigan:	“Sar”dan ajragan holda maʼno anglata oladigan:
<b>Sarbador</b> – boshini dorga tikkan, boshi dorga osilgan;	<b>Sarbaland</b> – boshi yuqori koʻtarilgan (sar – bosh; baland - baland);
<b>Sarosar</b> – maʼnosi “sarbasar”ga teng; barcha, butun, boshdan oyoq;	<b>Sartaxta</b> – katta, bosh, asosiy taxta;
<b>Sarbast</b> – boshi bogʻliq (sar – bosh; bast – bogʻlamoq)	<b>Sarmunshiy</b> – munshiylar boshligʻi;
<b>Sarfarozi</b> – sarafroz soʻzi bilan bir xil maʼnoda.	<b>Sarlavha</b> – lavhaning boshi, yaʼni nomi;
<b>Sargardon</b> – boshi aylanuvchi, adashib, daydib yuruvchi;	<b>Sarkotib</b> – bosh, asosiy kotib;
<b>Sargashta</b> – maʼnosi sargardon soʻziga teng;	<b>Sarnayza</b> – nayzaning “boshi”, yaʼni uchi;
<b>Sardara</b> <sup>1</sup> – bosh, asosiy darvoza (dara degan soʻzga aloqasi yoʻq);	<b>Sarparda</b> – bosh asosiy parda (musiqada ham). Kappa, soyabonli arava va shu kabilarning kata pardasi, yopinchiq;
<b>Sarvar</b> – boshliq, rahbar, yoʻlboshchi.	<b>Sarsoʻzan</b> – asosiy, bosh, katta igna;
<b>Sarguzasht</b> – boshdan oʻtkazgan, kechirgan (sar – bosh; guzasht – fors tilidagi “goʻzoshtan” – “oʻtkazmoq”, “(boshdan) kechirmoq” feʼlining hozirgi zamon shakli);	<b>Sarjigʻa</b> – bosh kiyimga taqiladigan jigʻa – taqinchoq;
<b>Saraxbor</b> – shoshmaqomning har bir maqomida ashula boʻlimi boshlanadigan birinchi, bosh shoʻbasi.	<b>Sarnoma</b> – xatning, maktubning boshi;
<b>Sarafroz</b> – boshi yuqori koʻtarilgan, magʻrur, gʻururli, iftixorli.	<b>Sarhovuz</b> – bosh, asosiy hovuz;

<sup>1</sup> **IZOH:** Oʻzbek tilida “Dara” degan soʻz mavjud. Lekin bu soʻz eshik, darvoza maʼnosida qoʻllanmaydi. Qarang: Oʻ.T.I.L. 1-tom, 556-sahifa.



<b>Sarpo</b> – bosh-oyoq kiyim (sar – bosh; po - oyoq);	<b>Sarhad</b> – chegaraning boshi;
<b>Sarandoz</b> – ayollarning bosh kiyimi. To‘yda va boshqa marosimlarda kelinning boshida turadigan narsa;	<b>Sardaftar</b> – bosh, asosiy daftar;
<b>Saramas</b> – fors tilida shishgan bosh, boshdagi shish ma’nosini bildiradi. O‘zbek tilida esa, terining, ko‘pincha burun atrofining, ba’zan shilliq pardalarning yallig‘lanishi.	<b>Sarkor</b> – ish boshi, boshliq (sar – bosh; kor - ish);
<b>Sarkarda</b> – boshchilik qiluvchi, boshliq, rahbar, dohiy, qo‘mondon.	<b>Sarboz</b> – bosh o‘ynatuvchi, boshni jonni fido qilguvchi (sar – bosh; boz – forscha, o‘ynamoq);
<b>Sarona</b> – pay, ulush, xissa. Jon boshiga soliq.	<b>Saranjom</b> – Oxir, intiho, oqibat. Hamma ishni tartib bilan, joy-joyiga qo‘yib bajaradigan, tartiblilikni xush ko‘radigan, uy-ro‘zg‘orini, asbob-anjomini batartib tutadigan, sarishta. Mazkur so‘z hamma narsani bosh-boshiga qo‘ymoq ma’nosida sar- qismga aloqasi bor.
<b>Sarson</b> – boshdagi shish. Bosh aylanishi. Meningit. O‘z yo‘lini topa olmagan, ovora, sargardon, aldangan.	<b>Saromad</b> – oldingi o‘rinda, boshida yuradigan, peshqadam (sar – bosh; omad - kelmoq);
<b>Sartopo</b> – boshdan oyoqqacha.	<b>Sartarosh</b> – boshni qiruvchi, qirtishlovchi;
<b>Sarupo</b> – bosh-oyoq kiyim.	<b>Sarmast</b> – boshi aylangan, sarxush, kayfi oshgan, mag‘rur, kekkaygan.
<b>Sarbasar</b> – barcha, butun, to‘lig‘icha. Boshdan-oyoq, birma-bir, ketma-ket.	<b>Sarkash</b> – bosh tortuvchi; bo‘ysunmaydigan; mag‘rur. Sar so‘ziga o‘zbek tilidagi -kash morfemasi qo‘shilib, mazkur so‘z hosil bo‘ldi.
	<b>Sarbon</b> – tuya boquvchi, haydovchi, boshlab boruvchi. Boshlab boruvchi ma’nosida sar- qismga aloqasi bor. Mazkur so‘z yo‘lboshchi ma’nosida sar so‘ziga o‘zbek tilidagi -bon qo‘shimchasining qo‘shilishidan hosil qilingan deyish mumkin, fikrimizcha.
	<b>Sarmoya</b> – Kapital, pul. Boylik, asos. Asosiy savdo mablag‘i. Mazkur so‘z “sar” so‘zining asosiy semasini olib, ana shunday ma’no kasb etmoqda.
	<b>Sarnigun</b> – boshi egik, ag‘darilgan, to‘ntarilgan.
	<b>Sarpo‘sh</b> – qozon va shu kabilarning ustini yopuvchi narsa, qopqoq. Mazkur so‘z “sar” so‘ziga o‘zbek tilidagi “-po‘sh” morfemasini

	qo‘shilishi yo‘li bilan hosil qilingan. Fors tilida bu so‘z qo‘shma so‘z hisoblanadi.
	<b>Sarxat</b> – bitim, kelishuv, tilxat, husnixat. Chiroyli yozuv. Mazkur so‘z “sar” so‘zining “eng yaxshi” semasida qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.
	<b>Sarxil</b> – eng yaxshilaridan terilgan, sara. Mazkur so‘z ham “sar” so‘zining “eng yaxshi” semasida qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.
	<b>Sarxok</b> – tuproqning boshi. Devorlarni yog‘in-sochindan himoyalash uchun devor ustiga qo‘yiladigan sersomon lo‘mboz.
	<b>Sarxona</b> – asosiy xona. Chilimning o‘txonasi.
	<b>Sarchashma</b> – buloq boshi. Bosh buloq.
	<b>Sarhafta</b> – haftaning boshi.
	<b>Sarhisob</b> – Asosiy hisob-kitob. Mazkur so‘z “sar” so‘zining “asosiy” semasida hisob so‘ziga qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, so‘z yuritayotganimiz “sar” o‘zbek tilida alohida leksema.

- “Sar”ning qo‘shma so‘z tarkibida kelishi: sarhisob, sarhafta, sarchashma... (ikkinchi qismi o‘zbek tilida mustaqil qo‘llana oladigan so‘z bo‘lgani uchun ana shunday xulosa qilindi);
- “Sar”ning sodda yasama so‘z sifatida kelishi: sarpo‘sh, sarbon, sarkash... (Ikkinchi qismi o‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimcha sifatida kelgani uchun shunday xulosa qilindi);
- “Sar”ning sodda tub so‘z sifatida kelishi: sarona, sarkarda, saramas... (Ikkinchi qismi tilimizda mustaqil qo‘llana olmaydigan qisimli so‘z bo‘lgani uchun shunday xulosa qilindi).

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, “sar” leksemasi tilimizda boshqa so‘zlar singari xarakterlanadi va so‘z yasaliş tizimida o‘zining barqaror o‘rniga ega.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007.
2. Ibragimov M. O‘zbek tilida affiksoidlar // Farg‘ona-2017.

## O'LCHOV TRANSFORMATORLARIDA ERTA DIAGNOSTIKANING ZAMONAVIY USULLARINI TADQIQ QILISH VA ISHLAB CHIQISH

**Kurbanbayev Maqsud Adambayevich**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 2-bosqich magistranti,

**Hanidov Eldor Rahmonovich**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 2-bosqich magistranti,

**Ergashev Yoqub Hamro o'gli**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti 2-bosqich magistranti.

**Annotatsiya.** *Bugungi kunda energetika tizimi sanoatimiz rivojlanishining muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Energetika tizimini tezkor, sifatli va ishonchli ishlashini ta'minlash ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni yechishga imkon yaratadi. O'lchovchi o'zgartgichlar hamma releli himoya sxemalari uchun umumiy elementlar hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi yuqori kuchlanish zanjirini ikkilamchi himoya zanjiridan izolyasiya qilish, kirish kattaliklarni o'lchash uchun qulay bo'lgan kattalikka o'zgartirishda qo'llaniladi. Magistrlik dissertatsiyasining mavzusi o'lchov transformatorlarida erta diagnostikaning zamonaviy usullarini tadqiq qilish va ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, bu uning dolzarbligini ko'rsatadi. O'lchovchi o'zgartgichlarga elektromagnit transformator toklar, va kuchlanish transformatorlari kiradi. Tok transformatorlari ikkilamchi tokini 5 A yoki 1A qilib olishga mo'ljallangan. Kuchlanish transformatori yordamida esa ikkilamchi kuchlanishni 100V yoki 100 V qilib o'zgartirishga asoslangan. Tok transformatori birlamchi tokning kattaligini o'lchov priborlari va rele uchun eng qulay kattalikkacha kamaytirish, shuningdek, o'lchov zanjirlarini birlamchi yuqori kuchlanish zanjirlaridan ajratish va himoya qilish uchun xizmat kiladi.*

**Kalit so'zlar:** *o'lchov transformatorlari, o'lchov komplekslari, tok transformatorlari, kuchlanish transformatorlari, aniqlik sinfi, nisbiy xatoliklar.*

## RESEARCH AND DEVELOPMENT OF MODERN EARLY DIAGNOSTIC METHODS IN MEASUREMENT TRANSFORMERS

**Annotation.** *Today, the energy system remains one of the important factors of the development of our industry. Ensuring the fast, high-quality and reliable operation*

*of the energy system makes it possible to solve many economic and social issues. Measuring transformers are common elements for all relay protection schemes. Their main function is to isolate the high-voltage circuit from the secondary protection circuit, to change the input quantities to a value convenient for measuring. The topic of the master's thesis is devoted to the research and development of modern methods of early diagnosis in measuring transformers, which shows its relevance. Measuring transformers include electromagnetic current transformers and voltage transformers. Current transformers are designed to make the secondary current 5 A or 1 A. It is based on changing the secondary voltage to 100 V or 100 V using a voltage transformer. The current transformer serves to reduce the magnitude of the primary current to the most convenient magnitude for measuring devices and relays, as well as to isolate and protect the measuring circuits from the primary high voltage circuits.*

**Key words:** *measuring transformers, measuring complexes, current transformers, voltage transformers, accuracy class, relative errors.*

## **KIRISH**

Energiya tizimlarida mavjud elektr energiyasini hisobga olish tizimlari bozor munosabatlari sharoitida talab qilinadigan buxgalteriya hisobining aniqligini ta'minlamaydi, chunki ular asosan o'nlab yillar oldin, elektr energiyasi maxsus tovar bo'lmaganida va uni hisobga olishning to'g'riligiga yetarlicha e'tibor berilmaganda yaratilgan.

Elektr va quvvatni o'lchashdagi katta xatolar elektr uzatish liniyalarining o'tkazuvchanligini, elektr stantsiyalaridagi quvvat zaxiralarini oqilona ishlatmaslikka olib keladi, tarmoqlarning ishlash rejimlarini nazorat qilishni qiyinlashtiradi va elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar va yetkazib beruvchilarning moliyaviy yo'qotishlariga olib keladi. O'lchovlarning yetarli darajada aniqligi mavjud elektr energiyasini hisobga olish tizimlarining bir qator kamchiliklari bilan bog'liq, chunki energiya obyektlarida o'lchash komplekslari ilgari yaratilgan, shuningdek hozirgi vaqtda XX asrning 70-80-yillarida ishlab chiqilgan, yuqori darajadagi echimlarni taqdim etmagan namunaviy loyihalar bo'yicha o'lchov aniqligi.

O'lchov komplekslariga tok va kuchlanish transformatorlari, asosan elektromagnit, elektr energiyasi hisoblagichlari va ular orasidagi aloqa zanjirlari kiradi.

Mavjud o'lchovdagi xatolar komplekslar ko'pincha 5-10% dan oshadi, bu zamonaviy sharoitda qabul qilinishi mumkin emas. O'lchov transformatorlarining xatolari umumiy o'lchov xatosiga katta hissa qo'shadi komplekslar, bundan tashqari, tok xatosi past yuklanganda, tok transformatorlari boshqa barcha o'lchov elementlarining xatolaridan bir necha baravar ko'p bo'lishi mumkin komplekslar.

Kerakli aniqlikni ta'minlash uchun o'lchov komplekslari o'lchov transformatorlarining xatolarini bilish, ularning haqiqiy ishlash sharoitida, ularning ishlashi paytida o'lchov transformatorlaridan foydalanish qoidalarini buzish sabablarini aniqlash kerak.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hozirgi vaqtda ko'pgina energiya obyektlarida elektr energiyasini o'lchashda o'lchov transformatorlarining haqiqiy portlash holatlari hisobga olinmaydi, chunki ular odatda noma'lum va xatolarni hisoblashda o'lchov transformatorlarining portlash-portlash o'lchov komplekslari faqat tasodifiy deb hisoblanadi, garchi ularning bir qatori sistematik bo'lsa ham. Bu pogrepsnostni noto'g'ri baholashga olib keladi o'lchov komplekslari.

Energiya tizimlarida ishlash sharoitida o'lchov transformatorlarining portlash holatining xususiyatlariga birlamchi set parametrlari ta'sir qiladi: tok, kuchlanish, chastota, moping ikkilamchi yuk, ikkilamchi yukning quvvat koeffitsienti, shuningdek tashqi omillar: atrof-muhit harorati, tebranish va boshqalar, bu esa o'lchov xatolarining ko'payishiga olib kelishi mumkin komplekslar .

So'nggi yillarda energiya iste'molining pasayishi tufayli energiya tizimlarida tok transformatorlari ko'pchilikda o'lchov komplekslari nominaldan sezilarli darajada past bo'lgan toklarda ishlaydi.

Ko'pincha, 0,5 va 1 aniqlik sinflarining tok transformatorlari nominal tokning 5% dan kam bo'lgan birlamchi tokida ishlaydi, bu esa 10% dan yuqori tok transformatorlarining salbiy tokiga olib kelishi mumkin.

Dizayn xususiyatlari tufayli xatolarning birlamchi tok va ikkilamchi yuk kuchiga bog'liqligi tok transformatorlari chiziqli emas va hatto ular uchun ham tarqaladi tok transformatorlari bir xil turdagi.

Kerakli aniqlikni ta'minlash uchun o'lchov komplekslari o'lchov transformatorlarining haqiqiy ish sharoitida xatolarini bilish, ularni ishlatish paytida o'lchash transformatorlaridan foydalanish qoidalarini buzish sabablarini aniqlash va yo'q qilish kerak.

## NATIJALAR

Hozirgi vaqtda ko'pgina energiya obyektlarida elektr energiyasini o'lchashda o'lchov transformatorlarining haqiqiy xatolari hisobga olinmaydi, chunki ular odatda noma'lum va xatolarni hisoblashda o'lchov transformatorlarining xatolarining o'lchov komplekslari faqat tasodifiy deb hisoblanadi, garchi ularning bir qatori tizimli bo'lsa ham. Bu o'lchov komplekslarini xatosini noto'g'ri baholashga olib keladi.

Energiya tizimlarida ishlash sharoitida o'lchov transformatorlarining xato xususiyatlariga umumiy holatda birlamchi tarmoq parametrlari ta'sir qiladi: tok, kuchlanish, chastota, ikkilamchi yuklamaning quvvatini, ikkilamchi yuklamaning quvvat koeffitsienti, shuningdek tashqi omillar: atrof-muhit harorati, tebranish va boshqalar, bu o'lchov komplekslari xatosining oshishiga olib kelishi mumkin.

Tok transformatorining konstruktiv xususiyatlari tufayli xatolarning birlamchi tok va ikkilamchi yuklamaning quvvatiga bog'liqligi chiziqli emas va hatto bitta turdagi tok transformatorlari uchun ham shunday bo'lishi mumkin.

Qabul qilish sinovlari paytida it ishlab chiqarishdan chiqarilganda, xatolar TT va tn standartlariga muvofiq birlamchi toklar, kuchlanishlar, ikkilamchi yuklama quvvati va ikkilamchi yuklamaning  $\cos\phi$  normallashtirilgan diapazonlarida aniqlanadi, ammo o'lchov transformatorlari ko'pincha xatolar normallashtirilmagan sharoitlarda ishlaydi.

Hozirgi vaqtda quyidagi hollarda tok transformator xatolari haqida deyarli ma'lumot yo'q:

- ikkilamchi yuklama quvvati nominaldan yuqori bo'lsa;
- toklarda, 0,5 va 1 tok transformatorlari aniqlik sinflari uchun nominal birlamchi tokning 5% dan kamrog'i, shuningdek, barcha aniqlik sinflari uchun tok transformatorlari uchun nominal birlamchi tokning 120% dan yuqori toklari bilan;
- tok transformatorlari normativ hujjatlar talablariga javob bermaydigan quvvat koeffitsienti ( $\cos\phi$ ) bilan ikkilamchi yuklama uchun ishlaganda.

Bundan tashqari, quyidagi hollarda kuchlanish transformatori xatolari haqida deyarli ma'lumot yo'q:

- kuchlanish transformatori o'lchash uchun GOST 1983-2001 tomonidan ruxsat etilgan diapazondan tashqariga chiqadigan birlamchi kuchlanish bilan;
- kuchlanish transformatori normativ hujjatlar talablariga javob bermaydigan  $\cos\phi$  bilan yuklama uchun ishlaganda.

Atrof-muhit harorati, o'zgaruvchan tok chastotasi, tebranish yuklari va transport tebranishining o'lchov transformatorlari metrologik xususiyatlariga ta'siri deyarli o'rganilmagan.

Komkova E. V.ning "Elektr energiyasini hisobga olishning aniqligini oshirish" (2002) dissertatsiyasida tashqi omillarning energiya obyektlaridagi elektr hisoblagichlarining xatolariga ta'siri batafsil ko'rib chiqilgan.

Ushbu ish tashqi omillarning elektr stantsiyalari va elektr tizimlarida ishlaydigan o'lchov transformatorlarining aniq xususiyatlariga ta'sirini o'rganib chiqdi.

Tok transformator va kuchlanish transformatorning metrologik xususiyatlarini texnologik jihatdan oshirish mumkin – o'lchov transformator konstruktiv parametrlarining o'zgarishi, elektr po'lat va boshqa maxsus qotishmalarning yangi markalaridan foydalanish, bu transformatorlarning narxining oshishiga olib keladi.

Xorijiy ishlab chiqaruvchilar transformatorlarning ikkilamchi yuklama quvvatini kamaytirish yoʻlidan boradilar, buning natijasida tok va kuchlanish transformatorlarining xatolari kamayadi. Ikkilamchi yuklamaning nominal quvvatini va sinov kuchlanishlari darajasini pasaytirish orqali xorijiy oʻlchov transformator mahalliy oʻlchov transformatorlarga nisbatan kichikroq oʻlcham va vaznga ega.

## MUHOKAMALAR

### Ishning maqsadi

Ishning maqsadi elektromagnit oʻlchov transformatorlarini energiya tizimlarida ish sharoitlarini tahlil qilish va ularning elektr energiyasini hisobga olish uchun oʻlchov komplekslari xatolariga taʼsirini oʻrganish; buxgalteriya hisobining aniqligini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar qoʻyildi:

a) oʻlchov transformatorlarda xatolariga taʼsir qiluvchi omillarni tahlil qilish va tasniflash;

b) oʻlchov transformatorlari ish sharoitlarining ularning xatolariga taʼsirini tahlil qilish;

v) oʻlchov transformatorlarining xatoliklarini ish sharoitlariga bogʻliqligi boʻyicha usullarni ishlab chiqish va eksperimental tadqiqotlar oʻtkazish;

d) oʻlchov transformatorlari xatolarining oʻlchov komplekslari xatosiga taʼsirini tahlil qilish;

e) elektr energiyasini hisobga olishning aniqligini oshirish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqish.

### Tadqiqot usullari

Vazifalarni hal qilishda ishda muammoga tizimli yondashuv, statistik maʼlumotlarni qayta ishlash usullari, oʻlchov transformatorlari tadqiqotlarining analitik va eksperimental usullari qoʻllaniladi.

### Ishning amaliy ahamiyati

Oʻlchov transformatorlari xatolarining analitik va eksperimental tadqiqotlari elektr energiyasini aniqroq tijorat va texnik hisobga olishga imkon beradigan turli xil taʼsir qiluvchi omillar bilan real ish sharoitida ularning aniq xususiyatlarini baholashga imkon beradi.

Oʻlchov transformatorlari xatolariga taʼsir qilish darajasi boʻyicha tashqi taʼsir qiluvchi omillarning olingan tasnifi muhim va ahamiyatsiz taʼsir etuvchi omillarni aniqlashga imkon beradi.

Oʻlchov transformatorlari xatolarining taʼsir etuvchi omillarga bogʻliqligi, itning tizimli xatolarini hisobga olgan holda, energiya tizimlarida elektr energiyasini oʻlchash uchun IQ aniqligini oshirishga imkon beradi.

## XULOSALAR

Tadqiqotning asosiy umumlashtirilgan natijasi e'lon qilingan maqsadga erishishdir: iste'mol qilinadigan quvvat koeffitsientini faol tuzatish (elektr tarmog'idagi yo'qotishlarni kamaytirish), samaradorlikni oshirish va chiqish quvvatini funksional tartibga solish tufayli ikkilamchi tok manbalarining energiya samaradorligini oshirishning elektron vositalari ishlab chiqarish strategiyasini taqdim qilish (tashqi foydalanish iqlim sharoitida ishonchlilik va shovqin-suronning belgilangan ko'rsatkichlarini hisobga olgan holda).

Ushbu natija yorug'likni boshqarish tizimining bir qismi sifatida lampalarning optimal ishlash rejimlarini ta'minlash tufayli bozordan yuqori bosimli tushirish lampalarining an'anaviy ishga tushirish moslamalari faol ravishda siqib chiqaradigan elektron ishga tushirish moslamalari (EITM) ishlab chiqish sohasida eng katta ahamiyatga ega.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shoazimova U.X Metrologiya va standartlashtirish. Toshkent-2019, 205 bet
2. Одинаев И.Н, Мурзин П, В, Паздерин А.В, Тацилин В.А, Шукало А Анализ математических методов снижения погрешности трансформатора тока в режиме насыщения (научная статья)
3. Дегтярев А. А., Кужеков С. Л., Дони Н. А., Шурупов А. А., Федотов А. Ю., Анализ и проверка соответствия характеристик трансформаторов тока класса Р условиям функционирования первых ступеней дистанционных защит линий электропередачи при переходных процессах (научная статья)
4. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, sifat" A.A.Abduvaliev, V.B.Latipov va boshqalar.SMSITI Toshkent-2008y.
5. "Sifat menjment tizimi va uni sertifikatlashtirish" P.R.Ismatullayev V.M.Ahmedov va boshqalar. Toshkent 2014y.
6. Ismatullaev P.R. va boshqalar. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. Darslik -Toshkent.: TDTU. 2001y.
7. "O'zDst KO 9000:2009 Sifat menejment tizimi. Atamalar va tushunchalar" O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. Toshkent 2009y.
8. "O'zDst KO 9001:2009 Sifat menejment tizimi. Talabalar" O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. Toshkent 2009y.
9. "O'zDst ISO 9004:2009 Sifat menejment tizimi. Faoliyatni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar" O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi. Toshkent 2009y.



## ИНСОН КАПИТАЛИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УЧУН ИНВЕСТИЦИЯЛАР

Доцент Жуманова Раъно Файзуллаевна

ЎзМУ Иқтисодиёт факультети

Магистр Шодмонбекова Нодира Камолжон қизи

ЎзМУ Иқтисодиёт факультети

**Аннотация.** Мақолада инсон капитали ҳамда унинг мазмун моҳияти келтирилган бўлиб, унинг ривожланиши учун қилинаётган чора-тадбирлар ҳамда инвестициялар мажмуидан иборат. Шунингдек мақолада инсон капитали бўйича статистик маълумотлар келтирилган.

**Калит сўзлар.** *Инсон капитали, инвестиция, таълим, соғлиқни сақлаш, ислохотлар.*

**Annotation.** *The article presents the value of human capital as well as its content, and the measures taken for its development consist of a set of investments. The article also provides statistics on human capital.*

**Keywords.** *Human capital, investment, education, health, isolates.*

### КИРИШ

“Инсон капитали” тушунчаси иқтисодий терминлар орасида маълум бир даражада музокарали атамалар қаторига киради. Инсон капитали назарияси институционал, неоклассик, неокейнсчилик каби қатор назарияларга таянган ҳолатда шаклланган. Мазкур назариянинг яратилиши орқали инсонлар фаолиятининг жамият ҳамда мамлакат ривожланишидаги тутган ўрни ва унга таъсири борасидаги муаммоли вазиятлар тушуниб етилди. Инсон капиталининг таянч асосини инсон капитали ташкил этади. Инсон капитали бу – даромад келтирадиган инсон қобилятидир. У ишчининг (инсоннинг) махсус таълим, касб-хунарга тайёрлаш ва ишлаб чиқариш тажрибаси асосида тўпланган билим-кўникмалари, уларни амалга ошириши ва махоратини ифодалайди.

## МУХОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

1-расм<sup>2</sup>

Америкалик иқтисодчи И. Бен-Поратнинг таснифлашига кўра, инсон капитали куйидаги таркибий қисмлардан иборат: 1) инсон капиталини яратишда иштирок этаётган одамларнинг сифат хусусиятлари ва қобилияти; 2) бозорда таклиф этилаётган ҳамда бошқа ашёлар ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатишга киритилган капитал қисми.

Инсон капиталига инвестиция, албатта келажакда кутилаётган даромадлар юқори, бугунги кундаги харажатлар кам бўлган пайти амалга оширилиши эҳтимоли катта. Худди шундай ҳолат тез ўрганувчан қобилиятга эга инсонлар ҳақида ҳам айтишимиз мумкин. Ишчининг тез ўрганиш қобилияти тренингларга сарфланадиган вақтни қисқартиради ва тез ўрганувчи ишчиларга бўлган харажатлар ҳам тренинг мобайнида камроқ содир бўлади.

Инсон капитали инвестициялар натижасида шакллантирилган ва инсон томонидан жамланган соғлиқ, билимлар, кўникмалар, қобилият, мотивациянинг муайян захирасидир деган фикрлар ҳам мавжуд. Бу захира ижтимоий ишлаб чиқаришнинг у ёки бу соҳасида мақсадга мувофиқ фойдаланар экан, меҳнат унумдорлигини ва ишлаб чиқариш самарадорлигини оширишга ёрдам беради, бу билан мазкур инсоннинг иш ҳақи (даромади) кўпайишига таъсир кўрсатади.

К.Макконел ва С.Брю инсон капиталига инвестициялар — “бу ишчиларнинг малакасини ва бу билан меҳнат унумдорлигини оширишга хизмат қиладиган ҳар қандай фаолиятдир. Кимнидир меҳнат унумдорлигини оширадиган харажатларга инвестиция сифатида қаралиши мумкин, зеро ана шу чиқимлар келажакда 41 даромадлар оқими билан кўп мартаба кимпенсация қилинади”<sup>12</sup> деб кўрсатган. Инсон капиталига инвестициялар манбалари оила, корхона ва давлатнинг харажатлари ҳисобланади. Оилада фарзандни тарбиялаш ва унга таълим бериш учун харажатлар унинг келгусида самарали меҳнат фаолияти натижасида юқори даромад олиши ҳисобга олинган ҳолда қилинади. Корхона ҳам инсон капиталига инвестиция киритилишидан манфаатдор. Чунки билими, малакаси, кўникмалари юқори бўлган ходим корхонада самарали

<sup>2</sup> Манба: Макарова Е.О. Человеческий капитал в современной экономике: некоторые теоритический аспекты. – Новосибирск: Институт Экономике РАН, 2012. С. 17-43

меҳнат қилиши натижасида иш берувчининг даромадларини кўпайтиришга салмоқли ҳиссасини кўшади.

БМТ малумотларига кўра, дунё аҳолисининг 33 % дан ортиқ қисми яширин очлик – яъни қуйидаги микроэлементлар: кальций, магний, темир, йод етишмаслиги туфайли интеллектуал ривожланиш бўлмаслигидан азият чекмоқда. Бунинг натижасида билим олишга қобилият пастлик ва ўз касбида тегишлича ютуқларга эга бўлмайди. Бунинг учун истеъмол саватчасидаги маҳсулотлар сифатини яхшилаш орқали ҳозирги кунда кичик аҳоли яъни ёшларда бартараф этиши лозим


АҚШда олимлар томонидан амалга оширилган тадқиқотлар (3100 тадан кўпроқ иш жойлари таҳлил қилиб чиқилган) ходимларнинг таълим даражаси 10,0 % га ортиши жамланма меҳнат унумдорлиги 8,6 % га ўсишини кўрсатган. Таққослаш учун асосий фондлар шу даражага кўпайтирилганда меҳнат унумдорлиги атиги 3,4 % га ортиши аниқланганлигини келтириш мумкин. Бошқача қилиб айтганда, инсон капиталига инвестициялардан олинadиган фойда техникага капитал қуйилмалардан олинadиган фойдадан уч баробар юқоридир. Ҳозирги даврда жаҳоннинг деярли барча мамлакатларида инсон капиталининг асосий таркибий қисми – таълимни ривожлантиришга эътибор ортган. Бундан 100 йил муқаддам таълим учун давлат харажатлари ялпи ички маҳсулотининг 1,0 % ни ташкил этарди. Ҳозирга вақтда эса бу кўрсаткич 5,1 % га етган. Натижада дунёда бошланғич таълимга эга бўлганлар сони жами аҳолининг 94,0 % дан ортиб кетди.

Мамлакатимизда амалга оширилаётган иқтисодий ислохотлар аҳолининг иш билан бандлигини тубдан ўзгартирди. Бу бир томондан, унинг иқтисодий категория сифатидаги мазмунини бойитди, шу билан бирга бошқа бозорлар (озик-овқат, ишлаб чиқариш, молия бозорлари ва бошқалар) билан бир қаторда меҳнат бозорининг шаклланиши ва унинг самарали ривожлантирилишига объектив жиҳатдан янгича ёндашувни талаб этади. Ушбу ҳолат меҳнат муносабатлари соҳасидаги вазиятнинг мураккабланиши билан белгиланади. Шу билан бир қаторда, бозор иқтисодиёти шароитида аҳолининг ички ва ташқи миграция жараёнлари фаоллашади.

Юқорида қайд этилган ҳолатлар меҳнат бозорини тартибга солишнинг самарали механизминини шакллантиришни тақазо этади, булар қуйидагилардан иборат:

- аҳоли бандлигини таъминлашда янгича ёндашувни шакллантириш;
- меҳнатга лаёқатли аҳоли бандлиги бўйича илмий асосланган прогнозлар ишлаб чиқиш;
- истиқболда ишлаб чиқарувчилар сони қанча бўлишини аниқлаш.

Албатта, бу борада хориж тажрибасини ўрганиш билан бирга мамлакатдаги муаммоларни ҳал этишда миллий анъаналаримизга таянган ҳолда, маҳаллий ижтимоий-иқтисодий шарт-шароитларни ҳисобга олиб, ўз усул ва ёндашувларимиздан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.



2-расм<sup>3</sup>

Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислохотлар мақсади инсон ва унинг манфаати, фаровонлигини таъминлаш ҳамда инсонни ҳар томонлама камолга етказишга қаратилгандир. Шу боисдан мамлакатимизда ислохот жараёнлари “Ислохот ислохот учун эмас, аввало инсон учун, унинг манфаатлари учун” деган ҳаётий қоида асосида амалга оширилмоқда.

Шуни айтиш керакки, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишда мамлакатимизда қабул қилинган қонун, меъёрий ҳужжатлар билан биргаликда ҳудудий ҳамда иқтисодиётнинг турли тармоқлари, молия-кредит, банк ва бошқа соҳаларни ривожлантириш дастурларидан ташқари, хизмат кўрсатиш ва сервис соҳасини ривожлантириш дастури, соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш, кадрлар тайёрлаш бўйича миллий дастур, мактаб таълимини ривожлантириш бўйича давлат дастури, қишлоқ аҳолисини тоза ичимлик суви ва табиий газ билан таъминлаш каби бошқа дастурлар ҳам инсон салоҳиятини ривожлантиришга бевосита таъсир кўрсатади.

<sup>3</sup> The Political Economy of a Social Europe: Understanding Labour Market Integration in the European Union  
 Автор: Michael F. Kluth ISBN: 0312215576 Год: 2005.

1. Базавий тармоқлар, шунингдек, кўшимча қиймат яратувчи тармоқларнинг маҳсулотлари, хизматлар соҳасини сезиларли кенгайтириш ва кичик бизнеснинг динамик ривожланиши ҳисобига, иқтисодий фаол таркибини қайта қуриш, мавжуд корхона ҳамда тармоқларни техник ва технологик жиҳатдан модернизациялаш, янги юқори технологияли тармоқлар ва ишлаб чиқаришларни яратиш, инновациялардан фаол фойдаланиш механизмларини жорий қилиш ҳисобига мамлакат иқтисодий рақобатбардошлигини ошириш ҳисобига барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш.

2. Аҳоли иш билан бандлигини ошириш, янги иш ўринлари яратиш, даромадлар, турмуш даражасини ўстириш омили бўлган кичик бизнесни қуйидаги йўналишлар бўйича қўллаб-қувватлаш сиёсатини амалга ошириш:

- давлат тартибга солиш жараёнлари, жумладан, фаолият юритиш учун турли рухсат ҳамда лицензиялар олиш жараёнларини янада соддалаштириш ва тартибга солиш;

- хусусий мулк ҳуқуқини мустаҳкамлаш, хусусий корхоналар жойлашган ва бизнес амалга ошириладиган ер майдонларини хусусийлаштириш имкониятларини кенгайтириш;

- тадбиркорларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини. Жумладан, давлат органларидаги бюрократ ҳодимларнинг ноқонуний ҳатти-ҳаракатларидан, шунингдек, уларнинг хўжалик юритувчи шерикларидан ҳимоя қилиш тизимини мустаҳкамлаш;

- ижтимоий аҳамиятга эга хизматлар кўрсатувчи микрофирмалар ва кичик корхоналар учун кенг солиқ имтиёзлари ҳамда енгилликлари тизимини тадқиқ этиш.

3. Даромадлар бўйича кам таъминланганликни кескин камайтириш, даромадлар тақсимотини ривожланган мамлакатлар миқёсида таъминлаш. Ушбу вазифани ҳал қилишда бандлик соҳасидаги сиёсат чора-тадбирларини кучайтириш ва меҳнат бозори фаолияти самарадорлигини ошириш муҳим ўрин тутади. Бундан ташқари:

- амал қилаётган имтиёзлар ва нафақа тўловлари тизимини тартибга солиш, манзилли характерга эга бўлмаган имтиёзларни, авваламбор, босқичма-босқич айрим профессионал гуруҳларга тақдим этиладиган имтиёзларни камайтириш ва шунинг ҳисобига кўпроқ эҳтиёж сезаётган оилаларга имтиёзлар ҳажмини ошириш;

- натурал кўринишда бериладиган имтиёзларни мос пул тўловлари билан алмаштириш жараёнини тугаллаш;

- норасмий секторда тадбиркорлик фаолиятдан, шунингдек, пул ўтказмалари ҳисобига даромад олаётган оилаларни чиқариб ташлаш йўли билан моддий ёрдамга муҳтожлик сезаётган оилаларни аниқлаш услубиётини такомиллаштириш. Тежаб қолинган маблағларни энг муҳтож оилаларга моддий ёрдам кўрсатиш учун қайта йўналтириш;

- битта асосга кўра белгиланган ижтимоий ёрдамнинг айрим турларини бир хил шаклга мослаштириш (масалан, даромад бўйича муҳтожлик);

- жойларда муҳтожларга кўшимча ёрдам кўрсатиш, шунингдек, маблағларни ижтимоий ҳимоянинг айрим моддалари ўртасида қайта тақсимлаш бўйича қарорлар қабул қилишда давлат органлари мустақиллигини кенгайтириш;

- ўз-ўзини бошқариш органларида кам таъминланган оилаларга нафақа тўловлари тўлашни ташкил қилиш билан шуғулланувчи мутахассислар тайёрлаш даражасини ошириш;

- аҳолини ижтимоий ҳимоялаш чора-тадбирларини молиялаштириш учун бюджетдан ташқари маблағлар, жумладан, хайрия ташкилотлари ва ҳомийларнинг маблағларини жалб қилиш, бу эса кам таъминланган оилаларга ижтимоий тўловлар ҳажми ва қамровини оширишга имкон беради;

- айрим нафақа тўловлари ва имтиёзларни тугатиш натижасида бўшаган маблағларни муҳтож оилаларга манзилли нафақа тўловларини молиялаштириш ҳажмини оширишга йўналтириш;

- минимал ижтимоий стандартларни, жумладан, минтақавий хусусиятларни ҳисобга олган ҳолда, ҳисоб-китоб қилиш усулини такомиллаштириш. Маълум босқичда амалиётга кун кечриш минимуми катталиги ижтимоий стандартини тадбиқ этиш;

- уй-жой коммунал хизматлар учун тўловлар бўйича кам таъминланган оилаларга корхоналар томонидан берилаётган бюджет субсидияларининг қисқариши сабабли тарифлар ўсишини қисман қоплашга имкон берувчи мақсадли ва манзилли субсидиялар ажратишни босқичма-босқич тадбиқ этиш;

- оилавий тадбиркорликни ривожлантириш учун аҳолининг ижтимоий заиф гуруҳлари, авваламбор, талаб қилинмаган меҳнат салоҳиятига эга кам таъминланган оилаларни кредит ресурсларидан фойдаланиш имкониятларини таъминлашга йўналтирилган микромолиялаштириш институтларини кенгайтириш.

4. Мактаб ва Ўрта-махсус касб таълими тизимида бошланган ислоҳот дастурларини тугаллаш, мактаблар ва ўрта-махсус касб таълими муассасалари тегишли ёшдаги болаларни 100%га қамраб олишни таъминлаш. Мактабгача таълим муассасаларида 5-6 ёшдаги болаларни қамраб олиш даражасини

кенгайтириш. Мамлакатда таълимнинг барча погонларида босқичма-босқич иқтисодий билимларни шакллантиришга йўналтирилган таълим сифатини ошириш.

5. Соғлиқни сақлаш тизимида бошланган ислохот дастурларини тугаллаш. Аҳолига хизмат кўрсатиш бўйича бирламчи тиббий ёрдам кўрсатиш муассасалари тармоғини 100%га қамраб олган ҳолда, яхши жиҳозланган замонавий кўп профилли, ихтисослашган касалхона муассасалари ва диагностика комплексларини яратиш учун соғлиқни сақлашни ислох қилишнинг кейинги босқичини кенгайтириш. Соғлиқни сақлаш тизими сифатини ошириш, профилактик тиббиёт чора-тадбирларини тадбиқ этиш, бунинг ҳисобига касалланиш, чақалоқлар, болалар ва оналар ўлими даражасини янада камайтириш.

### **ХУЛОСА**

Мамлакатнинг инсон капитали ҳар бир фуқаронинг интеллектуал қатъийлигида, интеллектуал тадбиркорлигида, интеллектуал ҳушёрлиги, интеллектуал мардлиги, шижоатида ҳам намоён бўлади. Бу ҳар бир кишининг нималарни билишида, билимидан фойдаланиб, қайси ишларни қандай сифат билан бажара олишида, Ватанга садоқатида кўринади.

Ҳақиқатан ҳам, инсон капиталини ривожлантирмай туриб, инновацион тараққиётга эришиш мумкин эмас. Таниқли иқтисодчи олимларнинг фикрича, инсон капиталига инвестиция киритишга нисбатан бепарволик мамлакат рақобатбардошлилигини кескин пасайтириб юбориши мумкин. Мамлакат иқтисодий жиҳатдан тараққий этиши учун истеъдодли одамларни тарбиялаш талаб этилади.

### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Мирзиёев Ш.М., Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга Мурожатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.

2. Мирзиёев Ш.М., “Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз”. - Тошкент: “Ўзбекистон 2017”.

3. Рофе А.И. Рынок труда. Издательство: МиК, 2003.

4. The Political Economy of a Social Europe: Understanding Labour Market Integration in the European Union Автор: Michael F. Kluth ISBN: 0312215576 Год: 2005

5. The Political Economy of a Social Europe: Understanding Labour Market Integration in the European Union Автор: Michael F. Kluth ISBN: 0312215576 Год: 2005.

## LOPHANTHUS ANISATUS BENTHNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

**G.I.G'aniyeva**

Termiz davlat universiteti Botanika kafedrası o'qituvchisi.

**M.O'Ulashova., H.A.Xasanova., SH.Z.Allaberdiyev.**

Termiz davlat universiteti 4-kurs talabalari.

**Annotatsiya.** Dala sharoitida *Lavandula angustifolia* o'simligining urug' biologiyasi, o'sish ko'rsatkichlari, gullash dinamikasi va fenologiyasi o'rganildi. Olingan ilmiy-amaliy natijalarga asoslanib, o'simlikning urug'idan va qalamchasidan ko'chatlar yetishtirish mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan

**Kalit so'zlar:** *Lamiaceae*, *Lophanthus anisatus* Benth. urug' morfologiyasi, urug' unuvchanligi, urug'ko'chat.

### BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF LOPHANTHUS ANISATUS BENTH

**Abstract.** *Seed biology, growth indicators, flowering dynamics and phenology of Lavandula angustifolia plant were studied in field conditions. Based on the obtained scientific and practical results, information is given on the possibility of growing seedlings from the seeds and cuttings of the plant.*

**Key words:** *Lamiaceae, Lophanthus anisatus Benth. seed morphology, seed germination, seed germination.*

#### KIRISH

Butun dunyoda dori-darmon ishlab chiqarish tarmog'ining dorivor vositalarni tabiiylashtirish va dorivor o'simliklar xom-ashyosiga bo'lgan ehtiyojni qondirish dolzarb vazifalardan biridir. Butun jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga qaraganda, hozirda mavjud dori-darmonlarning 60% ni dorivor o'simlik xomashyolaridan olingan preparatlar tashkil etadi. Mamlakatimizda hushbo'y efir moyli ekinlar yetishtirish kam rivojlangan, shuning uchun inson uchun zarur bo'lgan o'simliklarni tanlash va yetishtirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.



## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Respublikamizga introduksiya qilinayotgan o'simliklardan biri *Lophanthus anisatus* Benth. Xitoy, Tibet, Mongoliyada tibbiy maqsadlar uchun foydalanadi, hatto uni turli mamlakatlarning dorixonalarida ham uchratish mumkin. Buning asosiy sababi *lophanthus anisatus* Benth. organizmning immun tizimini himoya qilish va inson organizmidagi metabolik jarayonlarning normal o'tishida muhim ahamiyatga ega. Uning tarkibidagi– antioksidantlar va shifobaxsh efir moyi, toksinlarni bog'lash va ularni tanadan olib tashlash qobiliyatiga ega, bu esa organizmni mukammal tozalashni, tiklashni va yoshartirishni ta'minlaydi. Bundan tashqari lofantni manzarali o'simlik sifatida ham foydalanish mumkin. Bularning barchasini hisobga olgan holda *lophanthus anisatus* Benth. ning bioekologiyasini o'rganish va mamlakatimizda istiqbolli ko'paytirish usullarini ishlab chiqish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

## NATIJALAR

Tarqalishi. *Lophanthus anisatus* ko'p yillik o'simlik (yaxshi parvarishlanganda bir joyda 5 yilgacha o'sadi). Lofant ildizi yaxshi rivojlangan. Poyasi tik, to'rtqirrali, keng shoxlangan bo'lib, balandligi 1-1,5 metrgacha yetadi. Barglari tuxumsimon, rombsimon, chetlari tishchali va yorqin yashil rangda, uzun qirrali, yashil, binafsha qo'ng'ir dog'lar va 5-10 smgacha uzunlikda bo'ladi. Gullari to'pgul hosil qiladi, uzunligi 25-30 smgacha yetishi mumkin, mayda binafsha rangda, barg qo'ltig'ining ham ustki qismida joylashgan. Mevasi yong'oqcha. Urug'lari juda mayda, tuxumsimon, yaltiroq, qoramtir-malla rangda, yuzasi silliq. 1000 dona urug'ining vazni 0,9-1,2 g. Introduksiya qilinadigan har bir yangi o'simlikni o'stirish uchun uning individual taraqqiyoti (ontogenezini) qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. *Lophanthus anisatus benth.* ning urug'larini shakli yumaloq, to'q jigarrang, 0,2 sm, eni 0,1 mm, og'irligi 0,9-1,2 g. *Lophanthus anisatus* Benth. ning ontogenezini o'rganish natijasida ma'lum bo'ldiki, ularni urug'larining unuvchanlik xususiyati yuqori bo'lib, ekish oldidan skarifikasiya qilish shart emas. Urug'lar issiqxona sharoitida 2021-yil 21- noyabrda biogumusga va oddiy tuproqqa ekildi. Biogumusga agroperlit aralastirdik sababi shuki, biogumusni g'ovakligini ta'minlaydi, namlikni uzoq vaqt ushlanib turishini ta'minlaydi. Biogumusda ekilgan urug'lar 5 kundan keyin unib chiqqa boshladi, yoppasiga esa 16 kundan keyin unib chiqdi.

## XULOSALAR

*Lophanthus anisatus* Benth. urug'larining unuvchanlik xususiyati yuqori bo'lib, laboratoriya sharoitida 85-96% urug'lar unib chiqdi. Issiqxona sharoitidagi tuproqda ekilgan urug'larning unuvchanligi 68% va biogumusda ekilgan urug'larning unuvchanligi esa 80% ni tashkil etdi. urug'dan ko'payishi, yuqori va past haroratga munosabati jihatdan mahsuldorligi hamda kasalliklarga chidamliligi jihatdan bu introdusent o'simlikni ochiq dala sharoitida ko'paytirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абделаал, Х.А.А. Лофант анисовый [*Lophanthus anisatus* L. (Benth.)] новое эфирномасличное растение для Астраханской области / Х.А.А. Абделаал, В.Н. Фурсов // Вестник всероссийского научноисследовательского института орошаемого овощеводства и бахчеводства.- Камызяк, РФ, 2010 .- №1(7).- С. 3.
2. Фурсов, В.Н. Агрономические указания и технология выращивания лопанта анисового [*Lophanthus anisatus* L. (Benth.)] / В.Н. Фурсов, Х.А.А. Абделаал, М. Е. Резк // Естественные науки.- Астрахань: Издательский дом «Астраханский университет», 2009.- № 2 (27).- С. 98-101
3. С.Е. Сапарклычева Виды лопанта (*Lophanthus anisatus*), интродуцируемые на среднем урале / 2017. №2 (156). С. 1-4.
4. Паршин, С.А. Урожайность и терапевтические качества лопанта анисового [*Lophanthus anisatus* L. (Benth.)] в условиях Астраханской области / С.А. Паршин, Н.В. Фурсов, В.В. Фурсов, В.Н. Фурсов, Ж.А. Зимина, Х.А.А. Абделаал // Материалы пятой Всероссийской научной конференции студентов и молодых ученых « Актуальные проблемы инновационного развития агропромышленного комплекса» (Астрахань, 29 октября-1 ноября 2009 г.). Материалы пятой Всероссийской научной

## KVANT KOMPYUTERLARI VA ULARNING ZAMONAVIY KRIPTOGRAFIYAGA TAHDIDI.

**Salayev Alisher Kuralbayevich**

[salayevalisher@gmail.com](mailto:salayevalisher@gmail.com)

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola hisoblash texnologiyalarining yanggi avlodi bo'lgan kvant kompyuterining imkoniyatlari va uning zamonaviy kriptografiyaga bo'lgan ta'siri mavzusiga bag'ishlangan.*

**Kalit so'zlar:** *Kvant kompyuteri, kvant ustuvorligi, hisoblash murakkabligi, kubit, shor algoritmi.*

## QUANTUM COMPUTERS AND THEIR THREAT TO MODERN CRYPTOGRAPHY

**Abstract:** *This article is devoted to the possibilities of the quantum computer, a new generation of computing technologies, and its impact on modern cryptography.*

**Key words:** *Quantum computer, quantum priority, computational complexity, qubit, Shor algorithm.*

### KIRISH

Zamonaviy kriptografiya, shu jumladan kalitlarni taqsimlash kriptografik protokollari barchasi matematik muammolarning maxsus sinflari atrofida ishlab chiqilgan bo'lib, ularni yechish amaliy jihatdan "qiyin" hisoblanadi. Hisoblash murakkabligi gipotezasi shuni ko'rsatadiki, ma'lum bir muammoni bugungi texnologiyalari va hisoblash resurslari yordamida samarali hal qilib bo'lmaydi. Bu yerda "samarali" iborasi "oqilona vaqt ichida" manosida ishlatilmoqda. Muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan vaqt miqdori (ya'ni, ba'zi bir kirish parametrlari berilganda chiqish natijasini topishga sarflangan vaqt) - bu kirish parametrining o'lchamidan osongina baholanadigan miqdor. Odatda, kirish hajmi qanchalik katta bo'lsa, muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan vaqt miqdori shunchalik katta bo'ladi. Ammo, agar natija olish vaqti kirish hajmining eksponensial funksiyasi bo'lsa, unda nisbatan kichik o'zgarish ham muammoni hal qilish uchun bir necha milliard yillarni talab qiladi. Binobarin, amaldagi texnologiyalar va algoritmlardan foydalangan holda

eksponensial vaqtni saralashni talab qiladigan muammolar hisoblash uchun "qiyin" hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Misol tariqasida, eng taniqli ochiq kalitli kriptotizim RSA ni qaraydigan bo'lsak, berilgan butun sonning asosiy faktorizatsiyasini hisoblash murakkabligiga asoslangan. Ushbu muammoni hal qilish uchun ma'lum algoritim eksponensial vaqt hisoblanishini talab etadi, shuning sababli tavsiya etilgan ochiq kalit hajmi 1024, 2048 va 3072 bit bo'lsa RSA kriptotizimi xavfsiz hisoblanadi. Chunki bugungi kunda dushman potentsiali odatdagi hisoblash kuchi va resurslar bilan hisoblanadi. Biroq, bu hozirgi tajribaga asoslangan taxmin, chunki muammoni printsiplial ravishda buzish mumkin emasligi to'g'risida matematik dalillar mavjud emas, masalan, hali kashf etilmagan boshqa algoritim bilan.

Klassik kompyuterlar sohasidagi o'zgarishlar va rivojlanishlar bilan bir qatorda kvant kompyuterlarining paydo bo'lishi kriptotizimlar xavfsizligiga katta tahdid solmoqda.

### NATIJALAR

Kvant kompyuterlari-bu kvant mexanikasi qonunlaridan foydalanib, hisob-kitoblarni klassik kompyuterlarga qaraganda ancha tezroq bajaradigan qurilmalardir. So'nggi yillarda bizga kvant kompyuterlarining amaliy jihatdan tezkor hisob-kitob yutuqlariga va "kvant afzalligi" atamalariga guvoh bo'lmoqdamiz. Boshqacha qilib aytganda, dasturlashtiriladigan kvant qurilmasi klassik kompyuterlar bir qancha vaqt ichida hal qila olmaydigan muammoni bir necha lahzalarda hal qila olishi mumkin. Bu esa shuni anglatadiki, hozirgi zamonaviy kriptografiya ta'minlayotgan himoyalar yaratilayotgan kvant mashinalari tomonidan buzuladi.

Kvant kompyuterlarida tashkil qiluvchi elementi, kalassik kompyuterlardan farqli o'laroq bit(0 yoki 1)lardan emas balki **kubit**lardir. Kubit bu – 0 va 1 (bitlar) qiymatlarning umumiy birikmasi bilan tavsiflangan kvant holatidir. Bunday kombinatsiya kvant superpozitsiyasining o'ziga xos xususiyat hisoblanadi. Kubitlarning bunday xususiyati klassik kompyuterlar uchun ancha murakkab bo'lgan masalalarni samarali hal qila oladigan yangi turdagi amgoritmlarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Hozirgi kunda mavjud bo'lgan mashhur kvant algoritmlaridan biri bu Shor algoritmidir, u katta sonlarni eksponensial emas palinom vaqt ichida faktorizatsiyalashga qodir. 1994-yilda yaratilgan Shor algoritmi zamonaviy kriptografiyada va kvant hisoblashda katta burilish yasadi, chunki uning qo'llanishi

bilan RSA kabi katta sonlarni faktorlashning murakkabligiga asoslangan kriptografik standartlarni osongina buzish mumkin.

Kvant kompyuterlari uchun turli zamonaviy platformalar majud bo`lib ular:

Bularning birinchisi, ionlangan atomlarning boshqarilishiga asoslangan bo`lib hozirgacha kvant algoritmlari 7 ta ionning satrlarida, 32 tagacha ionlar zanjirlarida va 2300 tagacha ionning kristallarida ishlatilgan.

Kvant kompyuterlarining yana bir toifasi supero`tkazuvchi elektron sxemalarga asoslangan bo`lib, 2019 yilda 53 kubitli dasturlashtiriladigan supero`tkazuvchi protsessor Google tomonidan hozirgi klassik kompyuterning qo`lidan kelmaydigan hisoblash vazifasini bajarish uchun ishlatilgan va shu bilan tajribada birinchi marta kvant ustunligini isbotlagan.

Yangi kvant texnologiyasining potentsiali haqida tasavvur berish uchun, Borealis klassik superkompyuterni hatto zamonaviy algoritmlar bilan ham bajarish uchun bir necha ming yil kerak bo`ladigan vazifani bajarish uchun atigi 36 mikrosaniyani olishi isbotlangan.

## XULOSA

Faktorizatsiyani tezlashtirish uchun Shor algoritmiga kelsak, u laboratoriya tajribalarida muvaffaqiyatli namoyish etildi, garchi u hozirgacha faqat kichik butun sonlar bilan sinovdan o`tgan bo`lsa ham (2012 yilda supero`tkazuvchi kvant protsessori 21 raqamini muvaffaqiyatli faktorizatsiya qildi). Shunga qaramay, texnologiyaning uzluksiz rivojlanishi va qubitlarni uzoq muddatli manipulyatsiya qilish texnikasining ishonchligi oshishi bilan biz keyingi avlod kvant kompyuterlari ko`plab boshqa vazifalar, shu jumladan faktorizatsiya uchun kvant ustunligini muvaffaqiyatli namoyish etishini kutishimiz mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Peter W. Shor. "Algorithms for quantum computation: discrete logarithms and factoring". In Proceedings 35th Annual Symposium on Foundations of Computer Science. IEEE Comput. Soc. Press (1994).
2. Lucero, E., Barends, R., Chen, Y. et al. "Computing prime factors with a Josephson phase qubit quantum processor". Nature Phys 8, 719–723 (2012).
3. Arute, F., Arya, K., Babbush, R. et al. "Quantum supremacy using a programmable superconducting processor". Nature 574, 505–510 (2019).
4. Madsen, L.S., Laudenbach, F., Askarani, M.F. et al. "Quantum computational advantage with a programmable photonic processor". Nature 606, 75–81 (2022).

## TABIY FANLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALAR VA VIRTUAL LABORATORIYALAR

**Kuchkarova Surmaxon Suvonovna**

Katta o'qituvchi, Navoiy davlat pedagogika instituti

Matematika-informatika fakulteti

E-mail: [surmaxon\\_1973@mail.ru](mailto:surmaxon_1973@mail.ru)

### **Annotatsiya**

*Maqola ta'limda tabiy fanlarni o'qitishda multimedia vositalari va virtual laboratoriyalarning o'rni, o'quv jarayonidagi multimediyalar tizimidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari aytib o'tilgan. Ta'kidlanishicha, zamonaviy o'quv jarayoni faol o'quv uslublarini ta'minlaydigan interaktiv, multimediyalar resurslaridan foydalanganda yanada samaraliroq bo'ladi. Eng yaxshi usulda ta'lim resurslari va virtual laboratoriyalar tizimlaridir. Virtual laboratoriyalar, o'zaro munosabatlar, interaktivlik, o'quvchilarning bilim va ijodiy faoliyatini shakllantirishga hissa qo'shib o'quv jarayoni uchun mo'ljallangan va kerakli maqsadga erishishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalardir.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, tizim, multimedia, virtual laboratoriya, interfaol, texnologiya, modul, innovatsiya, matn, grafika, animatsiya.

**Abstract:** *The article describes the role of multimedia tools and virtual laboratories in the teaching of natural sciences, the specific features of using the multimedia system in the educational process. It is noted that the modern educational process becomes more effective when using interactive, multimedia resources that provide active learning methods. The best way is through educational resources and virtual lab systems. Virtual laboratories are modern technologies designed for the educational process and aimed at achieving the desired goal, contributing to the formation of knowledge and creative activity of students, mutual relations, interactivity.*

**Keywords:** education, system, multimedia, virtual laboratory, interactive, technology, module, innovation, text, graphics, animation.

### **KIRISH**

Hozirgi davrda ta'lim, fan, texnologiyalar faoliyatida kompyuter axborot texnologiyalariga katta qiziqish uyg'otmoqda. Ta'limga yangi texnologiyalarni joriy

etish, shuningdek murakkab modernizatsiyalanish, nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyoda alohida e'tibor beradigan asosiy masalalar.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish, milliy kontentni rivojlantirish, davlat tilidagi ta'lim, ilmiy-ma'rifiy, yoshlar ehtiyojlariga mos zamonaviy axborot resurslarini, multimedia mahsulotlarini yaratish va targ'ib qilish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari belgilab berilgan. Bunda Respublika aholisining yuqori tezlikda Internetga ulanishi, multimedia va IP-TV xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengaytiriladi[1].

O'zbekistonning ertangi rivoji yo'lida tuzilgan dasturlar va ularni bajarish uchun yaratilgan moddiy asos va imkoniyatlar, safarbar etilgan sarmoyalarning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli omil yuqori malakali ishchi kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlar hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston respublikasi ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan yangi pedagogik texnologiya kirib keldi. Zamonaviy axborot texnologiyalarining xar biri ma'lum texnik, dasturiy va boshqa ta'minotlarga bog'liq.

Multimedia texnologiyasidan va uning asosiy vositasi bo'lgan kompyuterlardan maktabgacha ta'lim muassasalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga foydalanish bo'yicha xorijiy mamlakatlar, masalan, Rossiyaning olimlaridan N.Z.Frolova, S.V.Gurev, V.P.Kustova, N.I.Klifsova, L.A.Savina, N.M.Klimeshova, M.V.Osmakovalar, AQSHda multimedia texnologiyasidan ta'lim jarayonida foydalanish bo'yicha D.Jonassen, S.Carver, R.Grabindger, D.Davidson, R.Lehrer, A.Mullon va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarni amalga oshirganlar. O'zbekistonda multimedia texnologiyasi va uning asosiy texnik ta'minoti hisoblangan kompyuterlardan foydalanish 1985-1990 yillarda boshlangan. Birinchilar qatorida A.A.Abduqodirov o'zining ilmiy ishlarida oliy o'quv yurtlarida fizika-matematika predmetlari bo'yicha o'qituvchilar tayyorlashda, ularning kompyuter savodxonliklarini shakllantirish muammosiga oid ilmiy- tadqiqot ishlarni amalga oshirdi va shu yo'nalish bo'yicha maktab yaratdi, Maktab a'zolari qatoriga Atabayev A., Bilolov I.O'., Mizrapov O'.H., Isakov I., va

boshqalarni kiritish mumkin. Respublikamiz ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasi va kompyuterdan foydalanish bo'yicha T.F.Bekmurodov, M.Aripov, X.Z.Ikromova, U. YUldashev, F.Zokirova, U.Begimqulov, R.R.Boqiyev, N.Toyloqov, va boshqalar ham ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar va ularni ommalashtirishda katta hissa qo'shmoqdalar [3]

Virtual laboratoriyalar elektron –ta'limiy muhitda real hayotiy ob'yektlar hatti-harakatini modellashtirib, o'quvchilarga asosan fizika, kimyo, biologiya, matematika, geometriya, informatika kabi ilmiy-tabiiy fanlardan yangi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishga imkon beradi. (Abildinova G.M., Duysenova M. Virtual laboratoriya o'quvchilar bilim sifatini oshirish vositasi sifatida). Virtual laboratoriya termini ostida aniq fanlarni o'qitish jarayonida laboratoriya mashg'ulotlarida laboratoriya qonun-qoidalarini bajarish uchun zarur bo'lgan kompyuter axborotlari jamlanmasi tushuniladi [5]. Berlin Maks Plank instituti olimlari Sven Diyerig, Jyorg Kantel, Xenning Shmidgen A.F. Yegorov, V.P. Belkov, T.V. Savitskayaning fikricha, virtual laboratoriya «integratsiyalangan axborot muhiti bo'lib, o'quv, o'quv-metodik, amaliy, ma'lumotnoma, nazorat-o'qitish va nazorat-test materiallarini o'z ichiga oladi».N.V. Krivolutskaya «virtual laboratoriya –matematik modellarni qurishda keng imkoniyatlarga ega hamda amalda yagona dasturiy-hisoblash kompleksi bo'lgan turli tabiiy (fizik) hodisalarni tadqiq qilish apparati», deb hisoblaydi. Virtual laboratoriyaning afzalliklarini ta'kidlar ekan, K.I. Bogatirenko yozadiki, bu «metodik materiallarni ishlab chiqishga sarflanadigan vaqtni keskin kamaytirish va asosiy e'tiborni o'rganiladigan nazariyaning metodlari hamda olingan natijalarni tahlil qilishga qaratish imkonini beradigan» vositadir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qituvchining kreativ ta'lim amaliyotining ilg'or tajribalarini o'zlashtirish va ommalashtirish qobiliyati, uning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Ta'lim muassasalarida ta'lim berishning bir necha xil usullari mavjud bo'lib, bunda nazariy hamda amaliy mashg'ulotlar muhim o'rinlardan birini egallaydi. Bilimlarni uzatishning bu shakllari ma'ruza mashg'ulotlari davomida egallangan ma'lumotlarni mustahkamlash va chuqurroq o'zlashtirishda, nazariy bilimlarni amaliyotda tadbiiq etib o'z malakalarini oshirishga xizmat qiladi. Amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda, o'quv materialini puxta o'zlashtirishda alohida o'rin egallab, auditoriya mashg'uloti soatlarining ma'lum bir qismini tashkil etadi.

Bugungi kunda o'qituvchi har bir mashg'ulotga, xususan, amaliy mashg'ulotlarga alohida tayyorgarlik bilan kelishi lozim, ya'ni mavzuni o'qishda qo'llaydigan metodlarini, jumladan, masala, misollarni chuqur o'ylab, ulardan qanday tarzda



foydalanishni ko'z o'nggiga keltirishi zarur. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarga individual yondoshish imkoniyati mavjud bo'lganligi sababli, u yoki bu turdagi, murakkablikdagi muammolar uchrab qolsa, o'qituvchining tushuntirish berib o'tishi, yo'l-yo'riqlarni ko'rsatishi, lozim bo'lsa nazariy qoidalarni eslatib o'tishi ham maqsadga muvofiq.

Aynan mana shu mashg'ulotlarni tashkil etish va olib borish jarayonida so'nggi yillarda fanlar bo'yicha yaratilayotgan elektron manbalar (elektron o'quv qo'llanmalar, elektron uslubiy qo'llanmalar, amaliy va laboratoriya, virtaul laboratoriya mashg'ulotlari uchun elektron ishlanmalar, ensiklopediyalar va h.k) ga ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Shu bilan bir qatorda dars mashg'ulotlarida yani tabiiy fanlarni o'qitishda ham axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Tabiiy fanlarda virtaul laboratoriya mashg'ulotlari, 3D texnologiyalar, suniy intellektlardan online va offline foydalanish imkoniyatlarini beruvchi dasturlar ham axborot texnologiyaning bir misolidir. Bu borada ta'lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini axborot va raqamli texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir.

Ma'lumki, an'anaviy o'qitish tizimida o'quv materiallari odatda matn va formulalar ko'rinishida taqdim etiladi va ularni yodda saqlab qolish bir muncha qiyinchilik tug'dirar edi. Mashg'ulotlarni axborot texnologiya vositalari yordamida ishlab chiqilgan maxsus dasturiy ta'minotga ega bo'lgan innovatsion dasturiy-didaktik majmualar asosida tashkil etilishi, nafaqat matn va formula ko'rinishida, balki obrazlar ko'rinishida ham taqdim etish imkonini beradi.

Ta'lim jarayonida foydalaniladigan dars vositalari (elektron manbalar, online virtual dasturlar, tarqatma materiallar, texnik vositalar va boshqalar) dars jarayonini qiziqarli va o'qituvchi hamda ta'lim oluvchilar uchun ko'plab imkoniyatlar beradi. Bu dasturlar yordamida ta'lim oluvchilarda tasavvur qilishi va amalda bajarishi imkoni bo'lmagan jarayonlarni hamda ularning xavfsizligi ta'minlash maqsadida multimedia va virtual amalga oshirish imkonini beradi.

O'quvchilariga ta'lim berish jarayonida multimedia va virtual tizimni qo'llash orqali amaldagi o'z pedagogik faoliyatini anglash, yanada yuqori natijalarga erishish maqsadida o'quv-tarbiya jarayonini o'zgartirish va rivojlantirish, yangi bilim, boshqa bir sifatdagi pedagogik tajribaga ega bo'lishdagi jarayon tushuniladi.

Ta'lim berish jarayonida multimedia va virtual tizimni qo'llash doirasida ta'lim oluvchilarni tushunish, unga ta'lim va tarbiya berish, rivojlantirishga bo'lgan yangicha falsafiy-pedagogik, psixologik-pedagogik yondashuvlar; ta'lim mazmuni va metodlarini qo'llashning yangi konseptual pedagogik g'oyalari; o'quvchining faoliyati va hayotini tashkil etishning yangi shakllari hamda pedagoglarning boshqarish va o'z-

o'zini boshqarish ota-onalar va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siridagi faoliyati amalga oshiriladi.

Virtual laboratoriya bu platforma bo'lib, faqatgina belgilangan vaqtda mavzu yuzasidan amaliy ishdir, shuning bilan birga yangi bilimlarni egallash uchun ilmiy muhitdagi bizning belgilangan hatti-harakatlarimiz.

Bilish faoliyatining asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi:

1. Tanishuv, qabul qilish: metodik tavsiyalar, bosma qo'llanmalar.
2. Anglash, mustahkamlash va bilimlarni tekshirish: elektron o'quv qo'llanmalar, test tizimlari, virtual o'quv xonalari.
3. Kasbiy yo'nalgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish, intuisiyani rivojlantirish: matematik yoki immitasion modellashtirish, trenajerlar va boshqa o'quv tizimlari.
4. Loyiha-tadqiqotchilik o'quv faoliyati: o'quv yoki ishlab chiqarish qo'shimcha dastur paketlari kiradi.

Ta'biy fanlar bo'yicha fizika, kimyo, biologiya, matematika, geometriya, informatika asboblari va qurilmalar bilan shaxsan tanishmasdan va ularda ishlash ko'nikmalarini shakllantirmasdan turib, yetuk mutaxassisni tayyorlashni tasavvur qilish qiyin. Masofaviy ta'limni tashkil etish sharoitlarida laboratoriya praktikumining an'anaviy shakllari foydalanuvchi (o'quvchi tajriba o'tkazuvchi) ning modellashtirish muhiti bilan samarali interfaol o'zaro aloqalariga erishish yo'lida apparatli-dasturli (texnik) vositalar, kompyuter grafikasi va animasiyadan foydalanib, fizik tajribani imitatsiya qilish hamda matematik modellashtirish texnologiyasidan foydalanuvchi, virtual laboratoriyalar bilan to'ldiradi. Virtual laboratoriyaning muhim jihati asboblarning odatiy tasvirlari bilan birga, haqiqiy signallarni imitatsiyalash modellarinigina emas, balki zarur ma'lumotlar fayllarida saqlanadigan avvalgi tajriba ma'lumotlar fayllarida foydalanish yo'li bilan tajribani ko'rgazmali imitatsiya qilish mumkinligi hisoblanadi. O'qitish natijalari kafolatining asosi yaxlit o'quv jarayonida tashkil etiluvchi operativ javob aloqasi hisoblanadi. O'quv materialini o'rganishda qo'yilgan maqsadlarga yo'naltirilgan kundalik natijalarni baholash va ta'lim mazmunini boyitib boradi.

Informatika fanini o'qitishda multimedia va virtual laboratoriya tizimi haqida tushuncha berish, multimedia va virtual laboratoriya vositalaridan foydalanib bilim olishning ahamiyati, uning yaxshi tomonlarini aytib o'tish lozim va o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va mavzuni mustaqil o'zlashtirish samaradorligini va ahamiyatini shakllantirishdan iborat [6];

Multimedia texnologiyalariga asoslangan ta'lim ahamiyatli darajada texnik va dasturiy infrastrukturaga tayanadi. Multimedia (o'quv axborotlarini joylashtirish va taqdim qilish sifatida) va kompyuter qurilmalari (uni tashkil etish va nomoyish vositasi sifatida) xizmat qiladi. Shuning uchun multimediali elektron resurslar yaratishda

hisobga olinishi zarur bo'lgan tamoyillardan biri o'quv materialini taqsimlash tamoyil hisoblanadi. Multimedia elektron resurs ishlab chiqishda hisobga olinishi kerak bo'lgan ikkinchi muhim tamoyil o'quv materialini interaktivligidir. Interaktiv vositalar axborotni taqdim qilishning turli xil vositalarini - tekst, statik va dinamik grafiklar, video va audio zapislarni bir butun majmuaga birlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu esa ta'lim oluvchini o'quv jarayonida faol ishtirokchi bo'lishiga yo'l beradi, modomiki, axborotlarni taqdim qilish ta'lim oluvchining harakatiga muvofiq javob sifatida yuz beradi [4].

Ta'lim jarayonini optimallashtirish yo'lida asosiy muammo insonni yangi bilimlarni egallash jarayonidagi holatini baholash va yaxshilashdir. Bunda multimediali elektron ta'lim resurslarni yaratishda hisobga olinishi lozim bo'lgan to'rtinchi tamoyil - ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlariga moslashtirish tamoyilidir. Ta'limda mustaqil ishlarni (multimediali elektron ta'lim resurslarni qo'llagan holda) ahamiyati katta bo'lishiga qaramasdan, o'quv jarayonining asosiy sub'ektlari o'quvchi va o'qituvchi hisoblanadi. Ta'lim faoliyatida o'quvchining o'qituvchi bilan baravar qatnashishi sifatli ta'lim shartlaridan biridir.

Multimediali elektron ta'lim resurslarni yaratishning yuqorida ifodalangan tamoyillari elektron ta'lim vositalarini sifati va samaradorligini oshirishga imkon beradi. Virtual ta'lim tizimi – bu onlayn kurslarni o'qituvchilar tomonidan tuzish, boshqarish uchun yaratilgan web tizim hisoblanadi. Virtual laboratoriya o'quv multimedia majmualaridan foydalanish ta'limda yaxshi samara beradi.

Virtual laboratoriya - bu bizga haqiqiy o'rnatish yoki bunday bo'lmagan holda to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilmasdan tajriba o'tkazishga imkon beradigan dasturiy ta'minot va apparat kompleksi. Virtual laboratoriyalarda ikkita turdagi dasturiy ta'minot va apparat komplekslari tushuniladi: 1) olis laboratoriyalar - masofaviy kirish bilan laboratoriya o'rnatish; 2) Virtual laboratoriyalar - laboratoriya eksperimentlarini taqlid qilishga imkon beradigan dasturiy ta'minot. Tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish laboratoriya ishlarini yanada tirik va qiziqarli qilib, ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi [3].

Bu dasturlarga ya'ni tabiiy fanlarni raqamli o'qitishda Crocodile Physics, Crocodile Chemistry, Phet, Yanka, Vbb va boshqa dasturlardan virtual laboratoriyalarda foydalanish katta samara beradi. Phet dasturida ham axborot texnologiyalarga asoslangan virtual darslarni amalga oshirishimiz tayyorlangan virtual laboratoriya ishlarini <https://ictschool.uz/fizika/>, <https://ictschool.uz/kimyo/> talim saytlaridan ham online yoki offline foydalanish imkoniyati mavjud.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Multimedia vositalari yordamida o'qituvchilar vaqtdan yutishlari va didaktik vosita tayyorlashga sarf qiladigan vaqtini o'quvchi bilan yoki o'z ustida ishlashga sarflashlari mumkin. Amaliyotda multimedia vositalaridan hamda virtual laboratoriya foydalanish aniq fanlarni o'qitish ikki baravar unumli va aniq fanlarni mukammal o'zlashtirish imkoniyatini yaratib bermoqda. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki multimedia vositalari hamda virtual laboratoriya asosida aniq fanlarni o'rganish 40 % vaqtni tejab, olgan bilimlarni xotirada ancha muddat saqlab qolish imkoniyatini bermoqda. Shu bilan birga multimedia vositasida hamda virtual laboratoriyalarda tasvirlangan materiallarni ko'rish va eshitish orqali aniq fanlarni o'rganish, topshiriqlarni to'g'ri va aniq bajarish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatini oshiradi [6].

Bu dasturiy ta'minotlar ta'biy fanlar bo'yicha fizika, kimyo, biologiya, matematika, geometriya, informatika fanidan ta'lim sifat va samaradorligini oshirish, o'quvchilar tasavvurlarini oshirish, mustaqil ta'lim olishini ta'minlashga imkoniyat beradi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida multimeiali vositalari va virtual laboratoriyalarning o'рни ahamiyatli bo'lib, elektron vositalardagi bilimlarni o'zlashtirish orqali ijodiy fikrlash rivojlanadi, bola nostandart bo'lmagan holatlarda yagona haqiqiy yechimni topishni o'rganadi. Fikrlash jarayonlari ongli bo'lib, rivojlangan xotiraga tayanadi. Bolalarning ijodiy qobiliyati oldinga chiqadi.

## XULOSA

Dars jarayonida maxsus tayyorlagan multimedialli ilovalardan, videolavhalardan, turli animatsion *virtual laboratoriya* materiallardan foydalanib, o'quv jarayoni tashkil qilinganda, o'quvchilarning amaliy tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. Ma'lumki darsning odatiy – ana'naviy o'tilishi o'quvchilarning 25% ga yaqini o'zlashtirishi mumkinligi pedagog olimlar tomonidan isbotlangan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida ham ma'ruzani eshitish, ham materialni komp'yuter ekranida ko'rish va uni ekranda chiqarishni aktiv boshqarish o'zlashtirish sifatini oshiradi.

## ADABIYOTLAR

[1]. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017y., 7-son.

[2]. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tizimiga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish konsepsiyasi, Toshkent, 2013 y.

[3]. A.A.Abduqodirov, N.X.Begmatova Maktabgacha ta‘lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti o‘quv-uslubiy qo‘llanma. - Qarshi «Nasaf» nashriyoti, 2011 y

[4]. Maxmudova M. A., Nasirova Sh.N. Elektron resurslarni ta‘limda qo‘llashdagi imkoniyatlar samaradorligi. Oriental art and culture ISSN 2181-063X Scientific methodical journal special issue, II/2020, Kokand, 204-211 b.

[5]. Егоров.Е.П. ОўЮ таълим жараёнида виртуал лабораторияларни қўллаш методикаси. “Концепт” илмий методик электрон журнал 2013 йил 7 сон июль

[6]. Maxmudova M. A., Nasirova Sh.N. Multimedial electronic educational materials in education efficiency. Международной научно-практической конференции «Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога» «Тверской государственной университет» 26–28 марта 2020, 298-302 с.

## CHET TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH AFZALLIGI

**Komilova Shahzoda**

Nizomiy nomidagi TDPU

Xorijiy tillar fakulteti 102-A guruh talabasi

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada chet til o‘qitish metodikasi to‘g‘risida, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet tilini o‘qitishda zamonaviy metod turlari, shuningdek, ulardan foydalanish xususida so‘z yuritimiz.*

**Kalit so‘zlar:** *metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko‘nikma, malaka, millatlararo muloqot, didaktika.*

**Keywords:** *methodology, innovation, foreign language, communication, skills, competencies, didactics, international communication.*

### KIRISH

Hozirgi davr ta‘lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqarmoqda. Davr talabi bilan kun sayin ta‘lim tizimida yuksak marralar ko‘zlanmoqda, ularga yangiliklar kiritilmoqda. Bilimlar ham endi yuksalmoqda, talaba yoshlarning, maktab o‘quvchilarining ustoz-murabbiylardan talab yanada kuchaymoqda. Darsliklar yangilanmoqda, o‘qitish metodikasi ham o‘zgarmoqda. Bugungi kun talabi bilan yoshlarning ongi tez yuksalmoqda. Kuchli bilimga va mahoratga ega pedagoglar bilan ishlashni ustun bilishmoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan dars jarayonlarini tashkillashtirish ham anchayin keng yoyilmoqda. Joriy yilning “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb nomlanishi ham buning yaqqol dalili.

Nega deganda, har sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bu yosh avlodga, uning kelajagiga qaratilgan e‘tibor nishonasi demak. Bu esa yoshlarning yelkasidagi mas‘uliyat hssini yanada oshirdi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Biz bilamizki, til o‘rganish inson uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi, porloq kelajak sari yangidan yangi imkoniyatlar debochasini ochib beradi. Shuningdek, til o‘rganish kishilik jamiyatida nihoyatda yuksak mavqega ega hisoblanadi. Muloqot aloqasi bo‘lmish tilni tabiiy muhitda, ya‘ni olada, jamoatchilik orasida yoxud birlashgan tarzda amaliy egallash mumkin. Til hodisasiga oid bilimlar nazariy tomonlama o‘rganiladi. Xalqaro munosabatlar yuksak o‘rin kasb etayotgan zamonda

yashar ekanmiz, ko‘plab tillarni bilishimiz bu biz uchun ulkan ahamiyatga ega hisoblanadi. Mamlakatimizda maktabda tahsil olayotgan o‘quvchilar 3 tilni o‘rganishadi: bular ona tili, ikkinchi til so‘ngra ingliz tillari sanaladi.

Chet tili deganda biz, tabiiyki, xorijiy davlat tillarini tushunamiz, albatta. Yurtimizda bugungi kunda G‘arbiy Yevropa tillari bilan birgalikda Sharq tillari ham o‘rgatilmoqda. Bu esa yurtimizda imkoniyatlar yuksak darajada ekanligidan dalolatdir. Xo‘p bular orasidan 3tilni o‘qitish o‘quv rejasidan o‘rin olgan. Tillarni o‘rganish ham turlicha kechadi. Misol uchun, ona tili va ikkinchi tilni biz ko‘proq muloqot jarayonida o‘zlashtiramiz. Uchala til orasidan chet tilini o‘rganish tubdan farq qiladi. Bu esa bizdan turli xil chet tili o‘qitish metodlarini, texnologiyalarini talab qiladi. Chet tili muallimi metodikani chuqur o‘zlashtirish orqali o‘quvchi-talabanning to‘plagan “til” tajribasi me‘yorini aniq bilishiga yanada yordam beradi. Chet tilini mukammal o‘rgatish uning metodikasini taqozo etadi. Chet tillarni samarali o‘rganish va o‘rgatish ko‘p jihatdan chet til o‘qitish metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo‘llanishiga bog‘liqdir.

Metodika predmenti— chet tii predmenti orqali ta‘lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet tili o‘rganish ilmi, o‘qituvchi faoliyatining metodikasi predmenti sanaladi.

Biz bilgandek, metodikaning asosiy tushunchalari bu — metod, usul hamda prinsip. Xo‘sh, didaktika nimani o‘rgatamiz? Mazmunida bo‘lsa, metodika qanday o‘rgatamiz? kabi ma‘noda hisoblanadi. “Metodika” atamasi tor ma‘noda ta‘limning konkret shaklidagi jarayon bilan bog‘liq tushunchani anglatadi. Mashg‘ulotlarni qay darajada tashkil etish, shuningdek, tarqatma materiallardan ko‘proq foydalanish, dars jarayonini ko‘proq amaliy tashkillashtirishni talqin qiladi. “Metod” tushunchasi keng ma‘noda o‘quv materiallarni taqsimlash, tabaqalash hamda tanlashni nazarda tutadi. Chet tillarini o‘rganish metodikasi faqat aqliy tarbiya vositasi sifatida emas, balki o‘zga madaniyat qadriyatlari, bu bilan birgalikda, til boyliklari bilan tanishish kabi masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropada chet tilini uzoq vaqt o‘rganish yuqori darajadagi ta‘lim olishga imtiyoz beradi.

Chet til o‘qitish metodi — deyilganda chet tilini o‘rgatishning amaliy, umumta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuv ta‘minlovchi muallim va o‘quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tabiat va jamiyat hodisalari o‘zaro bog‘langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Hodisa va predment ayni zamonda ko‘plab fanlarning tadqiqot manbayi hisoblanadi, shuningdek, til itimoiy hodisa sanalib, o‘z nuqtayi nazaridan tilshunoslik, ruhshunoslik, ta‘limshunoslik o‘rganadi. “Chet tili metodikasi” atamasi kishi ongida

quyidagicha ya'ni assotsatsiya "bog'lanish" uyg'otadi: avvalambor, tilni o'rgatish usullari va unga qaratilgan metodlar yig'indisi hisoblanadi. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq atamalar hisoblanadi.

Metodlar tarixi atoqli metodist professor I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tajriba metodi ikki asosda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumiyta'limiy maqsadda o'rganilgan.

Chet til o'qitish metodikasida "kommunikativ didaktika" metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika o'zida quidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

- Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi;
- Mavzu va mazmun muhim;
- Darsdagi asosiy ish shakli: suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash;
- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o'rganish.

Madaniyatlararo muloqotlar – turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf-odatlarini, qadriyatlarini sistemalari to'g'risidagi muloqot - ma'lumotidir. Mazkur jarayonda o'quvchi-talabalarni o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr-toqat qilish va o'zga mamlakat madaniyatini to'g'ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim.

Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlik, bag'rikenglik hisoblanadi. Har bir chet tili darsi madaniyat chorrahasi, madaniyatlararo muloqot amaliyoti sanaladi. Chunki mazkur jarayondagi har bir chet tilidagi so'z chet el hayotini va madaniyatini o'zida aks ettiradi. O'qituvchilar oldidagi vazifa o'quvchi va talabalarning kommunikativlik, muloqotga kirisha olish qobiliyatini o'stirishdan iborat. Buning uchun kishilarni samarali muloqot qilishiga o'rgatuvchi o'quv qo'llanmalar, shu bilan birga chet tildagi 4ta nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limning yangi metodlarini o'zlashtirish zarurdir.

Madaniyatlararo muloqotlarda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida "tee oder kaffee?" ya'ni "choy"mi yoki "kofe"mi degan savolga ona tilimizda "tee" "choy" deb javob beramiz, lekin nemis tilida ammo bu javob to'g'ri kelmaydi. Nemis tilida "bitte tee", ya'ni "marhamat choy" deb javob beriladi. So'z kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog'laydi. Yangi materialni bir vaqtning o'zida barcha nutq faoliyati turlarida qo'llash natijasi malaka va ko'nikma hosil qiladi.

Kommunikativ ko'nikmalarni quyidagi gurularga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar;
2. Axloqiy-estetik ko'nikmalar;



3. Estetik ko'nikmalar;
4. Texnologik ko'nikmalar .

Pedagogik muloqot madaniyati uchun zarur bo'lgan qator shaxsiy sifatlar: haqqoniylik, ochiqlik, o'z-o'zini boshqara olish, talabchanlik, samimiylik, sabr-toqatlik, chidamlilik, taktika kabilarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi faqat o'z kommunikativ mahoratini emas, balki o'quvchilarning ham madaniyatlararo muloqotini shakllantirishi lozim. O'qituvchi o'quvchi psixologiyasini puxta bilishi talab etiladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, pedagogik, madaniyatlararo muloqot yakuniy natijaga ko'ra muvaffaqiyatga erishishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bu pedagog-muallimning qanday muomala metodini tanlashi va uni qanday amalda qo'llay olishiga bog'liqdir. Albatta, bu natijaga faqatgina darsni to'g'ri tashkil etish, ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng amalda foydalanish orqaligina erishish mumkin.

## XULOSA

Chet tilini o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan, ona tili va chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda turli metod hamda texnologiyalardan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet tili bilan ona tilini taqqoslab o'rganish samarali natija beradi.

Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet tilini o'rganish natijasida o'zga malakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Chet til ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta'limida, balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etishda pedagog faoliyati va zamonaviy texnologiyalarning o'ri beqiyos. Chet til o'rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun pedagog zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarni egallashi lozim.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maxmudov, Q.S.O.G.L., Shayxislamov, N.Z.O.G.L., Jo, B.B. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli tasniflanishi. Science and Education, 1 (Special Issue 3).
2. Juraboyev, B.B (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv . Science and Education, 7(7), 215-220.
3. Juraboyev, B. B . O. (2021) Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
4. Juraboyev, B. (2020) . Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. Science and education , 1 (special issue 4).
5. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. Academic research in educational sciences, (3).
6. Ахмедова М. Ҳозирги замон ёшлар нутқидаги жаргонлар. О'zMU xabarlarlari.- 2015.-№ 1\9. Б-257.

## INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOG TEXNOLOGIYALARI

**Sabirjonova Dilnoza**

Toshkent davlat yuridik universitetining

Ixtisoslashtirilgan filiali

Umumta'lim fanlari kafedrası xorijiy til o'qituvchisi

**Annotasiya.** *Ushbu maqolada bugungi kunda ingliz tili darslarini tashkil qilishda zamonaviy pedagog texnologiyalari xususida so'z boradi. Shu jumladan, mazkur maqola mazusiga doir rasmiy va ilmiy adabiyotlar o'rganilib mavjud mummo yuzasidan taklif va tavsiyalar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Pedagog texnologiyalar, interfaol metodlar, zamonaviy yondashuv.*

### MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

**Abstract.** *This article talks about modern pedagogical technologies in the organization of English language classes today. In addition, the official and scientific literature on the subject of this article is studied and suggestions and recommendations are made regarding the existing issue.*

**Key words:** *Pedagogical technologies, interactive methods, modern approach.*

### KIRISH

Bugungi kundagi sur'at bilan rivojlanayotgan dunyo aholisining ko'pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplasha oladi. Albatta, bu tillarning dastlabkisi o'zining ona tilisi bo'lib, ko'pchilik tilshunolar nafaqat o'rganilayotgan chet tilini, balki ona tilini o'zlashtirish uchun ham alohida sharoit yaratilishi kerak deb hisolaydilar. Ta'kidlab o'tish joizki, xorijiy tillarni o'rganish borasida qilinayotgan islohotlar natijasida o'sib kelayotgan yangi avlod maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib oliy ta'lim muassasasigacha ona tili va chet tilini bir paytning o'zida taqqoslab o'rganadilar.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda talabalarning shaxsiy natijalari bilan bir qatorda mavzu va metasubjekt natijalariga erishish vositalari ta'lim texnologiyalari hisoblanadi [1]. Chet tilini o'qitish natijalarini ta'minlash bo'yicha o'qituvchining ish tizimi quyidagi texnologiyalarni amalga oshirishni o'z ichiga olishi shart: kommunikativ ta'lim

texnologiyasi, matnning kommunikativ ma'nosini anglash texnologiyasi, o'yin texnologiyalari, hamkorlikda o'rganish texnologiyalari, loyiha texnologiyalari va boshqalar. Ushbu jarayonda A.V.Volovin "... tilni umuman o'rgatish mumkin emas, tilni faqat o'rganish mumkin" deya ta'kidlaydi [2]. Shubhasiz, ushbu yondashuv bilan asosiy rolni o'quvchining shaxsiyati, uning motivatsiyasi, qobiliyatlari va maqsadlari o'ynaydi. Internetning ommaviy rivojlanishi axborot resurslari doirasini kengaytirdi. Axborot resurslarining aksariyat qismi hozirda Internetda ingliz tilida taqdim etilmoqda va o'zlari bilmagan holda, tarmoq foydalanuvchilari o'zlarini cheklashadi va katta miqdordagi ma'lumotlardan foydalana olmaydilar [3]. Ta'limda qo'llaniladigan yangi axborot texnologiyalari shu tarzda yaratilganki, ular yordamida odatdagi o'quv ish turlarini (ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar, konsultasiyalar, test sinovlari va hokazo) shunchaki yuqori texnik darajada amalga oshirish mumkin[4]. Bunday haqiqatlarga duch kelgan talabalar, o'rganilayotgan chet tili, xususan, ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki bilish, o'zini rivojlantirish, o'z qirralari va qiziqish doiralarini kengaytirish, shaxsiy ehtiyojlarini qondirish vositasi rolini ham bajarishini tushunadilar. Fikrimizcha, universitetlarning mutaxassis bo'lmagan kafedralarida chet tilini o'qitishda eng qiyin bo'lgan narsa bu murakkablik prinsipi, og'zaki asos va og'zaki taraqqiyot prinsipi, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan yo'nalishi va faoliyatga yo'naltirilgan tabiatdir.

## NATIJALAR

Muammo shundaki, mutaxassis bo'lmagan talabalarni kichik guruhlarga bo'lish har doim ham mumkin emas. Innovasion ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash orqali qobiliyatlarni rivojlantirishdan iborat. Poydevorlilik yaxlitlik va shaxsning manfaatlarini qondirishga yo'naltirilganligi bilan birgalikda yangi ta'lim paradigmasining asosiy xususiyatlarini yaratadi. "Fundamental ilmiy-gumanitar ta'lim dunyoning zamonaviy tabiiy-ilmiy manzarasini yaxlit tasavvur qilishi, kasbiy faoliyat natijalarini baholash uchun ilmiy asos yaratishi, shaxsning ijodiy rivojlanishiga va individual hayot dasturini to'g'ri tanlashiga ko'maklashishi kerak. Ta'kidlash joizki, xorijiy tilni o'rganish yangi so'zlar va iboralarni passiv yodlashgacha qisqartirilganidan beri ko'p vaqt o'tdi. Bir xillik, grammatik qoidalarning zerikarli tekshirilishi va eng yaxshi holatda rus tilidagi iborani chet tiliga tarjima qilish qobiliyati - bu chet el aloqa vositasini o'zlashtirishda mukammallikning chegarasi edi. Dunyo uzoq vaqtdan beri chet tili va uslublarini o'rganishga juda ko'p yondashuvlarni bilgan bo'lsada, bizning mamlakatimizda ingliz tilini o'qitish metodikasida haqiqiy inqilob faqat 20-asr oxiri 21-asr boshlarida sodir bo'ldi [5]. Yondashuvlar va maqsadlar o'zgardi. Bugun hamma chet tilini o'rganmoqda. Odamlar soniga mutanosib ravishda texnikalar soni ham ko'paygan. Biroq, texnikaning har birida ijobiy va salbiy tomonlari

mavjud. Eski maktabning prinsiplari, hozirda qo'llanilishi o'z samarasini berganiga qaramay, keskin tanqidga uchraydi. Bitta savol - bu natijalarga erishish uchun qanday xarajat bilan erishish mumkin edi? Qoida tariqasida, tilni o'zlashtirish uchun uzoq vaqt davomida tarjima, matnlarni o'qish, yangi so'zlarni yodlash, turli mashqlarni bajarish va qayta hikoya qilishga vaqt ajratib, kitoblarni ko'zdan kechirish kerak edi. Faoliyatni o'zgartirish uchun insho yozish yoki diktant yozish kabi vazifalar taklif qilindi. Qadimgi texnikalardan biri bu klassik yoki fundamentaldir. Klassik metodologiyaning maqsadi nafaqat o'rganish, balki chet tili prinsiplarining nozik tomonlari va tafsilotlarini tushunishdir. Klassik metodologiyaning asosiy vazifasi - tarjima qilinadigan tilning grammatik bazasini shakllantirishdir [6]. Ushbu texnikani maktabda ingliz tilini o'rganishni boshlaganlar yaxshi bilishadi. Shunisi e'tiborga loyiqki, u Qozog'istonda ham, boshqa chegaradosh davlatlarda ham ko'plab til universitetlari tomonidan tanlanadi. Ushbu usullardan biri lingvistik ijtimoiy-madaniy metod deb ataladi. Yuqoridagi uslubni qo'llab-quvvatlovchilar zamonaviy chet tili grammatik qoidalar to'plami bo'lmasligi kerak, deb hisoblaganlardir. Aksincha, tildan tashqari omillarning yo'qligi ingliz tilini o'rganish zerikarli va maqsadsiz bo'lib qolishiga olib keladi. Tilshunoslik-ijtimoiy-madaniy uslubning tarafdorlari chet tilini kommunikativ vosita darajasiga ko'tarishadi, bu odamga nafaqat gapirishga yordam beradi, balki o'zini namoyon qilish imkoniyatini beradi. Tilshunoslik-ijtimoiymadaniy metod tamoyillariga amal qilgan holda, bema'lol aytishimiz mumkinki, chet tili - bu tilning turmush tarzi, urf-odatlarini, madaniyati va tarixini aks ettiruvchi o'ziga xos oyna hisoblanadi. Biroq so'nggi yillarda chet tillarini o'qitishning eng ommalashgan metodlari qatorida statistiklar reytingi va hisob-kitoblarida birinchi qatorni egallagan kommunikativ metod mavjud. Ushbu metod Amerika va Yevropada o'zini ko'rsatdi. Dunyoni zabt etishni davom ettirgan holda, respublikamizning etakchi til universitetlarida qo'llanilib, kommunikativ metodologiya bizga keldi. Metodika chet tillarini o'qitishning ikkita asosiy usulini birlashtirishga asoslangan: an'anaviy va zamonaviy. Nomidan ko'rinib turibdiki, muloqot aloqada muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnikaning asosiy maqsadi til to'sig'ini yengib o'tishdir. Eng asosiysi, insonni chet tilidan qo'rqishi, chet tilida gapirish qo'rqividan qutqarish va shu bilan birga boshqa til qobiliyatlarini rivojlantiradi, xususan, gapirish va yozish, o'qish, tinglash va hokazo.

## MUHOKAMALAR

Shuni ta'kidlash kerakki, grammatika chet tilida gaplashish, muloqot qilish jarayonida o'rganiladi. Bu prinsipda birinchi navbatda talabalar til formulalarini, iboralarni yodlab oladilar va yodlay oladilar hamda shundan keyingina yodlangan iboralarda topilgan grammatik xatolarni tahlil qiladilar. Ismning o'zi aloqa amaliyoti kommunikativ metodikada alohida o'rin tutishi haqida gapiradi. Kommunikativ

texnika chet tilida soʻzlashish koʻnikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuni ham taʼkidlash joizki, metodikani qoʻllash bevosita dars tuzilishiga taʼsir qiladi. Auditoriyada koʻpincha oʻyin vaziyatlaridan foydalanish, guruh ishlarini olib borish, xatolarni topish va taqqoslash qobiliyatlari uchun topshiriqlar ishlab chiqish zarur. Odatda, bunday tadbirlar nafaqat xotirani faol ishlashga, balki analitik va xayoliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beruvchi mantiqiy fikrlashga ham majbur qiladi hamda fikrlarni ifodalashga undaydi.

## XULOSA

Oʻsib borayotgan taʼlimda raqamli texnologiyalardan foydalanish ahloqiy savollarning doimiy ravishda koʻpayishi bilan birga keladi. Bu yerda axloqiy muammolar koʻp maʼlumotlarga, masalan, kim egalik qiladi, maʼlumotlarni qanday izohlash kerak, talabalar va professor-oʻqituvchilarning shaxsiy hayoti qanday himoya qilinishi kerak? Oʻzlari xabardor boʻlmagan odamlarni tanqid qilish holatlari ham kuzatilgan. Ehtimol, bu faqat vaqt masalasidir. Bunday muammolarni oldini olish uchun taʼlim muassasalarida maʼlumotlar axloqiga tegishli siyosatni ishlab chiqish, maʼlumotlardan foydalanish uchun talabalardan rozilik olish, ularning oʻzaro aloqalaridagi har qanday maʼlumotlarni tahlil qilish, ularning taʼlimni boshqarish tizimi haqidagi fikrlari bilan tanishib, samarali oʻqitish tizimini yaratish, shuningdek, talabalar va xodimlarni qoʻllab-quvvatlash masalalari ham inobatga olinishi kerak. Hozirda rasmiy mashgʻulotlar mavjud emas. Buning uchun oʻqituvchilar talabalarga imkoniyat yaratib berishi lozim. Hozirgi raqamli dunyoda institut va universitetlarning oʻzaro maʼlumot almashishi ularning samaradorligini yanada oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bim I.L. Osnovnyye napravleniya organizatsii obucheniya inostrannym yazykam na starshey stupeni polnoy sredney shkoly // Inostrannyye yazyki v shkole. 2002. № 5. S. 8. 2.
2. Passov Ye.I. Soderjaniye inoyazychnogo obrazovaniya kak metodicheskaya kategoriya // IYASH, 2007. № 6. C. 13-23. 3.
3. Galskova N.D. Sovremennaya metodika obucheniya inostrannym yazykam / N.D. Galskova. 2-ye izd., pererab. i dop. M.: ARKTI, 2003. 192 s.
4. Besedy ob uroke inostrannogo yazyka: posobiye dlya studentov pedagogich. intov / Ye.I. Passov [i dr.]. – L.: Prosveshcheniye, 1975. – 176 s.
5. Bim, I.L. K voprosu o metodax obucheniya inostrannym yazykam / I.L. Bim // IYASH. –1974. – № 2. – S. 19–32. 6.
6. Volovin, A.V. Kommunikativnyy podxod k izucheniyu inostrannykh yazykov v metodicheskix sistemax Velikobritanii i SSHA / A.V. Volovin // Kommunikativnyy podxod k izucheniyu inostrannykh yazykov : sb. na-uch. trudov. – Выр. 275. – M., 1985. – S. 19–32.

## MARKAZIY BANK PUL KREDIT SIYOSATINING TO'LOV BALANSIGA TA'SIRI

**Muminova Nigora**

Bank Moliya Akademiyasi tinglovchisi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Markaziy bank pul kredit siyosatining to'lov balansiga ta'siri xususida so'z boradi. Shuningdek maqola mavzusiga doir ilmiy va rasmiy adabiyotlar tahlil qilinib mavjud mummo yuzasidan taklif va tavsiyalar keltiriladi.

*Kalit so'zlar:* Pul, kredit, to'lov balansi, siyosat.

## EFFECT OF CENTRAL BANK MONETARY CREDIT POLICY ON BALANCE OF PAYMENTS

*Abstract.* This article discusses the impact of the Central Bank's monetary policy on the balance of payments. Also, the scientific and official literature on the topic of the article is analyzed and suggestions and recommendations are given on the existing issue.

*Key words:* Money, credit, balance of payments, policy.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasida 2020 yilni – «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qildi. Bu murojaatnomada «... banklarning xalqaro moliya bozorlariga chiqishi, arzon va uzoq muddatli resurslar jalb qilishi zarurligi va bank faoliyatini yanada rivojlantirish»[1] muhimligi ta'kidlandi. Ushbu faoliyat bevosita Markaziy bank tomonidan amaliy yondashuvchilik asosida amalga oshirilishi lozim. Mamlakatdagi tijorat banklarining kredit resurlari va ularning foiz stavka miqdorlarini pasaytirishda Markaziy bank o'z ta'sirini ko'rsatishi lozim. Bu vazifani Markaziy bank o'zining monetar siyosati, iqtisodiy indikatorlari va transmission mexanizmlari orqali amalga oshiradi. Markaziy bankning transmission mexanizmlariga iqtisodchi olimlarning turlicha yondashuvlarini ko'rishimiz mumkin[2]. Ushbu yondashuvlar asosida transmission mexanizmlarning iqtisodiyotga ta'sir kanallari vujudga kelgan. Ushbu kanallarning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ularning mohiyati, tarkibi va ishlash mexanizmi borasida iqtisodiy adabiyotlarda bir qancha fikr va mulohazalar mavjud. Monetaristlar fikriga ko'ra, foiz stavkasi ortishi

iqtisodiyotda pul ta'minoti pasayishiga olib keladi, bu bilan odamlar o'zlarining borligini anglaydilar ular xohlaganlariga qaraganda kamroq pul sarflaydilar va shu tariqa ular sarf xarajatlarini kamaytirishga harakat qiladilar bu o'z navbatida to'lov balansiga ham ta'sir qiladi bu o'z navbatida to'lov balansiga ham ta'sir qiladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mahalliy va xorijlik ilmiy adabiyotlarda pul-kredit siyosatining to'lov balansiga ta'siri muammolariga taniqli iqtisodchilarning ishlarida katta e'tibor berilgan. V.V. Ivanov, L.N. Krasavina, N.L. Kuznetsov, F.S. Mishkin, S.V. Mishchenko, R.S. Moiseev, B.I. Sokolov, A.V. Ulyukaev, Huerta de Soto, M. Fridman, D. Hammond, K.V. Yudaeva va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Shu bilan birga, jahon moliya bozori va milliy iqtisodiyotlarning rivojlanishidagi zamonaviy o'zgarishlar ilgari ishlab chiqilgan konsepsiya va yondashuvlarni doimiy ravishda qayta ko'rib chiqishni, shuningdek, iqtisodiy o'sishga monetar ta'sir ko'rsatishning yangi uslub va vositalarini tadqiqotlar qilishni taqozo etadi[3]. Hukumat tomonidan iqtisodiy siyosatni amalga oshirish va pul-kredit bozorini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari maqola mavzusini dolzarbligini belgilaydi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda nafaqat Markaziy banklarning mohiyati, balki uning vazifalarini tadqiq qilish ham munozarali bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga shuni ta'kidlash joizki, ilmiy tadqiqotlarda Markaziy banklarning mohiyati va ularning zamonaviy iqtisodiy tizimdagi rolini asoslashning yagona uslubiy yondashuvlari ishlab chiqilmagan. Buning o'rniga tadqiqotchilar asosiy e'tiborni pul-kredit, foiz va valyuta siyosatini amalga oshirishdagi amaliy muammolarni tahlil qilish, qayta moliyalashtirish orqali pul massasini boshqarishning amaliy jihatlari, bank faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish, xalqaro rezerv aktivlarini boshqarish va hokazolarga qaratiladi[4]. Ushbu yondashuvni A.Y. Simanovskiyni juda to'g'ri "instrumental" deb atagan. Mazkur yondashular muddatli munosabatlar va tendentsiyalarni, shuningdek Markaziy banklar faoliyatining asosiy jarayonlarini aniqlash imkonini beradi. Iqtisodiyotni pul-kredit tartibga solishning strategik maqsadlariga mos keladigan, ilmiy tadqiqotlar doirasidan tashqarida qolgan holda yangi pul rejimlarini ishlab chiqish va ulardan foydalanish. Bizning fikrimizcha, bu holat aksariyat tadqiqotlarda markaziy banklarning mohiyati ularning vazifalari bilan almashtirilishi natijasida yuzaga keladi. Natijada, G'arb ilmiy adabiyotlarida pulning mohiyatini tavsiflashda qo'llaniladigan yondashuv ustunlik qiladi, shunga o'xshash tarzda markaziy bankning mohiyati tasvirlanadi. Shu bilan birga, har bir tadqiqotchi mustaqil ravishda asosiy funktsiyani belgilaydi va Markaziy bank va uning davlatning iqtisodiy tizimidagi rolini tegishli tarzda tavsiflaydi. Shunday qilib, G.G. Fetisov o'z tadqiqotlarida, bizning fikrimizcha, iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan, pul muomalasini tartibga solishni markaziy



bankning asosiy xususiyati sifatida ajratib ko'rsatadi[4]. D. Polferman D. va F. Ford pul tizimi ustidan nazoratni markaziy bankning asosiy vazifasi sifatida belgilaydi. J.M. Rozenberg Markaziy bankning "banklar banki" funktsiyasini bajaradigan masalalariga e'tibor qaratadi R.V. Kolb va R.J. Rodrigues Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishni asosiy funktsiyalar deb hisoblaydi, bank faoliyatini nazorat qilish va depozitariy institutlar va hukumatga moliyaviy xizmatlar ko'rsatish[5]. F.S. Mishkin asosiy e'tiborni Markaziy bank tomonidan banklar ustidan nazorat funktsiyalarini bajarish va pul-kredit siyosatini amalga oshirishga qaratadi.

## NATIJALAR

Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining balansga ta'siri jarayoni pandemiya darida kuzatish mumkin. 2020-yilda pandemiya bog'liq vaziyatning iqtisodiyotga ta'sirini yumshatish, iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash va narxlar barqarorligini ta'minlash vazifalari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash maqsadida Markaziy bankning asosiy stavkasi 16 foizdan 14 foizgacha pasaytirilgan hamda pul-kredit sharoitlari biroz yumshatilib nisbatan qat'iy fazaga o'tkazilgan edi. 2021-yilda ushbu sharoitlar o'zgarishsiz saqlab qolindi va pul bozoridagi depozitlar bo'yicha real foiz stavkalari bank tizimidagi umumiy likvidlik holatidan kelib chiqib, o'rtacha 2-3 foiz darajasida shakllanib kelmoqda. Faqatgina joriy yilning may-iyul oylarida umumiy likvidlik hajmining keskin ortishi hisobiga mazkur foiz stavkalarining sezilarli pasayishi kuzatildi. Lekin bu vaqtinchalik ahamiyat kasb etib, pul-kredit siyosati instrumentlariga kiritilgan zaruriy o'zgarishtirishlar hisobiga foiz stavkalari avgust oyidan boshlab nisbatan qat'iy sharoitlarda ko'zda tutilgan darajaga qaytdi. Shuningdek, jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi muddatli depozitlari bo'yicha nominal foiz stavkalari ularning inflyasion kutilmalari bilan indeksasiya qilingan holda hisoblangan foiz stavkalari ham 2-3 foizlik ijobiy darajada shakllandi.

## MUHOKAMALAR

"Pulning betarafliigi" nazariyasiga ko'ra, uzoq muddatda muomalaga chiqarilgan pul miqdorining o'zgarishi faqat narxlarning o'zgarishiga ta'sir qiladi va investitsiyalar, ishlab chiqarish va bandlik hajmining o'zgarishiga ta'sir qilmaydi. Natijada, pul massasining miqdoriy o'zgarishlari faqat iqtisodiyotdagi umumiy narxlar darajasining oshishiga va inflyatsiyaning oshishiga yordam beradi. "Betaraflik", deb ta'kidlaydi N.L. Kuznetsov, pulning mulki bo'lib, ularning hajmining o'zgarishi real o'zgaruvchilarga (real foiz, real YaIM o'sishi, ishsizlik, nisbiy narxlar) ta'sir qiladi[6]. Pulga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishi nisbiy narxlarga ta'sir qilmasdan faqat mutlaq narxlarning bir xil o'zgarishiga olib keladi va shuning uchun foyda kutilmalarini, ishlab chiqarish tuzilishini yoki butun real sektorni

o'zgartirmaydi. Natijada, uzoq muddatda ham pirovard mahsulotlar, ham ishlab chiqarish omillari narxlarining oshishi kuzatiladi. Shu bilan birga, nominal milliy mahsulotning o'sishi faqat narxlarning oshishi hisobiga sodir bo'ladi[7].

Shunday qilib, "pul betarafligi" nazariyasi qoidalarini amalda amalga oshirish Markaziy banklarning iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatishning samarali vositalari va usullariga ega emasligiga ko'rsatadi. Biroq, amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, bu ta'sir bilvosita bank tizimi va moliya sektori orqali pul o'tkazish kanallaridan foydalanish orqali sodir bo'lishi mumkin. Pul bozorining barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda inflyatsiyani oldini olish vositasidir. Pul-kredit tartibga solishning asosiy obyektlari - pul massasi, foiz stavkalari, majburiy rezervlar, valyuta kursi, iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi, ya'ni pul-kredit siyosati vositalarining ma'lum bir to'plami va pul ko'rsatkichlari, ular orasida bevosita ko'rsatkichlar mavjud emas. iqtisodiy o'sish bilan bog'liq. Bu yana bir bor pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri emas, balki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligini yana bir bor ta'kidlaydi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, pul-kredit siyosati faqat ma'lum shart-sharoitlarni yaratishi mumkin, bunda xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zlarining iqtisodiy tanlash erkinligidan foydalangan holda, harakatlarni amalga oshiradilar. davlatning iqtisodiy siyosatining maqsad va vazifalariga mos kelishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi natijada balans tizimi barqarorlashadi. Bunday bilvosita ta'sir muayyan sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan, makroiqtisodiy barqarorlik, pul bozorining muvozanatli rivojlanishi va bank tizimining barqarorligi. 2008-2009 yillardagi global moliyaviy inqirozdan so'ng, bu haqiqatdan dalolat beradi. Aksariyat mamlakatlarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash funksiyasi markaziy banklarga yuklangan. Natijada pul kreit siyosatida balans izdan chiqadi.

## XULOSA

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida Markaziy banklar tomonidan pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy va amaliy masalalarini o'rganish ushbu siyosatning vositalari va usullari iqtisodiy o'sishga faqat bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi tezisni tasdiqlash imkonini berdi. Buning sababi shundaki, Markaziy banklarning ushbu masalalarni hal qilish imkoniyatlari nafaqat ularning vakolatlari, balki qo'llaniladigan pul-kredit usullari va vositalari ro'yxati bilan ham cheklangan. Shuningdek, pul-kredit siyosatini balansga ta'sir qilish usullarini tahlil qilishda kadrlar tayyorlash va tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси, 2020 йил 24 январь. Янги Ўзбекистон, ижтимоий-иқтисодий газета, №1 (1), 2020 йил, 25 январь.
2. Деньги. Кредит. Банки: учеб. — 2-е изд. / Под ред. В.В. Иванова, Б.И. Соколова. — М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2010. — 848 с.
3. Колб Р.В., Родригес Р.Дж. Финансовые институты и рынки / Пер. с англ. — М.: Изд-во «Дело и сервис», 2003. — 688 с.
4. Красавина Л.Н. Снижение инфляционных рисков как фактор достижения прогнозируемых показателей инфляции и ценовой стабильности // Деньги и кредит. — 2012. — №12. — С.3-10.
5. Кузнецов Н.Л. Либерализация денежного обращения: проблемы и подходы // Вопросы экономики. — 1996. — №8. — С. 4-28.
6. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. — М.: «Вильямс», 2006. — 880 с.
7. Мищенко С. В. Проблемы устойчивости денежного обращения: монография. — М.: Новое знание, 2014. — 399 с.

## BOSHLOVCHI TELENUTQINING PRAGMATIK VOSITALARI

**Parpiyev Ma'murjon**

O'zMU, jurnalistika fakulteti magistranti

**Annotatsiya.** *Bugungi kunda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari (bundan keyin OAV) eng samarali axborot uzatish va muloqot vositasi, zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biriga aylandi. Xususan TV imkoniyatlari kun sayin rivojlanib unda ko'rsatuvlar rang-barangligi yuzaga keldi. Ushbu maqolada TVda boshlovchi telenutqining pragmatik vositalari xususida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Telenutq, nutq ta'sirchanligi, pragmatika, boshlovchi nutq madaniyati.*

## PRAGMATIC TOOLS OF BEGINNER TELESPEECH

**Abstract.** *Today, our country's mass media (hereinafter referred to as mass media) has become the most effective means of information transmission and communication, one of the important social institutions of modern society. In particular, the possibilities of TV are developing day by day, and the variety of shows has appeared. This article talks about the pragmatic tools of the presenter's speech on TV.*

**Key words:** *Telespeech, speech effectiveness, pragmatics, introductory speech culture.*

### KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari (bundan keyin OAV) eng samarali axborot uzatish va muloqot vositasi, zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biriga aylandi. Aynan OAV zimmasiga ijtimoiy ong shakllanishi va taraqqiyotiga oid eng muhim vazifalar yuklatiladiki, ularni amalga oshirishda muttasil takomillashuv jarayoni alohida o'rin tutadi. OAV tilining maqomi ikki omilga, ya'ni biz til istilohini qaysi ma'noda tushunishimiz va OAV tili milliy tilning funktsional turlari orasida qanday o'rin egallab turganligiga bog'liq bo'ladi. Hozirda OAV tili milliy tilning barcha funktsional turlari orasida hukmron o'rinni egalladiki, unda barcha funktsional uslublarning resurslari mujassamlashgan[1]. Boshqacha qilib aytganda, OAV tili bugungi kunda, buni xohlaymizmi, yo'qmi, milliy tilning jamlama obrazidan iboratdir. Auditoriyani keng qamrab olish hamda uning asosiy axborot kanaliga aylanishi uchun ommaviy axborot vositalari orasida radioda

deyarli 40 yil, televideniya 13 yil vaqt kerak bo'lgan. Bugungi kunda televideniya o'zining axborot uzatish qobiliyatidagi ekspressiv hamda kommunikativ vositalariga ko'ra o'zining potensial auditoriyasiga egadir. Gazeta axborot tilida kuchli tahrir asosiga ega bo'lgan matndan iborat bo'lsa, radioda ohangdor yoqimli ovoz hamda matn uyg'unligi kommunikativlikning yuqori belgisidir. Shu jumladan, televideniya bu ikki axborot kanalidan ovoz, matn, tasvir uyg'unligi bilan OAV orasida o'z o'rniga ega. Televideniya boshqa ommaviy axborot vositalari ichida maxsus nutqiy sistema sifatida qaraladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Televidenie – ommaviy kommunikatsiyaning audiovizual vositasi sifatida yuzaga keladi, u yangrayotgan nutq va ko'z o'ngimizda namoyon bo'layotgan obrazni birlashtiradi. Televizion diskurs bu kompleks sistemadir, u o'zida turlicha parametrlarni tilning o'ziga xos xususiyatlari, uslublar va mavzularning o'ziga xosligi, janrlar xilma-xilligini birlashtiradi[2].

Til jamiyatga nisbatan olib qaraganda, o'ziga xos funktsiyani bajaradi va bu nutq faoliyatida o'z aksini topadi. Bular: 1) kommunikativ funktsiya; 2) fikrni ifodalash funktsiyasi; 3) so'zlovchining ichki holatini ifodalash funktsiyasi yoki ekspressiv funktsiya; 4) til vositalari orqali "Til–nutq" tushunchalarining o'zaro munosabatiga olimlar alohida ahamiyat berib kelgan. Nutq – mustaqil faoliyat, u orqali til o'zligini to'liq namoyon etadi. Nutq – muloqot va unda jamiyatning muayyan qatlamga tegishli madaniyati ham qandaydir darajada o'z aksini topadi. "Nutq" tushunchasi uchun nutq faoliyatining ta'rifi katta ahamiyatga ega, chunki ushbu faoliyat jarayonida til sistemasi shakllanib, harakatga keladi[3]. Nutq so'zlovchi aql-zakovati va irodasining shaxsiy harakati sifatida, bir tomondan, o'z fikrini bildirish maqsadida, so'zlovchi tomonidan til kodining ishlatilishi bilan amalga oshirilayotgan usullarni, ikkinchi tomondan esa, ularni ob'ektivlashtirishga yordam qiladigan psixofizik jarayonlarni taqazo etadi. Bugungi kunda TV sohasida nutq me'yorlarini o'rganish va uni tahlil qilishga doir tadqiqot ishlari deyarli ko'zga tashlanmaydi.

## NATJALAR

### Savol paydo bo'ladi telenutq nima? U qanday tuzilishga ega?

Ilmiy adabiyotlarda: "Telenutq ommaviy kommunikativ nutqning ko'rinishi sifatida ahamiyatga molik, uning asosiy konstruktiv printsipti televideniya ma'lumotni uzatishdagi uch sathning bog'liqligi bilan belgilanadi (tasvir–ovoz– nutq)"[4]. Tasvir–ovoz–nutq uchligi ham o'ziga xos murakkab kompleks sistemadir, uning har bir elementi jurnalist va auditoriya o'rtasida maksimal darajadagi samarali kommunikatsiyani ta'minlashga qaratilgan. Teleko'rsatuvlarning ikki–tayyorlangan va

tayyorlanmagan tipi ajratiladi. Tayyor nutqda oldindan tanlab olingan leksik va frazeologik vositalardan foydalaniladi. Bu normativ grammatikaning barcha talablariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Tayyor nutqda asosan fonetik me'yorlarning buzilish hollarini kamdan-kam kuzatish mumkin. Telenutqning tasodifiyligi haqida gapirganda shuni ta'kidlash zarurki, so'zlovchi telechiqishning muayyan rejasiga ega bo'lgan, o'z fikr mulohazalari mavzusini oldindan yaxshi bilgan holda o'z nutqini shakllantiradi: tasodifiylik nutqning ma'lumot berish paytida shakllanadigan xususiyati sifatida biz "tayyorlanmagan nutq" deb biladigan tushunchaga to'g'ri keladi. Tasodifiy nutq kommunikatsiya onida yuzaga keladi, u oldindan tayyorlab qo'yilmaydi. Tayyorlanmagan nutqda ko'pincha tayyorlangan nutqning aksi yuz beradi. Bunda nutqiy xatoliklarga yo'l qo'yilishi, tautologiya va h.k. kuzatiladi.

## MUHOKAMALAR

Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o'rganishga, bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og'zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o'rnini, kommunikativ ta'sirini, so'zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so'zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi. "O'zbekiston" telekanalining "Assalom O'zbekiston" dasturi bir necha yillardan beri faoliyat yuritib keladi. Xusan, bugungi kunda ushbu tongi dam olish dasturi o'zining bir necha yillik faoliyati, tajribasi bilan alohida ahamiyatga ega. Ushbu dasturda boshlovchilar (**Hamza va Ma'rifatxon**) nutqini tahlil qilamiz. "Assalom O'zbekiston" dasturida yangrayotgan telenutq tadqiqotchilar fikrlariga tayanib quyidagi nutq tiplari va oppozitsiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin: a) monologik - dialogik; b) tayyorlangan - tasodifiy (tayyorlangan matnga suyanishdan kelib chiqqan holda); v) puxta – erkin; g) kadrtdagi nutq – kadr ortidagi nutq. Misol uchun dasturning ertalabki sonida o'z sohasida yutuqlara erishgan mehmonlar taklif qilinadi. Unda **dialogik usulda** suhbat olib boriladi. Suhbat jarayonida boshlovchilar interaktivlik vositalariga tayanadi. Nutqiy muloqotni amalga oshirishda suhbat mavzusiga oid turli qiziqarli ma'lumotlardan foydalanadi. Bu esa tomoshabinga dastur mehmoni haqida ma'lumotlar berish bilan birga qiziqarli foydali faktlarni ulashadi. Fikrning **prosodic** ko'rinishini yaratishda nutq tipi katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon televidenie tili haqida to'xtalganda, teleboshlovchi nutqning **prosodic** xarakteristikasi tahlilida, teleobraz yaratayotganda

tasvir vositalarini tanlashda zamonaviy televizion nutqning quyidagi xususiyatlarini hisobga olishi zarur: intimizatsiya; dialogizatsiya; individualizatsiya; tagmatn(podtekst)ning mavjudligi. Televidenie nutqiy spetsifikasini o'rganishning dolzarbligi, avvalo, amaliyot talablaridan kelib chiqadi. Jurnalist televidenie orqali yangrayotgan so'zning xususiyatlarini o'rganishi lozim, chunki bu unga o'z ijodiy imkoniyatlarini o'stirish, kasbining ilmiy asoslarini bilish, notiqlik san'atini egallash va nutqda adabiy til me'yorlariga rioya qilish imkonini beradi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbekiston” telekanali “Assalom O‘zbekiston” tongi dam olish dasturida boshlovchi nutqi pragmatik vositalarini quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: 1) Mashhur insonlar so‘zidan iqtibos olish( Prezident nutqi, siyosatchilar nutqi va ho.); 2) Fikrni dalillash ( qiziqarli mavzuga oid faktlar); 3) Qadriyatliqlik ( ushbu guruhga ibora, maqol, matal, rivoyat va ho.); singari pragmatik vositalarni misol qilish mumkin. Ammo bugungi kunda tongi dasturlarda boshlovchi nutq texnikasiga oid bilimlarni yetishmasligi shevaga xos so‘zlar, muloqot jarayonida nutqni bo‘rttirish aspektlari oshib ketishi singari kamchiliklar boshlovchi nutqning buzuvchi omillar sifatida xizmat qilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 4.J. –T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. –B.370.
2. Тешабаева Д.М. Культурно-языковые особенности современных СМИ Узбекистана // IV Международная научная конференция «Язык, культура, общество». Тезисы докладов. -Москва, 27-30 сентября. 2007. -С. 79-80.
3. Светлана С.В. Телевизионная речь: функции и структура. –М.: Издательство Саратовского университета, 1976. - С.33.
4. Володина М. Н. Язык СМИ – особый язык социального взаимодействия. Ч 2. –М., 2004. С.38.

## INGLIZ TILIDA O‘QUVCHILARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

**Burxonboyeva Zulxumor**

O‘zDJTU talabasi

Ilmiy rahbar: **Yuldasheva Salomat**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bugungi kunda maktab o‘quvchilarining ingliz tilida nutqini rivojlantirish metodlari xususida so‘z boradi. Shu jumladan mazkur maqola mavzusiga doir ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib mavjud muammo yuzasidan taklif va tavsiyalar keltiriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Ta’lim, nutq madaniyati, rus tilini o‘qitish, til o‘qitish metodikasi, interaktivlik, pedagogik mahorati.*

### METHODS OF SPEECH DEVELOPMENT OF STUDENTS IN ENGLISH

**Abstract.** *This article talks about the methods of developing the English speaking of schoolchildren today. Including the analysis of the scientific literature on the subject of this article, suggestions and recommendations are made regarding the existing problem.*

**Key words:** *Education, speech culture, Russian language teaching, language teaching methodology, interactivity, pedagogical skills.*

### KIRISH

Ma’lumki, o‘quvchilarga xorijiy tillarni o‘qitishda uning (o‘rganilayotgan xorijiy tilda) gramatik salohiyatini yaxshilash bilan birga nutqiy faoliyatini oshirishga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Til, nutq va madaniyat tushunchalarining har biri jamiyat va til taraqqiyoti yangi ilm sohalarining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Til, nutq va madaniyat insonsiz mavjud bo‘lmaganidek, ularsiz insonning o‘zini ham tasavvur qilib bo‘lmaydi. Til ijtimoiy mahsulot, lisoniy tizim, undan inson bolaligidan boshlab foydalanadi, u orqali fikrlashni o‘rganadi. U yoki bu hodisalarni odamlar o‘z jamiyatida shakllangan lisoniy ko‘nikma va me’yorlar asosida qabul qiladi[1].

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash ona tilidagi tovushlarni aniq aytish, ularni to‘g‘ri talaffuz qilish, so‘zlar va iboralarni aniq talaffuz qilish, to‘g‘ri nutqiy



nafas olish, shuningdek ovoz kuchidan yetarli darajada foydalana olish qobiliyati, nutqning normal sur'ati va ifodalilikning turli intonasion vositalari (nutq musiqasi, mantiqiy sukut, urg'ular, nutq sur'ati, ritmi va tembri) ni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Nutq tovush madaniyati yaxshi rivojlangan nutqni tinglay olish qobiliyati asosida shakllanadi va rivojlanadi. Taniqli tilshunos olim Vilgelm fon Gumboldtning mazkur gaplari tilning mohiyatini yanada teranroq anglashga yordam beradi: "Tillarning xilma-xilligi aslo muayyan bir narsani turlicha tovushlar bilan ifodalash emas, balki bu narsani ko'rishning farqliligi natijasidir"[2]. Darhaqiqat, xorijiy tillar deganda ko'z o'ngimizda barcha chet mamlakat tillari namoyon bo'lsa-da, afsuski, mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida bu borada oqsash yaqqol seziladi. Negaki, deyarli davlat tasarrufidagi barcha o'rta maktablarda shu kunga qadar asosan ingliz tili chet tili sifatida o'rgatib kelinmoqda edi. Biroq Prezidentimiz tashabbusi bilan bugungi kunda ta'lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini — *ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors* tillarini o'rgatishni tashkillashtirishdek dolzarb masala kun tartibiga qo'yilgan.

## NATIJALAR

Bugungi kunda ingliz tili darslarini o'tishda interaktiv metodlardan keng foydalanilmoqda. Shu jumladan o'rganuvchining nutqini o'stirishda muhim o'yin metodlardan "**Mashhurlar bilan interv'yu**", "**Men kimman**", "**Quvnoq karaoke**" singari metodlardan keng qo'llanilmoqda. "**Mashhurlar bilan interv'yu**" - ushbu metod orqali o'rganuvchi o'zining kelajakdagi tanlamoqchi bo'lgan kasbining yetuk mutaxassisi sifatida auditoriyadagi o'quvchilarning so'roqlariga javob beradi. Ushbu o'yin shartlariga ko'ra berilgan savollarga rus tilida aniq va tushunarli javob berishi kerak. Mazkur jarayon o'quvchining nutq mahoratini yaxshilash bilan birga ularning kirishuvchanlik qobilyatini shakllantiradi. "**Men kimman**"- ushbu o'yinda o'quvchi o'zi haqida so'zlab berish bilan birga, qiziqishidan kelib chiqib rus tilida she'r, qo'shiq aytishi talab etiladi. "**Quvnoq karaoke**"- mazkur o'yin orqali rus tilidagi qo'shiqlar tinglash va kuylash o'quvchi nutqini yaxshilash bilan birga yangi so'zlarni o'rganish - nutqiy mahoratini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

## MUHOKAMALAR

Xorijiy tillarni puxta o'rganishning metodologik asoslarini yaratgan tadqiqotchi olimlarning fikrlariga ko'ra, o'quvchilarning to'g'ri va yaxshi jaranglaydigan nutqni rivojlantirar ekan, o'qituvchi quyidagi vazifalarni xal etishi zarur:

- o'quvchilarda tinglash qobiliyatini tarbiyalash, uning komponentlarini, ya'ni: tinglash e'tibori (*birov-bir tovushni jaranglashiga qarab qanday tovush ekanligini va*

uning yo'nalishini aniklay olish), fonematik tinglash, mazkur nutq sur'ati va ritmini qabul qila olish qobiliyatlarini asta-sekin rivojlantirib borish;

- nutqiy nafas olish ustida ishlash, ya'ni iboralar bilan xorijiy tilda erkin so'zlay olish uchun qisqa nafas olish va davomli nafas chiqarishni o'rgatish;

- ingliz tilining barcha tovushlarini to'g'ri talaffuz qilishni shakllantirish;

- har bir tovushni, shuningdek so'zlar va iboralarni aniq va tushunarli talaffuz qilishga, umuman yaxshi talaffuzga odatlanish.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning nutqiy qobiliyatini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan xorijiy tillarni o'qitishda quyidagi metodlardan unumli foydalanish lozim. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'quvchilarga o'qitishda sinf xonasida yakka tartibda yoki kichraytirilgan guruhlarda dars soatlarini tashkil qilishning aslo iloji yo'q. Shunday vaziyatda o'qituvchilarning mentorlik qobiliyatini shakllantirish lozim. Mentorlik qobiliyatini o'qituvchilarda shakllantirishda "psixologik savol-javob metodi" hamda "interaktiv auditoriya metodi" singari pedagogik treninglarni tashkil qilib o'qituvchilarni mentorlik qobiliyatini rivojlantirish lozim. Amaliy mashg'ulot sifatida ingliz tilidarslarini tashkil qilishda ushbu mentorlik metodlaridan unumli foydalanish xorijiy tillarni o'qitish va o'zlashtirish ko'rsatkichini yaxshilashga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. -Toshkent:1998, 31-bet.
2. Gumboldt V. Язык и философия культуры. –М.:Progress, 1985 –S.349.
3. Chet tillarni o'qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.- Toshkent.2007.Bet -25.

## АДАБИЙ БАДИЙ ТЕЛЕКУРСАТУВЛАРДА ҒОЯ, МАВЗУ, МАТН ВА ТАСВИР УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАЛАРИ

Темирова Гулзор

ЎзМУ, журналистика факултети магистранти

**Аннотация.** Ушбу мақолада бугунги кунда адабий бадий кўрсатувларда мавзу матн ва тасвир уйғунлиги хусусида сўз боради. Шунингдек, мақола мавзусига доир расмий ва илмий адабиётлар умумлаштирилиб тегишли таклиф ва тавсиялар келтирилади.

**Калит сўзлар:** Адабий бадий кўрсатувлар, матн, мавзу, тасвир, ғоявийлик.

## ISSUES OF IDEA, SUBJECT, TEXT AND IMAGE CONSISTENCY IN LITERARY ARTISTIC TELEVISION SHOWS

**Abstract.** This article talks about the combination of theme text and image in today's literary and artistic shows. Also, official and scientific literature on the topic of the article is summarized and relevant suggestions and recommendations are given.

**Key words:** Literary fiction, text, theme, image, ideology.

### КИРИШ

Журналистика замон билан ҳамнафаслик демакдир. Қачонлардир матбуот – одамлар учун энг мароқли овунчоқ ва ҳур фикрлар майдони бўлиб хизмат қилган эди. Вақт ўтиши билан бу хусусиятлар ва омманинг қизиқиши радиога қаратилди. Инсон тафаккури “ойнаи жаҳон” тилсимларига йўл топгани эса ўз-ўзидан телевидение даври, башариятнинг улкан ютуғи сифатида эътироф этилди. Даставвал ниҳоятда ибтидоий кўринишда бўлган оммавий ахборот воситалари хусусан, телевидение замонлар оша ўз қиёфасига эга бўлди, даврнинг энг муҳим воқеликлари, янгиликлари, тафсилотларининг интиқосига айланди. Айни шундай замон билан ҳамнафаслик руҳи, янгиликка интилиш кайфияти сабаб, ТВ бугунги кундагидек ранг-баранглик ва ўзгача мақом касб этди. “Телевидение оммавий ахборот воситасигина бўлиб қолмай, балки ижоднинг бир тури ҳамдир. Ижоднинг ҳар бир тури ўзига хос бадий унсурга эга бўладики, у ижодкор ўз ғоясини рўёбга чиқариши учун ишлатадиган техник усуллар ва тасвирий ифода воситалари йиғиндисидан иборат”[1].

## АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Телевидение (television) қадимги грек тилидаги “τῆλε,” яъни “узоқ”, латин тилидаги “visio” “кўрмоқ” сўзларидан ташкил топган бўлиб, яъни узоқдан кўриш маъносини англатади. Терминни биринчи бўлиб, 1900 йилда Парижда бўлиб ўтган бутунжаҳон кўргазмасида рус олими Константин Перский IV Халқаро электротехника конгрессида француз тилида фойдаланган. Инглиз тилида мазкур сўз биринчи марта 1907 йилда ҳаракатдаги тасвирларни гипотетик тизими тўғрисидаги тавсифда қўлланган[2].

Бир сўз билан айтганда, телевидение ўзининг этимологик маъносига ҳам мос, ҳам ўзига хос бир синтетик тушунча бўлгани каби унинг фазилат ва имкониятлари ҳам ранг барангдир. XXI аср телевидениесининг имкониятлари шу даражада чексизки, уни санаб саноғига етиш қийин. Яратилаётган маҳсулотлар мисолида телевидениешуносликнинг назарий асосларини ўрганиб, тадқиқ қилинган ҳар қандай ижод намунаси унинг имкониятлар доирасини янада кенгайтишига хизмат қилиши лозим. Бундан ташқари энг муҳими телевидениенинг сиру асрорларини ўрганиш ва тадқиқот қилиш эса, телекўрсатувларнинг савия ва даражасини белгилаб унга баҳо бериш учун назарий асос воситаси сифатида ҳам аҳамиятга эга[3].

Ўтган асрнинг 60-70-йилларида “Телевидение санъатми ёки публицистика?”- деган масала юзасидан мутахассислар томонидан жуда кўп тортишув ва баҳслар юзага келди. Баҳс поёнига етмасданок, телевидение ҳаётга шу даражада сингиб кетдики, унинг турли-туман талабларини, жанрлари вужудга келиб кишилик тараққиётида жуда катта мавқега эга бўлиб қолди[4]. У ҳам санъат сифатида, ҳам публицистика сифатида эътироф қилинди. Публицистика бўлганда ҳам янги, оригинал санъат даражасидаги публицистика сифатида инсонларнинг онги, турмуш тарзига ўзининг юксак таъсирини кўрсатиш қудратига эга бўлди. Бир оғиз сўз билан айтганда, оммавий ахборот воситаси сифатида ер кўрасида яшовчи аҳолига бир вақтнинг ўзида янгиликлар ва турли инсонлар ҳақида информация, яъни хабар тарқатувчи ўрнида катта аҳамият касб этди.

## НАТИЖАЛАР

Телевидениенинг бошқа муҳим жиҳати ҳам борки, у ҳам бўлса, берилаётган маълумотнинг қай йўсинда тақдим этилишидир. Маълумот тарқатувчи тележурналист берилаётган воқеа-ҳодисани холис мақсадда намоён этадими ёки миллатлар, мамлакатлар, жамиятлар ўртасида низо чиқариш учун тарқатаётганими? Демак, масала ўз-ўзидан журналист яшаб турган жамиятнинг мафқурасига бориб тақалади. Телевидение шундай катта куч ва қудратга эгаки,

у ер шарининг бир тарафида туриб ҳеч қандай қуролсиз фақат сўз кучи билан мамлакатлар ўртасида жангу жадал бошланишига сабаб бўлиши мумкин. Ёки, аксинча, келтирилган ижобий маълумотлар асосида мамлакатлар орасидаги низони юмшатиш куч қудратига ҳам эгадир. Бу эса тележурналистнинг профессионал қобилиятига, энг муҳими, телевизион техниканинг имкониятларидан келиб чиққан ҳолда, маҳсулотини санъат даражасида қандай ракурда томошабинга етказиб берилишига боғлиқ.

Масалан, НТВ телеканалининг “В место встречи”, “Россия” телеканалининг “60 минут с Дмитрием Соловёвым” кўрсатувларидаги АҚШ сайловолди кампаниясига бағишланган сонларида Президентликка номзод Доналд Трампга нисбатан журналист ва сиёсатшуносларнинг хайрихоҳлиги билдирилганлиги учун АҚШ оммавий ахборот воситалари вакиллари ва кенг жамоатчиликда Россия Трампнинг сайланишидан манфаатдор деган нотўғри хулосага келинди. Охир-оқибат сайловдан кейин ҳам Трампга қарши иш кўзғалиб, унинг Россияга нисбатан қилган холис муносабатлари хиёнат сифатида қораланди[5].

Сайлов натижаларида Россия хаккерларининг қўли бор деб жар солишди. Натижада, Трамп ўзини оқлаш учун Россия тинчлик ўрнатиб турган Алепо шаҳри аэропортини ўққа тутиб ўзини Россия билан тил бириктирмаганлигини исботлади. Аммо, бегуноҳ аҳолининг қони тўкилди. Информацион даҳанаки жанг натижасиз қолмади.

Демак, экранда бериладиган ҳар қандай информация санъат даражасига етгандагина тележурналист томошабиннинг онгига унинг руҳияти орқали таъсир кўрсатиш имкониятига эга. Ўз-ўзидан маълумки, айрим одамлар ҳисга берилувчан бўлади. Ундаги ижобий ҳисларни эса фақат санъат орқали шакллантириб, камол топтириш мумкин. Санъатнинг асл моҳияти эса, инсонда эстетик завқ уйғотиш орқали уни эзгулик сари етаклашидадир. Эзгулик эса, ўз-ўзидан дунёга келмайди. У ифода этилаётган воқеа ва ҳодисалар заминидаги фикрлар, ғоялар, тўқнашуви асосида сараги саракка, пучаги пучакка ажралиб, охир оқибатда зулмнинг устидан зиёнинг ғалабаси асосида вужудга келади. Албатта ёмонлик мағлубу, яхшилиқнинг ғолиб бўлиши ҳаётий ҳақиқат сифатида тараннум этилиши санъатда қонун даражасига айланган ҳақиқатдир. Телевидение эса, ана шундай санъатларнинг омухтаси сифатида юзага келган мураккаб санъатнинг бир кўринишидир.

Худди шу маънода санъат қонуниятлари ва талабларидан келиб чиққан ҳолда турли кўринишларда ўз маҳсулотларини аудиторияга ҳавола этади. Бунинг учун энг аввало тележурналист ёзаётган матн сўз санъати даражасида бадийлик касб этиши лозим. Иккинчидан, кўрсатилаётган маҳсулотда матн

билан тасвир уйғунлик касб этиши талаб қилинади. Сўз санъати билан кино санъати ҳамоҳанглигида кадрда мусиқа, турли лозим бўлган товушлар, суҳандон ёки мухбирнинг овоз тембрлари, уйғунлашган ҳолда маҳсулотнинг бадийлигини таъминлайди. Телемаҳсулотнинг бадийлиги қанча юқори даражада бўлса, маҳсулот сифати ҳам шу даражада ортиб бораверади.

Телемаҳсулотни тайёрлашдан олдин унинг мақсадидан келиб чиқиб, мазмунини тўла намоён эта оладиган жанри, яъни, шакли белгилаб олинса, хронометраж ҳам ўз-ўзидан аён бўлади. Вақти белгилангач, уни томошо қиладиган аудиторияни аниқлаш лозим. Дастур сеткаси томошабинларнинг ёши, уларнинг дунёқараши ва қабул қилиш имкониятларига қараб тузилади. Масалан, болалар, ўсмирлар, катталар учун махсус тайёрланган кўрсатувлар ҳам мавзуга қараб бир неча турга бўлинади.

Маҳсулотларнинг сифат даражасини белгилаш учун энг аввало уларни тур ва жанрларга бўлиб, ҳар бирига алоҳида тўхталиб ўтиш жоиз. Бунинг учун эса, телемаҳсулотларни шартли равишда мавзулар асосида турларга бўлиб ўрганиш мақсадга мувофиқ. Масалан, сиёсий, иқтисодий, бадий, маърифий, спорт, кўнгилочар ва бошқа мавзуларда тайёрланадиган кўрсатувлар телевизион дастурларнинг асосини ташкил этса-да, бу маҳсулотлар турли жанрларда талқин этилишини тақозо этганлиги учун уларни, шартли равишда икки тоифага – публицистик ва бадий кўрсатувлар доирасида таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Оммавий ахборот воситалари жамият ҳаётида алоҳида аҳамият касб этаётган бир пайтда унинг янгича тип ва кўринишлари ҳам пайдо бўлмоқда. А.С.Микоян медиаматнларни бир неча турларга бўлади. Яъни, янгиликлар; шарҳлар; турли мавзулардаги таҳлилий обзорлар (сиёсат, иқтисодиёт, жамият ҳаёти, ижтимоий муаммолар, маънавият, маданият, фан ва бошқалар); интервью; спорт хабарлари ёки репортажлар; реклама материаллари ва бошқалар. Медиаматнларга қўйилаётган талаблар йилдан-йилга ўсиб, ўзгармоқда. Жамиятдаги ўзгаришлар, аудитория талабининг кескин суратда ошиб бораётгани янгича ёндашувларга олиб келаётир[6].

Бугун жаҳон ва Milliy телеканалларда турли йўналишдаги тематик дастурлар эфир юзини кўрмоқда. Замонавий телевидение табиати 15-20 йил аввалги ҳолатдан тубдан ўзгарган. Буни бир қанча ҳолатларда кўриш мумкин. ТВ ихтиро этилган дастлабки йилларда ахборот ва мусиқа унинг бош кўрсатувлари ҳисобланса, йиллар ўтгани сайин телекўрсатувлар кўринишлари кенгайиб, такомиллашиб бормоқда. Анъанавий жанрлар силсиласида ток-шоу, реалити шоу, телекўприк, телесериал каби жанрлар пайдо бўлди. Бу

жанрларнинг пайдо бўлиши билан телевизион медиаматн яратиш талаблари ҳам ўзгаришга юз тутди.

Фалсафий нуқтаи назардан медиаматн реал ижтимоий ҳаётни оғзаки нутқ, тасвир ва рамзлар орқали ифодалайди. Телевизион журналистикада “овоз – нутқ – тасвир” муҳим аҳамият касб этади. Мазкур уч унсур кейинги йилларда чинакамига заруратга айланди.

Россиялик мутахассис Е.В.Струкова “Телевизионный новостной сюжет как разновидность медиатекста” сарлавҳали мақоласида телевизион янгиликларга хос бўлган икки жиҳатга эътибор қаратади. Уларнинг биринчиси янгилик тақдим этадиган телевизион медиаматнлар учун икки жиҳат, яъни биринчиси, “телевидениега хослик” (телевизионность), кейингиси “янгилик даражаси” (новостность)ни алоҳида кўриб чиқади. Муаллиф телевидение табиатигагина хос бўлган уч унсур - “овоз – нутқ – тасвир” инобатга олинишини таъкидлайди. Маълумотнинг янгилиги ҳақида гапирилар экан, долзарблик унинг асосий характерли жиҳати эканлиги келтириб ўтилади. “Бугун”, “ҳозир”, “шу дақиқаларда” содир бўлаётган воқеа-ҳодисалар экранда намён бўлса, хабарнинг янгилиги ана шу сўзлар билан белгиланади[7].

Ўз ўрнида эфир учун мўлжалланган ҳар қандай медиаматн экраннинг ўзига хосликлари, телевидение табиати инобатга олингани ҳолда яратилади. Филология фанлари номзоди Г.Нишонава “Аудиовизуал ахборот воситалари бизни кун давомида таъқиб этиб, ҳаёт тарзимизни ҳам белгиламоқда, дунё воқеаларидан хабардор қилмоқда, тарбияламоқда, таълим бермоқда, кўнглимизни хушнуд қилмоқда. Бу эса замонавий шахс тафаккури, дунёқарашини ўзгаришига, маданий қарашларига, қадриятларга ўзгача муносабатининг шаклланишига сабаб бўлмоқда”[8].

Ҳар қандай тематик телевизион асар томошабин онги ва қалбига кириб бориши учун уларда қизиқиш уйғотувчи бир қанча омиллар мавжуд бўлиб, буларгаиддиятли ҳолатлар (жараённинг кечиши: зиддиятнинг юзага келиши, ривож, нима содир бўлгани, ким ғолиб ёки мағлуб бўлгани, ечими); томошабинга руҳан яқинлиги (ўз ҳовлингдаги тўполон, қўшни ҳовлида бўлаётган шовқиндан кўра қизиқарли); ҳиссиёт уйғота билиши; маълум шахслар билан алоқадорлиги (агар у машҳур шахслар билан боғлиқ бўлса, бу янадаям қизиқарли тус олади); ноодатийлиги (ит одамни тишлагани эмас – одам итни тишлагани каби); фойдалилиги; аудитория манфаатларининг ҳисобга олиниши зарур.

Хорижлик мутахассислар томонидан, рақамли журналистика тараққиётининг 5 та тенденцияси саналган :

1. Смартфонлар орқали янгиликларни қабул қилишнинг ўсиши;

2. Матбуот мавқеининг пасайиши, телевидение яшовчанлиги, ижтимоий медианинг ривожланиши;
3. Ижтимоий тармоқлар ролининг ошиши;
4. Онлайн видеолар машҳурлигининг ўсиши;
5. Медиа орқали реклама оммалашуви.

Телевизион кўрсатувларда яқиндагина тасвирга туширилган профессионал кадрлардан кўра, архив материаллари, тезкор тасвирлар, ҳаваскорлик ишларидан фойдаланилиши томошабинни кўпроқ қизиқтиради. Қўл телефонлари орқали олинган видеоларнинг оммавийлиги дунё миқёсида жуда юқори. Биргина “YouTube” орқали берилаётган видеоларнинг сифатидан қатъий назар омма уларни севиб томоша қилади ва бу ҳаваскорлик асарлари тезда машҳур бўлиб кетади. “MY5” телеканалида ҳам мобил сюжетлар берилиши йўлга қўйилган. Бундай лойиҳаларнинг машҳур бўлишига сабаб бўлувчи омилларнинг энг асосийлари – томошабинга руҳан яқинлиги, ҳаётийлиги ва оммада ҳиссиёт уйғота олишидир. Мобил сюжетларнинг муаллифи ҳамда томошабини томошабинларнинг ўзидир. Кўрсатувга улар томонидан суратга олинган “телеасарлар” жўнатилади ва эфирга узатилади. “YouTube” ёки бошқа ижтимоий тармоқларда, берилаётган сюжетлар учун профессионал талаб қўйилмайди. Мобил камералар орқали тасвирга олинган кадрлар жамият ҳаётига яқинлиги боис, аудитория уларни тез, осон ва севиб қабул қилади. Экранда берилаётган телемахсулот санъат даражасига етгандагина, тележурналист томошабиннинг онгига унинг руҳияти орқали таъсир кўрсатиш имкониятига эга бўлади. Санъатнинг асл моҳияти эса, инсонда эстетик завқ уйғотиш орқали уни эзгулик сари етаклашдир. Эзгулик эса, ўз-ўзидан юзага келмайди. У ифода этилаётган воқеа-ҳодисалар заминидаги фикрлар, ғоялар, тўқнашуви асосида вужудга келади. Албатта ёмонликнинг мағлубияти, яхшилиқнинг ғолиб бўлиши, ҳаётий ҳақиқат сифатида тараннум этилиши санъатда қонуниятга айланган. Телевидение ана шундай санъатларнинг омухтаси сифатида юзага келган мураккаб синтетик санъатдир. Худди шу маънода санъат қонуниятлари ва талабларидан келиб чиққан ҳолда, турли кўринишларда ўз маҳсулотларини томошабинларга ҳавола этади. Бунинг учун энг аввало муаллиф ёзаётган матн сўз санъати даражасида бадийлик касб этиши лозим. Иккинчидан эса, кўрсатилаётган маҳсулотда МАТН билан ТАСВИР уйғунлик касб этиши талаб қилинади. Сўз санъати билан кино санъати ҳамоҳанглигида кадрда мусиқа, товушлар, диктор ёки мухбирнинг овоз тембрлари уйғунлашиб, маҳсулотнинг бадийлигини таъминлайди. Телемахсулотнинг бадийлиги қанча юқори даражада бўлса маҳсулот сифати ҳам шу даражада ортиб бораверади.



## МУҲОКАМАЛАР

Асарнинг бадиий қиммати, унда кўтарилаётган муаммонинг муҳимлиги, долзарблиги, режиссёрнинг креативлиги, сахна безакларининг камерада қай кўринишда намоён бўлиши, рассомнинг бадиий маҳорати, энг муҳими асарнинг томошабинга қандай маънавий озуқа бера олиши мумкинлиги каби масалалар ҳисобга олиниб режалаштирилиши шарт. Амалиётда дастлаб тележурналист томонидан мавзу танланади, маълум мақсад асосида кўрсатув ғоясидан келиб чиқиб жанр белгиланади. Демак, МАВЗУ, МАҚСАД, ҒОЯ, ЖАНР телевидение назариясининг асосини ташкил этади. Аниқ танланган жанр, маҳсулотнинг бадиий қимматини оширишга хизмат қилади. Айрим ҳолларда жанрлар ҳам бири-бирига уйғунлашган ҳолда яратилиши мумкин. Бугун мамлакатимиздаги “МУ5”, “Milliy”, “Sevimli”, “Zo‘r TV” каби каналлар контентини кузатар эканмиз, уларда асосан мусиқий-кўнгилочар кўрсатувлар, ахборот-мусиқий лойиҳалар, ток-шоулар, бадиий фильм ва сериаллар асосий ўринни эгаллайди. Шов-шувларга сабаб бўлаётган “Косем”, “Севги изтироби”, “Ичкарида”, “Маликам, менга қара” сингари телесериалларнинг аксарияти хусусий телеканаллар базасида таржима қилиниб, аудиторияга тақдим этиб келиняпти. Шунингдек, вилоятларда ҳам ўнлаб нодавлат телеканаллар фаолият олиб бораётир. Улар томонидан тақдим этилаётган турли лойиҳалар аҳолининг ахборот олишга бўлган эҳтиёжини қондиришга хизмат қилмоқда. Каналлар сони қанча кўпайса, томошабин имкониятлари ҳам шунча кенгайди. Фикр айтиш учун ҳам янги майдон юзага келади. Аммо, каналлар ва уларда фаолият олиб боровчи журналистлар буни уддалай оляптими? Бу алоҳида ўрганишни талаб қилади.

## ХУЛОСА

Хулоса сифатида,

- Ўзбекистонда хусусий каналлар пайдо бўлгани ва тараққий этаётгани;
- Медиабозорда муҳим ўрин тутаётгани, товар ва хизмат турлари рекламасида муҳим аҳамият касб этаётгани;
- Улар аудиториянинг асосий қисмини эгаллаб улгургани;
- Хусусий каналлар телевидениенинг энг илғор типига айлангани;
- ихтисослашув жараёни бошлангани;
- оммада кўнгилочар дастурларга эҳтиёж ортиб бораётгани боис, шу йўсиндаги кўрсатувлар тайёрлашга эътибор берилаётгани ҳамда қарашларнинг ўзгаргани;
- тасвир ва матн уйғунлигига эришиш учун тасвир ва монтаж жараёнида замонавий коммуникация технологияларининг кенг қўлланаётгани;
- кўрсатувларнинг техник сифати ошганини қайд этиш жоиз.

Демак ҳозирда нодавлат каналларда кечаётган туб ўзгаришларни кузатган ҳолда шуни таъкидлаш лозимки, уч асосий ҳолат

- тижорийлашувнинг кириб келиши;
- ихтисослашувнинг юзага келиши;
- креативликка эътибор қаратиш ижодий маҳоратга ўз таъсирини кўрсатмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, бирор-бир соҳага ихтисослашган бўладими, тижорий мақсадлари мавжудми, хусусий телевидениеми бундан қатъий назар икки: ахборот тарқатиш ва рекреатив вазифа яққолроқ кўзга ташланади. Жойларда рўй бераётган воқеа-ҳодисаларни тез етказиш мақсадида рақобатга асосланган ахборотлар медиабизнес учун “товар” вазифасини ўтамоқда. Кейингиси эса, томошабиннинг дам олишга бўлган талаб ва эҳтиёжини келиб чиққан ҳолда, рекреатив яъни кўнгилочар мазмундаги кўрсатувларнинг кўпайишидир. Телевидение жанрларининг аксарияти ана шу вазифа замирида шаклланиб, такомиллашмоқда.

### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ибрагимов Ш. Тележурналистика асослари /маърузалар матни/ - Тошкент: Университет, 2000. - Б.26.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Телевидение>
3. Махровский О.В. Константин Перский - русский военный инженер, ученый, который ввел термин «телевидение» 110 лет назад (рус.). История развития электросвязи. Виртуальный компьютерный музей (14 ноября 2010). Проверено 15 декабря 2016.
4. Television (англ.). OnlineEtymologyDictionary. Проверено 15 декабря.
5. Микоян А.С., Проблемы перевода текстов СМИ: учебное пособие. Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования / отв.ред.М.Н.Володина. М.Изд-во МГУ, 2003.-С.23.
6. Струкова Е.В.Телевизионный новостной сюжет как разновидность медиатекста, Вестник Ставропольского государственного университета, 56/2008, -С.143-149
7. Нишонова Г. Кино ва телевидение:коммуникатив фаолият кирралари, “Барҳаёт мерос бадиий коммуникация таркибида”(илмий очерк ва мақолалар тўплами), Т.:2013.-Б.125-141.
8. <http://mymedia.org.ua/about.html>

## “ЖУРНАЛИСТ КАСБ ЭТИКАСИ” ТУШУНЧАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ

Собирова Шахноза

ЎзМУ журналистика факултети магистранти

**Аннотация.** Ушбу мақолада журналист касб этикасининг пайдо бўлиши тарихи ривожланиши йўналишларида сўз боради. Шу жумладан мазкур мақола мавзусига доир расмий ва илмий адабиётлар ўрганилиб таҳлил ва мавзу юзасидан фикрлар келтирилади.

**Калит сўзлар:** Касб этикаси, журналист маҳорати, журналистика принциплари.

## FORMATION OF THE CONCEPT OF "JOURNALIST PROFESSIONAL ETHICS

**Abstract.** In this article, the history of the emergence of journalistic ethics is discussed in terms of development. Including, official and scientific literature on the subject of this article is studied, analysis and opinions on the subject are presented.

**Key words:** Professional ethics, journalistic skills, principles of journalism.

### КИРИШ

“Журналист касб этикаси” тушунчасининг шаклланиши учун касбнинг ўзи вужудга келган, шаклланган, кишилар ва жамият ҳаётида муҳим аҳамият касб этган бўлмоғи керак. Замонавий матбуотнинг илк куртаклари бўлмиш ахборот varaқалари ҳозирги газеталарнинг ибтидоси сифатида пайдо бўлганини яхши биламиз. ХХI асрда Венецияда газета дунё юзини кўрганига қадар савдо-сотик ва бозор дунёсидаги эҳтиёж varaқалар чиқаришни тақозо этган. Ўша оддий varaқаларни чиқаришда ҳам ўзига хос касб одоби нормалари бўлган. Ўзи оддийгина, ихчамгина varaқа бўлса, уни қандай қилиб “varaқалар журналистикаси” деб аташ, қандай қилиб унда касб одоби шартлари бўлиши мумкин, деган савол туғилади[1].

Аввало касб этикаси тушунчаси ҳақида.

### АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР

Ҳозирги газеталарнинг ибтидоси ҳисобланган ўша давр varaқалари одатда йирик савдогарлар, мулк эгалари томонидан чиқарилган. Улар томонидан молиялаштирилган. Varaқаларда ўшаларнинг савдо-сотигини йўлга қўйишга,

ривожлантиришга хизмат қиладиган маълумотлар, ахборотлар тарқатилган, холос[2]. Мулк эгаларини, яъни варақа эгаларини бошқа маълумотлар қизиқтирмаган. Варақа матнини тайёрловчи журналист (биз шартли равишда журналист деб атамоқдамиз, чунки улар ҳали журналист сифатида шаклланмаган эдилар) эса савдогар ёки мулк эгасининг хоҳиш-иродасига бўйсунган. Очқроқ айтсак, ўзи истаганини эмас, эгаси – хўжайин истаганини тайёрлаб, саҳифага босган. Хўжайиннинг истаги эса журналист учун касб одоби ҳисобланган. У мана шу “одоб”га кулоқ солса – ишлайди, истамаса – марҳамат, катта кўча[3].

У вақтдаги шарт-шароитларни ҳозирги талаблар билан мутлақо қиёслаш мумкин эмас албатта. Айниқса, бизнинг тасаввуримиздаги касб этикасига XX асрнинг бошларидан эътибор қаратилган. Ўша даврда оммавий ахборот воситалари асосан газеталардан иборат бўлган. Газета кескин кўпайган, ҳатто у даромадли соҳага айланган. Газета монополиялари вужудга келган, кенг омма онги, дунёқараши, ҳаётий мақсад-маслаклари матбуот орқали бошқарила бошланган. Бунинг натижасида оммани матбуот сўзидан, матбуот зуғумидан асраш, муҳофаза қилиш масалалари пайдо бўлган. Таҳририятларда, соҳа эгалари йиғинларида журналистлар фаолиятини йўлга солишга қаратилган турли ҳужжатлар ишлаб чиқиладиган бошланган. Масалан, Швецияда 1900 йили журналистларнинг касб этикаси кодекси қабул қилинган деган маълумотлар бор. 1918 йили Францияда Журналистлар миллий синдикати томонидан “Ахлоқ-одоб хартияси” қабул қилинган. 1921 йилга келиб эса америкалик Жеймс Броун “Ахлоқ кодекси ва амалий журналистика меъёрлари”ни тузган. 1923 йили АҚШ газета бош муҳаррирлар жамияти “Журнализм қонунлари” кодексини қабул қилган[4].

Такрорлаймиз: демак, газеталар кўпайган ва уларнинг кенг оммага таъсир кўрсатиш имконияти ортгани сайин касб этикасига эҳтиёж кучайган. Шунинг ҳам эътиборда тутиш керакки, ҳар қандай касб-кор ривожлангани сари унга тааллуқли касб одоби ҳам тараққий топган, шу маънода касб тарихи билан касб этикаси тарихи бир-бири билан чамбарчас боғлиқликда шаклланган.

## НАТИЖАЛАР

XX асрнинг иккинчи ярмига келиб радио ва телевидение оммалаша бошлади. Бу икки ихтиро инсоният тафаккури тарихида мисли кўрилмаган ўзгаришлар ясади. Ўз навбатида журналистнинг касб этикаси меъёрларини янада мустаҳкам тарзда ишлаб чиқиш ва ҳаётга жорий этиш муаммоси кўндаланг бўлди. “Шу сабабдан ҳам 60–70-йилларда дунё жамоатчилиги олдида уларнинг фаолиятида ҳуқуқий ва ахлоқий мувофиқлаштириш муаммоси бутун мураккаблиги билан қад ростлади” [3].

Халқаро журналистлар федерацияси ўзининг 1954 йили (25–28 апрель) бўлиб ўтган Иккинчи Умумжаҳон Конгрессида “Журналист этикаси принциплари декларацияси”ни қабул қилгани ҳам бунга далил бўлади.

Мутахассисларнинг фикрига кўра, XX асрнинг 60-йилларидан дунёда “янги ахборот тартиби” учун кураш қизиқ кетди. Ўша кураш ҳозирга қадар кучайса кучайдики, зинҳор сусайгани йўқ. Дунё мамлакатларининг мавқеи, ўрни уларнинг ахборот билан таъминланганлиги, ахборотга эгаллиги билан белгилана бошлади. Ахборот таъминотини йўлга қўйишнинг муҳим шarti эса ахборот воситаларига эгаллик қилиш ҳуқуқи ва имкониятидир. Буларга молиявий имкониятлар, ижтимоий-сиёсий шарт-шароитлар, кадрлар етуклиги ва ҳоказо омилларсиз етишиб бўлмаган. Демак, бадавлат давлат ахборотга эгаллик қилган, ночор ва ўртаҳол давлатлар эса ахборот билан таъминланганлик борасида ҳам етакчи давлатларга қарамлигича қолаверган. XX асрнинг 70-йилларида Финляндиянинг ўша пайтдаги президенти У.К Кекконен тараққий этган ва ривожланаётган мамлакатлар ўртасидаги ахборот алмашинуви борасидаги тенгсизликни “информацион империализм” деб атаган.

Талабаларда савол туғилиши мумкин: дунё ахборот маконидаги бундай ўзгаришларнинг журналистнинг касб этикаси муаммоларига қанчалик даҳли бор?

Ахборотга ташналик, унга ҳар қандай йўллар билан бўлса-да, етишишга интилиш, бу йўлда ҳеч нарсадан тап тортмаслик охир-оқибатда шу қадар хилма-хил ахлоқий-психологик ҳолатларни келтириб чиқардики, бундай шароитда журналистнинг касб одоби масаласи бор мураккаблиги билан ҳаётгий заруриятга айланганини ҳеч ким инкор этолмай қолди.

Радио, телевидениени айтдик. Айниқса, компьютер техникасининг кишилар ҳаётига ва ОАВ дунёсига кириб келиши дунёда ахборот талвасасини бошлаб берди десак муболаға бўлмайди.

Ахборот технологиялари ҳақида сўз бошлашдан аввал ўтган асрнинг 90-йиллари бошларида жаҳон харитасида юз берган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар хусусида қисқача тўхталишга тўғри келади.

1991 йили жаҳон харитасида “СССР” деб номланувчи давлат барҳам топди. Бунинг натижасида Совет Иттифоқи таркибига кирувчи ҳамда унинг таъсирида яшовчи кўплаб давлатлар қатори Ўзбекистон Республикаси ҳам мустақилликка эришди. Агар ушбу тарихий воқеага ахборот тушунчаси нуқтаи назаридан ёндашадиган бўлсак, шўролар сиёсати ва мафкураси ахборот майдонида мағлубиятга учради, ёш мустақил давлатлар эса ахборот мустақиллигини қўлга киритди.

## МУҲОКАМАЛАР

Ахборот мустақиллиги, умуман ОАВ тизимини эркинлаштириш ва бу борада мамлакатимизда амалга оширилган катта аҳамиятга эга ижтимоий-сиёсий-маърифий ислохотлар ҳақида узоқ гапириш мумкин. Лекин биз мавзуимиздан келиб чиқиб айтмоғимиз зарурки, матбуот сўзининг эркинлашуви касб этикаси масалаларини ҳам муаммо сифатида кун тартибига қўйди. Айниқса глобаллашув жараёнлари, интернет тизимининг кенг ёйилишига яратилган шарт-шароит, республикаимизда нодавлат ОАВ секторининг кенгайиши журналистикада касб этикаси муаммоларини ҳам назарий, ҳам амалий аспектларда ўрганиш муҳимлигини кўрсатди. Чунки, ОАВ сонининг кескин ортиб кетишининг ўзиёқ уларнинг барчасини шўро давридагидек цензурадан ўтказиш имконини қолдирмади. Цензура давр ўзгаришларидан енгилди, деб талқин этиш ҳам мумкин. Натижада журналистни ташқаридан назорат остига олиш эмас, уни ичидан тартибга келтириш тизими адолатли, қонуний эканлигини жаҳон тажрибаси кўрсатди.

Нима сабабдан шўролар даврида журналистнинг касб этикасига катта аҳамият берилмаган деган саволнинг жавобини мана шу омилларда кўриш мумкин. “Яқингинада, олти йил муқаддам десак ҳам бўлади, – деб ёзади Д.Авраамов “Журналистнинг касб этикаси” китобида, – мамлакатимизда жуда тор доиралардагина журналист ахлоқи ҳақида гап-сўзлар юрарди, у ҳам бўлса, матбуотдан дакки еганлар эътибор қаратишарди бу муаммога” (С.8).

Мазкур иқтибосга 3 нуқтаи назардан эътибор қаратишимиз керак:

1. Д.Авраамовнинг ўша китоби 1991 йили чоп этилганидан келиб чиқсак, рус журналистикасида ҳам ушбу муаммонинг ўрганилиш тарихи жуда ёш.

2. Шўро мафқураси измида бўлган ўзбек журналистикасида ҳам мавзу деярли тилга олинмаган.

3. Журналист одоби масаласига фақат “матбуотдан дакки еганлар эътибор қаратишарди” деган эслатма ўз кучини йўқотмади. Яъни, ҳаётда матбуотдан дакки ейиш ҳолати кўпайса кўпайдики, зинҳор озаймади. Демак, касб этикасини чуқур ўрганишнинг аҳамияти янада ортди.

## ХУЛОСА

Шу ўринда масаланинг психологик жиҳатига ҳам эътибор қаратиш зарур. Гап шундаки, жамиятда кечаётган ижтимоий-сиёсий ўзгаришлар, ОАВ соҳасида олиб борилаётган ислохотлар фонида журналистиканинг нуфузи ошди. Бир сўз билан айтганда, журналист жамиятда шахс сифатида, алоҳида ва ўзига хос касб эгаси сифатида эътироф этилди.

## Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Абдуазизова Н. Мустақил Ўзбекистон журналистикаси тарихи.–Т.: Академия, 2007. Б-122.
2. Абдуазизова Н. Кўп миллатли Ўзбекистонда оммавий ахборот воситалари масаласига доир. /Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар: тарих ва ҳозирги замон. (илмий-амалий анжуман)– Т.: ЎзМУ, 2003.Б-33.
3. Аврамов Д.С. Профессиональная этика журналиста. Изд.МГУ. М.: 2003. Б-56.
4. Атамухамедов Ш. Интернет жаҳон ахборот тизими сифатида // Инфоком.Уз.– 2006. № 5.

## OCHIQ AXBOROT TIZIMLARIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK MASALALARI

**Kadirov Dilshod Nazar o'g'li**

O'zMU, Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada axborot makonida psixologik xavfsizlik masalalarining dolzarbligi xususida so'z boradi. Shuningdek maqola mavzusiga doir ilmiy adabiyotlar o'rganilib mavjud muammo tahlil qilinadi.

*Kalit so'zlar:* Axborot xavfsizligi, psixologik xavfsizlik, ommaviy axborot, axborot turlari.

## PSYCHOLOGICAL SECURITY ISSUES IN OPEN INFORMATION SYSTEMS

*Abstract.* This article talks about the relevance of psychological issues in the information space. Also, scientific literature on the topic of the article is studied and the existing problem is analyzed.

*Key words:* Information security, psychological security, public information, types of information.

### KIRISH

*Xavfsizlik*– uzoq davom etadigan, turli baxs munozaralar mavzusi bo'ladigan abstrak kategoriya emas, balki vujudga kelgan iqtisodiy, harbiy, diplomatik, madaniy va ijtimoiy munosabatlar keng rivojlanayotgan bir davrda dunyoqarashga aylanishi doim bo'lgan ilmiy masalalardan biri hisoblanadi[1]. Chunki, davlat va jamiyat mavjud ekan uning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi turli xil to'siqlar mavjud. Shu o'rinda, mavjud xavfni bartaraf etishda yakka kuchning ta'siri kam bo'lganligi sabab butun bir jamiyat bunga qarshi kurashmog'i kerak. Bugungi kunda deyarli barcha davlatlar axborot sohasi tadrijiy rivojlanishi va turli xil taz'yiqlar mavjud bo'lgan sharoitda unga qarshi kurashish uchun xavfsizlik mexanizmlarini yaratish bo'yicha faoliyatni kuchaytirdilar.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'z nomi bilan ataganda, XXI – asrni axborot texnologiyalari asri deb bejiz aytilmagan. G'arb olimlari tilida aytilganidek mamlakatlarni ishg'ol qilish uchun uning ma'naviy boyligini yo'qotish kifoya, ya'ni ma'naviy boylikni yemirish uchun kishini



turli qiyinchiliklarga duchor qilish shart emas, unga ko'ngli istayotgan narsalar orqali axborot ta'sir o'tkazish mumkin. Dunyoda axborot xurujlari tufayli o'zaro davlatlararo ziddiyatlar kelib chiqaveradi. Tadqiqotchilarning aksariyati axborot urushlarining yuzaga kelishini texnologiyalarning taraqqiyoti bilan izohlaydi. Xususan, rus olimi S.A.Zelinskiy 1917-1991-yillarda G'arbning sotsializmga qarshi olib borgan kurashini "Birinci axborot urushi" sifatida baholagan[2]. O'zbek tadqiqotchilaridan U.Saidov axborotning geosiyosiy qurolga aylanishini yangi informatsion texnologiyalarning imkoniyatlari bilan belgilaydi[3]. Bizning tadqiqotimiz esa, insoniyat ibtidoiy davrlardan boshlab axborotdan qurol sifatida foydalangani, sivilizatsiyaning ilk bosqichlaridayoq axborot urushlari olib borganini ko'rsatmoqda.

## NATIJALAR

Quyida ushbu mulohazani ilmiy dalillar orqali isbotlashga harakat qilamiz. Axborot xavfsizligini quyidagi yo'nalishlarga ajratib tahlil qilish mumkin:

**Texnikaviy yo'nalish** maxfiy axborotni sir saqlash nuqtai nazaridan eng murakkab soha hisoblanadi. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU)ning magistraturasida "Axborot xavfsizligi" mutaxassisligi bor. Bu yo'nalish vakillarining asosiy vazifasi – axborotni texnikaviy jihatdan himoyalash, zarur ma'lumotlarni shifrlash, kodlashtirish, ya'ni kompyuter dasturchilari tomonidan bajariladigan murakkab ish. Ma'lumki, har xil xarakterdagi informatsiya – davlat, tijoriy va shaxsiy sirlar, harbiy, siyosiy yoki tadbirkorlik tashkilotlari ma'lumotlari ularni begona ko'zdan asrashga muhtojdir. Bu ish bilan axborot xavfsizligi dasturchilari shug'ullanadi. Axborotni texnik muhofazalash usullari esa juda ko'p va ular ancha murakkab. Shubhasiz aytish mumkinki, axborotni yaxshi kodlashtira oladigan ustalarning bozori juda chaqqon, axborot asrida ular eng kerakli mutaxassislar.

**Axborot xavfsizligining huquqiy himoyasini** dunyoda birinchilar qatorida AQSH amalga oshirdi. SH.O.Murodova yozayotganidek, 1986 yilda AQSH Kongressi Kompyuter firibgarligi va kompyuter suiste'molli haqida maxsus Qonun qabul qildi (1. Qaralsin: Muradova SH.O. Problemi obespecheniya informatsionnoy bezopasnosti Respubliki Uzbekistan v usloviyax globalizatsii. – T.: "Shark", 2008. – B. 24). 2008 yilgacha AQSH mazkur soha bo'yicha o'nga yaqin Qonun va bir qator muhim hukumat hujjatlarini ishga tushirdi. Hozirgi kunda AQSH, Rossiya, Xitoy, Germaniya va boshqa mamlakatlar deyarli har yili davlat, jamiyat, yetakchi sohalar (masalan, Mudofaa yoki Tashqi ishlar vazirliklari), tijoriy idoralar, banklar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sirlarni saqlash yoki kiberhududni himoyalash maqsadida turli darajadagi huquqiy hujjatlarni qabul qilmoqdalar. AQShning Milliy xavfsizlikni ta'minlash Konsepsiyasi, RF ning Rossiya Federatsiyasining axborot xavfsizligi doktrinasi mavjud, ular

internetda e'lon qilingan. O'zbekistonda ham axborot texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan bir qator Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, ko'plab buyruq, tavsiyanoma va ko'rsatmalar e'lon qilingan. Masalan, "Axborot erkinligining prinsiplari va kafolatlari" deb nomlangan O'zbekiston Respublikasi Qonunining (1997) 13, 14 va 15-moddalari shaxs, jamiyat va davlat axborot xavfsizligiga bag'ishlangan. O'z-o'zidan ma'lumki, mukammal yaratilgan huquqiy baza zamonaviy bosqichda axborot texnologiyalarining rivojlanishini mustahkam poydevori bo'la oladi. Shu bilan birga juda muhim bo'lgan bir murakkablik haqida so'z yuritishga to'g'ri keladi. Ma'lumki, ayrim kategoriyalar huquqning alifbosi hisoblanadi, ularni aniqlamasdan huquqiy sohada ish yuritib bo'lmaydi. Bularning ichida eng muhimlari – huquq sub'yekti, ob'yekti va predmeti. Masalan, jinoyat sodir bo'ldi, lekin uni voyaga yetmagan bola amalga oshirdi, shu sababali uni qonunda belgilangan jazoga tortish mumkin emas, demak, bu yerda sub'yekt yo'q. Yoki, jinoyat bor, lekin uning ob'yekti (nimaga yoki kimga zarar keltirgani) aniqlanmadi, unda ham sub'yektni jazolash mumkin emas, to ob'yekt topilmaguncha. Axborot xavfsizligiga kelganda, internet tizimi huquqiy me'yorlarni keskin chalkashtirib yubordi. Masalan, ayrim harakatlar bir mamlakatlarda jinoyat hisoblansa, boshqa davlatlarda unday deb topilmaydi. Agar sayt egasi ikkinchi davlatda turib, harakat qilsa, uni qanday javobgarlikka tortish mumkin, u yashayotgan joyda bu jinoyat emasku! Internet bilan bog'liq bunday huquqiy murakkabliklar davlatlararo munosabatlarda kundan kunga sezilarli darajada ko'payib bormoqda.

**Axborot xavfsizligining siyosiy yo'nalishi** davlat darajasidan boshlab to kichkina idorada olib borilayotgan harakatlarni aks ettiradi. Siyosat – keng ma'noli tushuncha. U o'z ichiga ma'muriy boshqaruvni, tashkiliy ishlarni, iqtisodiy choralarni va boshqalarni oladi. Axborot xavfsizligi sohasida to'g'ri siyosat olib borish muhim ahamiyat kasb etadi va bunday siyosat mamlakat miqyosida yagona bo'lishi zarur. "Xavfsizlik bo'linmaydi" degan tushuncha aynan shunday siyosatda o'z aksini topadi. Tabiiyki, bunday xavfsizlikni davlat apparati olib boradi va ta'minlaydi. Mazkur jarayon davomida davlat juda ko'p turli shakllardagi amallarni bajaradi: qonunlar va qonun osti aktlarni qabul qiladi, ularning hayotga tadbiiq etilishini nazorat qiladi, axborot xavfsizligi siyosati sifatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi va h.k. Shuning uchun siyosiy yo'nalishni tashkiliy choralarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ular bir birini to'ldirib boradi. Axborot xavfsizligi sohasida davlat siyosatining bir qator yo'nalishlari bor. Ular yuqorida keltirilgan "Axborot erkinligining prinsiplari va kafolatlari" deb nomlangan O'R qonunining 12-moddasida ("Axborot xavfsizligini ta'minlash sohasida davlat siyosati") o'z aksini topgan. Bu yo'nalish ham keng qamrovli bo'lib, o'z ichki qismlariga bo'linadi: tashkiliy, ma'muriy, iqtisodiy va boshq. Bunday siyosat turli darajalarda bajariladi: davlat, jamiyat, qo'mita, birlashma, uyushma, tashkilotlar va

h.k. Ushbu maqolaning muallifi bundan bir necha yil muqaddam “Rossiya Federatsiyasi Tashqi ishlar vazirligining axborot xavfsizligi” nomli kitobga duch kelgan edi. Har bir davlat uchun Tashqi ishlar vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, mudofaa va iqtisodiyot bilan shug‘ullanadigan vazirlik va agentlik hamda ular tarkibidagi idoralar uchun axborot xavfsizligini ta’minlash – birinchi o‘rindagi muammolardandir.

**Axborot xavfsizligining ma’naviy yo‘nalishi**, bir tomondan, eng murakkab bo‘lsa, ikkinchi tomondan, eng kamharajatli va samaralidir. Chunki ma’naviyat millat mentalitetiga asoslanadi. Agar davlat va jamiyat tuzilmalari o‘z xalqining ma’naviyatli bo‘lishini eplasa, fuqarolarda o‘z Vataniga muhabbatni, vafodorlikni ta’minlasa – hech qanday begona axborot ularga o‘tmay qoladi. Ustiga ustak, xalqning ma’naviyati milliy qadriyatlar, urf odatlar va an’analarga asoslanadi, ularning negizida esa, uzoq mingyilliklar davomida shakllangan arxetiplar yotadi. Arxetiplar milliy ma’naviyatning kuchli fundamentidir. Bu mavzu bilan qiziquvchilar shvetsariyalik olim Karl Yung tomonidan yaratilgan arxetiplar nazariyasiga murojaat etishi mumkin. Biz esa, olimning bir iqtibosi bilan chegaralanamiz. K.Yung jamoaviy beixtiyoriy ongga berilgan tavsiflarining birida shunday deb yozadi: “Jamoaviy beixtiyoriy ong – bir vaqtning o‘zida ham tajribaning cho‘kindisi, ham apriori dunyo obrazidir, bu obraz juda qadim zamonlarda, Eon davrida paydo bo‘lgan. Ushbu obrazda uzoq vaqt davomida ma’lum bir belgilar, yoki dominantlar, shakllangan va o‘z ifodasini topgan... Mazkur obrazlar, insoniyat hayotidagi aniq ruhiy hodisalarni takror-takror aks ettirganligi sababli, arxetiplar sifatida namoyon bo‘ladi va u insonning umumiy psixologik fazilatlariga mos keladi”[4].

Texnika, huquq, siyosat – bularning hammasi aql yordamida o‘zlashtirib olish mumkin bo‘lgan tushunchalar. Ma’naviyat kategoriyalari esa ko‘proq beixtiyoriy ongga asoslanadi. Demak, ma’naviy yo‘nalishning murakkabligi shundaki, bu yo‘nalish anglab olinishi qiyin bo‘lgan va beixtiyoriy ong bilan bog‘liq kategoriyalarga tayanadi.

Odamzot tarixida ma’naviy tushunchalar va o‘lchovlar doimo eng qiyin, yanada dialektik shakllarda namoyon bo‘lib kelgan. Ikki ming yil ichida fan va texnika misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan bo‘lsa-da, insonning tabiati uncha ham o‘zgarmadi. Shuning uchun ma’naviy tushunchalar juda sekin o‘zgarimoqda. Fikrimizcha, axborot xavfsizligini ta’minlashning eng to‘g‘ri yo‘li – axboriy madaniyatni tarbiyalashdir. Bu masalaga ohirgi ikki yilda O‘zbekistonda mediata’lim shaklida e’tibor qaratila boshlandi. Ammo bir masalani hozirdan to‘g‘ri hal qilish kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov yozganidek, “ko‘p yillik ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda olar ekan”[5].

Demak, mediata'lim tizimida yetakchi o'rinni shu yoshgacha bo'lgan bolalarga ajratish kerak. Bolani maktabning katta sinflarida, kollej va OLTMDa tarbiyalash qulay bo'lsa-da, lekin kech. Yangi yuqori texnologiyalar jamiyat a'zolari turmushini istalgan mahsulot bilan ta'minlashga sanoat xizmat sohasini jadal rivojlantirish uchun shart – sharoit yaratish imkonini beradi. Axborot yaratish va tarqatish sohasida ham ilgari ko'z ko'rib quloq eshitmagan sur'at va ko'lamga erishildi. Kishilar o'rtasida xabar yetkazishni ta'minlashga qobil hisoblash texnikasi, axboriy aloqa tizimi, internet tizimi, shuningdek boshqa axborot texnologiyalari inson va jamiyat hayoti va faoliyatida axborotning ahamiyatini keskin oshirib yubordi.

Hozirgi kunda ijtimoiy-texnikaviy rivojlanish bilan ijtimoiy-siyosiy rivojlanish o'rtasida mutanosiblik mavjud bo'lgan jamiyatgina har tomonlama uyg'un rivojlanishi mumkin. Shuning uchun har qanday jamiyat o'zining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va boshqa axborotga bo'lgan talab hamda ehtiyojini to'liqroq qondirishga intiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, bugunga kelib ilmiy-texnikaviy, ishlab chiqarish, ijtimoiy rivojlanishning miqyosi mazkur sohalarda to'plangan va almashinayotgan axborotlar, ularning almashinish sur'ati va o'zlashtirilish tezligi bilan belgilanadi. Globallashayotgan dunyoda axborot xalqlararo va davlatlararo munosabatlarda katta ahamiyat kasb etadi. Ya'ni u jahon hamjamiyati hayotida ham ijobiy, ham salbiy kuch sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Shu ma'noda texnikaviy-tehnologik sohada katta imkoniyatga ega bo'lgan mamlakatlar qulay sharoitga ega bo'ladilar. Mana shu ustunlik tufayli ular o'z shaxsiy manfaatlariga mos keluvchi qadriyatlarni, nuqtai-nazarlarni, g'oyalarni, fikrlarni ilgari surishlari mumkin va surmoqdalar ham. Shunga ko'ra ko'pgina davlatlarda globallashuvga qarshi harakatlar yuzaga kelmoqda, bular yagona jahon uyg'unlashgan axborot maydonini tuzishni rad etmoqdalar. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, globallashuvga qarshi harakatning o'zi tobora global harakat tusini olmoqda. Zamonamizning o'ziga xos jihatlaridan bo'lib, har qanday mahalliy hodisa yoki voqea zamonaviy axborot texnologiyalari tufayli global hodisa yoki voqeaga aylanmaqda.

**Axborot xavfsizligiga tahdid turlari.** “Butun bashariyatni qamrab olish imkoni – internetgina insoniyatni bir yoki bir nechta axborot tevaragida birlashtirish missiyasini amalga oshira olmoqda. Internet bamisoli bashariyatning yagona ma'naviy qon tomiriga aylandi, bu qon tomirida uzluksiz harakatlanuvchi axborot oqimi istalgan daqiqada dunyo aholisini birlashtiruvchi, hamfikir qiluvchi mo'jizakor imkoniyatga ega bo'ldi. Afsuski, internetdek mo'jizada birlashtiruvchilik qobiliyati nechog'li cheksiz bo'lsa, uning parchalovchilik xususiyati ham shu qadar adoqsiz ekanligi ayon bo'lmoqda. Chunki, internetdan samarali foydalanish borasida bir-biriga o'xshash odamni uchratib bo'lmaganidek, global axborot maydonidan bir xil darajada bahra olayotgan fuqaro ham, xalq ham, davlat va jamiyat ham topilmaydi. Ongu tafakkurlarni

zaharlashga qaratilgan axborotlar tarqatish bilan shug'ullanadigan, shuningdek, davlatlar, xalqlar o'rtasida nizolar keltirib chiqarish maqsadidagi maxsus axborot markazlarining ko'payishi-internet mo'jizasidan dunyo xalqlari orasida buzg'unchilik, ayirmachilik keltirib chiqarish yo'lida foydalanayotgani ezgu niyatli insoniyatni yanada oqilona va gumanistik maqsadlar yo'lida birlashishiga, jipslashishiga undaydi"[6].

Internet tarmog'i ommalashgandan so'ng axborot manbalariga ruxsatsiz kirish yoki saqlanadigan ma'lumotlarga ta'sir o'tkazish, mavjud tizimni ishdan chiqarish, hozirgi global zamonda odatiy holga aylanmoqda. Har qanday resurslarga ta'sir qiladigan bunday tahdidlar ma'lumotlarning buzilishiga, nusxalashga, ruxsatsiz tarqatishga, ularga kirishni cheklashga yoki bloklashga olib kelishi mumkin. Hozirgi kunda turli mezonlarga ko'ra tasniflanadigan tahdidlarning soni juda ko'p. Tahdidlarni paydo bo'lishi tabiatiga ko'ra **tabiiy va sun'iy** tahdidlarga ajratish mumkin. **Tabiiy tahdidlar** deganda, ob'yektiv fizik jarayonlar yoki tabiiy ofatlarning kompyuter tizimiga ta'siri tufayli kelib chiqadigan hodisalarni kiritish mumkin. **Sun'iy tahdidlar** deganda, inson faoliyati natijasida kelib chiqadigan tahdidlar tushuniladi. Tashqi tomondan tahdidlarni amalga oshirish darajasiga ko'ra, **tasodifiy va qasddan** sodir etiladigan tahdidlarga ajratish mumkin. Shuningdek, tahdidlarni to'g'ridan-to'g'ri manbaiga qarab ajratish mumkin, bu tabiiy muhit (masalan, tabiiy ofatlar), inson (maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilish), dasturiy va texnik vositalar: avtorizatsiya qilingan (operatsion tizimdagi xato) va ruxsatsiz (tizimning virusli infeksiyasi) singari holatlarni amalga oshirishi mumkin.

Tahdidlar asosiy kelib chiqish manbai boshqa pozitsiyaga ega bo'lishi mumkin. Ushbu omilga qarab ularni uch guruhga ajratiladi, bular:

- manbai kompyuter tizimining boshqariladigan guruhidan tashqarida bo'lgan tahdidlar (masalan, aloqa kanallari orqali uzatiladigan ma'lumotlarni ushlab);
- manbai tizimning boshqariladigan zonasida bo'lgan tahdidlar (bu axborot tashuvchilarning o'g'irlanishi bo'lishi mumkin);
- to'g'ridan-to'g'ri tizimning o'zida bo'lgan tahdidlar (masalan, resurslardan noto'g'ri foydalanish)[7].

## MUHOKAMALAR

Tahdidlar kompyuter tizimiga turli xil ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, **passiv effektli** bo'lishi mumkin, ularni amalga oshirish ma'lumotlar strukturasi o'zgartirishga olib kelmaydi (masalan, nusxalash). **Faol tahdidlar**, aksincha, kompyuter tizimining tarkibi va tarkibini o'zgartiradigan tahdidlardir (maxsus dasturlarni kiritish). Tizim resurslaridan foydalanuvchiga yoki dasturiga kirish bosqichlarida tahdidlarni ajratilishiga muvofiq, shunday xavflar mavjudki, ular

kompyuterga kirish vaqtida paydo bo‘ladi va ruxsatsiz foydalanuvchi kirganidan so‘ng aniqlanadi (manbalardan ruxsatsiz foydalanish). Tahdidlarni tizimdagi joylashuvi bo‘yicha uchta guruhga bo‘lib tasniflash mumkin: tashqi saqlash qurilmalarida, aloqa liniyalarida aylanib yuradigan ma‘lumotlarga kirish tahdidlari. Noqonuniy olingan parollar yordamida yoki qonuniy foydalanuvchilarning terminallaridan noqonuniy foydalanish orqali tahdidlar manbalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri standart yo‘ldan foydalanishlari yoki mavjud himoya vositalarini boshqa yo‘l bilan “chetlab o‘tishlari” mumkin. Axborotni o‘g‘irlash kabi xatti-harakatlar tizim faoliyatidan qat’iy nazar yuzaga keladigan tahdidlar sifatida tasniflanadi.

Shu jumladan, viruslarning tarqalishini faqat ma‘lumotlarni qayta ishlash paytida aniqlash mumkin. Tasodifiy yoki beixtiyor amalga oshiriladigan tahdidlar bu tajovuzkorlarning xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan xavflardir. Ularni amalga oshirish mexanizmi juda yaxshi o‘rganilgan, shuning uchun qarshi kurash usullari ishlab chiqilgan. Baxtsiz hodisalar va tabiiy ofatlar kompyuter tizimlari uchun alohida xavf tug‘diradi, chunki ular eng salbiy oqibatlarga olib keladi. Tizimlarning jismoniy yo‘q qilinishi sababli, ma‘lumotlarga kirish mumkin bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, murakkab tizimlardagi nosozliklar hamda ularni oldini olish yoki aksincha oldini olib bo‘lmaydi, buning natijasida ularda saqlanadigan ma‘lumotlar buziladi yoki yo‘q bo‘ladi, yohud texnik qurilmalarning ishlash algoritmi buzilishi mumkin. Bundan tashqari, bunday xatolar kiber jinoyatchilar tomonidan tizim resurslariga ta’sir ko‘rsatishda ishlatilishi mumkin. Foydalanuvchilarning 65% yo‘l qo‘yadigan xatoliklari tufayli, axborot tizimi xavfsizligining zaiflashishiga olib keladi. Korxonalarda ishchilar tomonidan funksional majburiyatlarni malakasiz, beparvolik bilan bajarish ma‘lumotlarning yo‘q qilinishi, yaxlitligi va maxfiylikni buzilishiga olib keladi. Shuningdek, qoidabuzarning maqsadli harakatlari bilan bog‘liq bo‘lgan qasddan uyishtirilgan tahdidlar aniqlangan. Ushbu sinfni o‘rganish juda qiyin, chunki u juda dinamik xarakterga ega va doimiy ravishda yangi tahdid turlari bilan yangilanib turadi. Axborotni o‘g‘irlash yoki yo‘q qilish maqsadida kompyuter tizimiga kirish uchun josuslik qilishning bunday usullari va vositalari tinglash, o‘g‘irlash dasturlari, xavfsizlik atributlari, hujjatlar va axborot tashuvchisi, vizual kuzatish va boshqalar kabi maqsadlarda ishlatiladi.

## XULOSA

Axborotlashgan jamiyatda xolis va noxolis axborot paydo bo‘lishi tabiiy jarayondir. Bu borada davlatlar ichki va tashqi konseptual axborot xavsizlik tizimini oshirishi buning uchun auditoriya chuqur o‘rgangan holda uning axborot saralash qobiliyatini shakillantirish lozim. Bu konseptual tizimni qanday shakillantirish mumkin? Induvidning shaxs sifatida voyaga yetishida ta’lim muassasalari o‘rni

beqiyos. Uning dastlabki dunyoqarashlari ta'lim jarayonida mustahkamlanib boradi. Shunday ekan boshlang'ich ta'limdan boshlab "Media savodxonlik" darsligini yaratish uning zamirida axborot va uning qanday paydo bo'lish mohiyatini tushuntirish. Maktablarda OAV xodimlari bilan ijodiy uchrashuvlar uyushtirish. 12 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar uchun "Ochiq axborot psixologig xavsizlik" darsligini yaratish hamda amaliy mashg'ulotlar olib borilishi lozim. 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan balog'at yoshidagi hamda voyaga yetgan yoshlarni mafkuraviy imunitetini mustahkamlash borasida kollej, litsey va oliy ta'lim muassasalarda "Global axborot xurujlari hamda uning shakillanish asoslari" nomli amaliy mashg'ulotlar uchun mo'ljallangan o'quv-uslubiy qo'llanma yaratish shuningdek, OAVnig yetakchi ilmiy tahliliy qobilytiga ega jurnalistlar bilan treyninglar tashkil etish lozim. Fan doirasida axborotlashgan jamiyatda sodir bo'layotgan voqeyliklarni tahlil qilish axborotning ijobiy va salbiy tomonlarini mushohada etish kerak

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xavfsizlikning metadologik asoslari.R.Samarov.T.:Akademiya nashriyoti. 2010.B.221-222.
2. Zelinskiy S.A. Informatsionno-psixologicheskoe vozdeystvie na massovoe soznanie. – Sankt-Peterburg, Torgoviy Dom «Skifiya», 2008. Str 8.
3. Saidov U. Globallashuv va madaniyatlararo muloqot. –T., "Akademiya", 2008 – 54-bet.
4. Yung K.G. Struktura psixiki arxetipi. Nemis tilidan T.A. Rebeko tarjimasini. – M.: Akademicheskij prosekpt, 2007. – B. 222-2123.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". 2-nashr. – T.: "Ma'naviyat", 2015. – B. 53 b.
6. Do'stmuhammad X. Axborot-mo'jiza, joziba, falsafa. T.,Yangi asr avlodi, 2013.- 40-41 b.
7. [www.inf74.ru/safetly/ofitsionnay-bezapasnos...](http://www.inf74.ru/safetly/ofitsionnay-bezapasnos...)

## IJTIMOY TARMOQ XABARLARINING JAMIYATGA PSIXOLOGIK TA'SIRI

**Iroda Mullajonova**

Toshkent viloyati,  
Piskent tumani 40- maktab o'qituvchisi

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilyotgan xabarlarni jamiyatga psixologik ta'siri haqida so'z boradi. Mazkur maqola mavzusi doirasida ilmiy adabiyotlarda keltirilgan fikrlar tahlil qilinib mavjud muammo yuzsidan taklif va tavsiyalar keltiriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ijtimoiy tarmoq, kontent ma'lumotlar, jamiyat, axborot psixologiyasi.*

## PSYCHOLOGICAL IMPACT OF SOCIAL NETWORK MESSAGES ON SOCIETY

**Abstract.** *This article talks about the psychological impact of the messages distributed on social networks today. Within the scope of this article, the opinions presented in the scientific literature are analyzed and suggestions and recommendations are made in the face of the existing problem.*

**Keywords:** *Social network, content information, society, information psychology.*

### KIRISH

Hozirda yirik ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar soni millionlab, milliardlab kishiga yetgan. Ular o'zaro muloqot qiladigan, saytlarga o'zlarining, yaqinlarining fotosuratlarini, videolarini joylaydilar, u yoki bu mavzuda fikr almashadilar. Kimlardir bu saytlarda o'zlarining unut bo'lib ketgan tanishlarini, bolalikdagi do'stlarini topadilar[1].

Ijtimoiy tarmoqlarda faqat do'stlar, tanishlarni emas, mashhur insonlarni ham uchratish mumkin. Yulduzlar o'z sahifalarini ochib, unda hayotlaridagi qiziqarli voqealarni yozadilar, rasm va videolarni berib boradilar.

Tarmoqlar ichida ko'plab kanallar, bloglar, guruhlar va sahifalar ochilgan – ularni istalgan foydalanuvchi o'z qiziqishiga qarab ochishi va do'stlarini taklif qilishi mumkin. Bularning mavzulari turli xil – futbol, tikuvchilik, avtomobil, jamoatchilik fikri, trollar, tanqid va boshqalar. Ishqilib, insoniyat nimaga qiziqsa barini topish



mumkin. Mazkur guruhlarga a'zo bo'lganlar biror mavzu yuzasidan bahslashadilar, fikr almashadilar. Bu guruhlarning ko'pi "ochiq" bo'lib, istalgan odam a'zo bo'lishi mumkin, ayrimlari esa "yopiq" va u guruh adminining ruxsati bilan qabul qilinadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugunga kelib ijtimoiy tarmoqlar katta biznes maydoniga ham aylanib ulgurdi. Akkauntlarni reklama qilish, kontentni oshirib berish, layklarni ko'paytirish, a'zolar sonini ko'paytirib berish va shu kabilar. Odatda, ijtimoiy tarmoqlar ma'muriyati o'z a'zolari bilan juda xushmuomala bo'ladilar, ularni imkon bo'ldi deguncha yaxshi gaplar bilan "siylab", turli bayramlar bilan muntazam tabriklab turadilar.

Har yaxshining bir yomoni bo'lganidek, tarmoqlarning ham bir qancha kamchiliklari bor. Avvalo, bu – psixologik qaramlik. Ko'plab foydalanuvchilar bunday saytlarga bir kiringach, kun bo'yi qolib ketadilar, tuni bilan o'tirib chiqadiganlar ham bor. Natijada, ularning ongida haqiqiy hayot bilan virtual olam aralashib ketadi. Inson virtual olam – bu xayolot ekanligi, real hayotga doim ham to'g'ri kelavermasligini unutib qo'ysa, buning oqibatlari ayanchli bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunimizning eng asosiy vaqt o'tkazuvchi omil hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kasaliga uchrashgan. Bizning diyorumizda eng asosiy ijtimoiy tarmoqlar sifatida "facebook.com", "instagram" yetakchi o'rinda turadi[2].

Bugunga kelib ijtimoiy tarmoqlar shu darajada rivojlanib ketdiki, soha vakillari, yirik olimlar bundan havotirga ham tushib qolishdi. Sababi, ijtimoiy tarmoqlarda ko'p foydalanuvchilar virtual olam ta'siriga tushib qolishi, jonli muloqotdan anchagina uzoqlashib ketadi deya, bahs munozalarga sabab bo'lmoqda.

Amerikaning Kanzas universiteti olimlari keng tarqalgan fikrlarni inkor etdi: ijtimoiy tarmoqlar insonlarning jonli muloqotiga ta'sir qilmaydi va ularni do'stlaridan va oilalaridan uzoqlashtirmaydi. Tadqiqot natijalari "Information, Communication & Society" ilmiy jurnalida chop etildi[3].

## NATIJALAR

Olimlar ikkita tajriba o'tkazishdi. Birinchisida yoshlarning 2009- va 2011-yillardagi o'zini tutishi tahlil qilindi. Aniqlandiki, ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi yoshlarning jonli muloqotga sarflaydigan vaqtiga umuman ta'sir qilmagan.

Ikkinchi tajriba 2015-yilda o'tkazilgan. 116 nafar kishi tahlil qilgan, ularning yarmi talabalar, qolgan qismi – universitet bitiruvchilari. Ulardan doimiy ravishda kunlik jonli muloqot va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi so'rab turilgan. Ma'lum bo'lishicha, tarmoqdagi yozishmalar tajriba ishtirokchilarning do'stlari va yaqinlari bilan jonli muloqot olib borishiga ta'sir o'tkazmagan.


“We Are Social” xalqaro agentligi hamda “Hootsuite” servisi jahon bo‘yicha internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar sonini hisoblab chiqishdi. “Expert.ru” yozishicha, 2018-yilda jahon internet hamjamiyati nufuzi 4 milliardgacha oshdi – endi sayyoramiz aholisining yarmidan ko‘pi internetdan foydalanmoqda[4].

Mintaqalar o‘zaro solishtirilganda foydalanuvchilar sonining eng katta o‘sishi kam “shaharlashgan” va “internetlashgan” Afrikada kuzatildi[5]

Agar kimdir internetdan foydalansa, demak, jahondagi 3 milliard kishi qatori ijtimoiy tarmoqlardan ham foydalanadi. Statistika ma’lumotlariga qaraganda, 250 million nafar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari 2017-yilda safga qo‘shildi. Har 10 foydalanuvchining 9 nafari ijtimoiy tarmoqqa mobil telefonda kirmoqda. Foydalanuvchilar kuniga o‘rtacha 6 soatni internetda o‘tkazmoqdalar.

Agar hamma foydalanuvchilarning internetda o‘tkazgan vaqti qo‘shilsa, aql bovar qilmas ko‘rsatkich kelib chiqadi – onlaynda milliard yil.

Jahonda eng ommalashgan yetti ijtimoiy tarmoq quyidagilar (mln.kishi):



Butun dunyo miqyosida olib qaraladigan bo‘lsak, facebook ijtimoiy tarmog‘i yetakchi o‘rinni egallaganini ko‘rishimiz mumkin[6]. Hattoki, u o‘z raqiblaridan deyarli ikki marotabaga ham foydalanuvchilar soni bo‘yicha peshqadamdir.

Ana endi yana bir jihatga e’tibor qaratishimiz kerak. Qaysi mintaqalarda qanday ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalgan? Buni quyidagi rasm orqali ko‘rishimiz mumkin:

Shu o‘rinda, O‘zbekistonda internet xizmatlari bo‘yicha qisqacha aytib o‘tishni joiz deb bildik.

Mamlakatimizda internet tezligini oshirish, xizmat sifatini yaxshilash bo‘yicha so‘nggi 2 yil mobaynida ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Internet tezligi bo‘yicha xalqaro reytingda mamlakat o‘rnini yaxshilash, mijozlarga qulayliklar yaratish UZTELECOMning bosh maqsadlaridan biriga aylandi.

“O‘zbektelekom” AK mas’ul xodimi Yunus Kamolov 2018-yilning 1-dekabr sanasidan O‘zbekistonda internet tezligi 10 barobarga oshirilishi bo‘yicha aytib o‘tgan edi. Qolaversa, mamlakatimiz prezidenti 2018 – yilning sentyabr oyidagi yig‘ilishda IT

sohasidagi muammolarni bartaraf etish vazifasini bergandi. Xususan, internet tarmog‘iga ulanish tezligini oshirish, aloqa tarmoqlarini to‘liq optik tolaga almashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berib o‘tgandi. 08.01.2019-yilda Daryo.uz saytida “2019-yilda O‘zbekistonda internet tezligi oshadimi?” nomli maqola e‘lon qilindi. Bu savolga axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o‘rinbosari Olimjon Umarov javob berdi:

“2016-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekistonda 100 kishiga to‘g‘ri keladigan simli keng polosali tarmoq foydalanuvchilari soni 9,1 tani tashkil etsa, bu ko‘rsatkich MDH bo‘yicha o‘rtacha 15,8 tani, dunyo bo‘yicha 12,4 tani tashkil etgan. Har bir internet foydalanuvchisiga to‘g‘ri keladigan ulanish tezligi 5,7 kbit/sekund bo‘lsa, MDH bo‘yicha o‘rtacha 59 kbit/sekund, dunyo bo‘yicha esa o‘rtacha 74,5 kbit/sekundni tashkil etgan[5].

O‘tgan ikki yil ichida “Xalqaro paketli kommutatsiya markazlari va ma‘lumotlar uzatish tarmoqlarini kengaytirish” loyihasi doirasida Xalqaro paketli kommutatsiya markazi (XPKM) kompleksi modernizatsiya qilindi va mazkur kompleksning umumiy o‘tkazuvchanlik qobiliyati 10 barobarga oshirilib, 80 Gbit/sekunddan 1 200 Gbit/sekundga yetkazildi. Jami 4 500 kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari va 6 000 dan ziyod mobil aloqa baza stansiyalari qurildi, simlik keng polosali tarmoq sig‘imi 283 000 portga kengaytirildi, operator va provayderlar uchun tashqi internet narxi 91 AQSh dollaridan 10 AQSh dollarigacha pasaytirildi.

Mazkur tadbirlar nafaqat telekommunikatsiya infratuzilmasi kengayishi, xizmatlar sifati yaxshilanishi, balki O‘zbekistonning reyting ko‘rsatkichlari yaxshilanishiga ham xizmat qiladi[6].

Vazirlik tomonidan telekommunikatsiya xizmatlari tezligi va sifatini oshirish, telekommunikatsiya infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan 2019—2023-yillarga mo‘ljallangan Milliy dastur loyihasi ishlab chiqilgan va hozirgi kunda kelishish jarayonida.

### **Dasturga asosan:**

120 000 kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari qurilishi;

6 000 dan ortiq mobil aloqa baza stansiyalari qurilishi;


Keng polosali tarmoq sig‘imi 1,5 million portga kengaytirilishi;

Ma‘lumotlarni saqlash va qayta ishlash markazlari sig‘imi kengaytirilishi va yangilarining qurilishi;

Tashqi internetga ulanish qobiliyatini qo‘shimcha 10 barobar oshirish;

Wi-Fi tarmoqlarini keng joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan”.

“Facebook.com” ijtimoiy tarmog‘idagi “Потребитель.уз” guruhi foydalanuvchilari tomonidan o‘tkazilgan so‘rovnoma asosan, O‘zbekistonda faoliyat olib boruvchi internet provayderlarining reytingi e‘lon qilindi:



O‘rni kelganda hype.ru saytining nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyoda juda tezlik bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlardan biri Instagramda 2019-yilda e‘lon qilingan top reytingini keltirib o‘tish mumkin.

## MUHOKAMALAR

Tasavvur qiling, siz yozgan har bitta gapni 100-200 milliondan ortiq odam o‘qisa, unda sizga hech qanday ommaviy axborot vositasining keragi bo‘lmay qoladi. Agar g‘oya va aytilayotgan gaplar ijobiy bo‘lsa-ku, mayli, lekin u g‘oyalar insoniyat rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan, turli xil buzg‘inchi mafkuralarga asoslangan bo‘lsa, bundan xavfli narsa bo‘lmay qoladi.

Bunga misol: Yaqinda Yangi Zelandiyada masjidlarda bo‘lgan teraktni olishimiz mumkin. Sof.uz saytida e‘lon qilingan “Musulmonlar masjididagi otishma videosi uchun Facebook va YouTube ustidan shikoyat qilishdi” nomli yangilikda quyidagi fikrlar bor:

“Fransiya musulmonlar kengashi (CFCM) Yangi Zelandiya Kraysterch shahrida masjididagi otishma video tarqatilganligi uchun Facebook va YouTube ustidan shikoyat qilishdi.

Musulmonlar kengashi terorizmga undash yoki insonlar qadr-qimmatiga zarar yetkazadigan zo‘ravon xabarlarni tarqatilishidan shikoyat qildi.

Eslatib o‘tamiz, terrorchilar o‘z harakatlarini Facebookda translyatsiya qilishgan edi”.

Ijtimoiy tarmoqlar berib boriladigan aksariyat materiallar (ma‘lumotlar kontenti) mazmuniga ko‘ra bir-birini takrorlaydi va har bir platforma tasmasi deyarli bir-biriga o‘xshash. Ommaviy axborot vositalarini ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalishi uchun

xizmat qiladigan ikkinchi usul transmedia fenomeni hisoblanadi. Ushbu atama hali to'liq shakllanib ulgurmagan bo'lsa-da, bu hodisa ko'z oldimizda rivojlanib bormoqda. Mazkur atama ilk marotaba professor Genri Jenkins tomonidan 2003-yilda "transmedia storytelling" (transmedia hikoyanavisligi) iborasi shaklida ishlatilgan. U ushbu hodisani "izchil va yagona tajriba hosil qilish maqsadida voqea-hodisalarni turli ommaviy axborot vositalarida keng xalq ommasiga tarqatish jarayoni" deb ta'riflaydi. Rossiya amaliyotida "transmediya" atamasi termin sifatida ko'p yillardan beri qo'llanilib keladi va asosan hikoya qilib berish ma'nosida keng ishlatilib, bu yerda u turli voqea-hodisalarni to'liq "to'plash" uchun boshqa platformaga murojaat qilishni anglatadi. Bunda asosiy e'tibor platformalarning o'zaro kengayib borishi va bir-birlari bilan bog'lanishi bilan bog'liqdir. Foydalanuvchi ma'lum platformaga murojaat qilganda u to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita boshqa platformaga o'tadi, chunki avvalgi platformada berilgan ma'lumotni o'qimasdan keyigilarini tushunish qiyin kechadi. Platforma deganda barcha turdagi ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter o'yinlari, mobil ilovalar, filmlar, kitoblar, komikslar, kolleksiyalar va boshqalar tushuniladi. Transmedia tamoyili uzoq yillar davomida mahalliy ommaviy axborot vositalari yordamida samarali tatbiq etib kelingan. Ayniqsa, televideniye, onlayn nashrlar va ijtimoiy tarmoqlar kabi platformalar turli tomondan ta'sir ko'rsatadi va birgalikda tegishli kontent yaratadi. Ommaviy axborot vositalarini keng targ'ib qilishda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning salbiy tomonlari ham bo'lishi mumkin.

Amerika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, amerikaliklarning qariyb uchdan ikki qismi (64%) Facebook ijtimoiy tarmog'ining foydalanuvchilari hisoblanib, ularning yarmi, taxminan **30%**, an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan bir qatorda "**Facebook**" kabi ijtimoiy tarqmoqlarga murojaat qiladi. Shunga qaramasdan, ijtimoiy tarmoqlarning bunday ustunlikka erishishi nafaqat OAVda reklamalarni joylashtirishdan tushadigan daromad, balki keng foydalanuvchilar auditoriyasining ma'lumotlarni qabul qilish tarzining o'zgarib borishiga xavf solishi mumkin. Amerika "**Fusion**" axborot resursi muharriri, media tahlilchi Feliks Salmon fikriga ko'ra, ommaviy axborot vositalari materiallarini **Facebook** kabi ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilishi ko'plab taniqli brendlarga zarar yetkazadi va buning natijasida tahrirlash va dalillarni tekshirish kabi eskirgan qoidalar yo'qolishi mumkin. Shu bilan birga, **Facebook** tarmog'i bilan shartnoma tuzgan ommaviy axborot vositalarining obunachilari soni sezilarli darajada ko'payishi ehtimoldan holi emas. O'z navbatida, hozirgi raqobat muhitida o'z auditoriyasi sonini kamayishiga yo'l qo'ymaslik uchun raqobatchilar ayni shunday ish tutishga majbur bo'lmoqda. OAV uzoq yillar mobaynida o'z mavqeyini saqlab qolish uchun raqobatchilari bilan kurashishdan ko'ra, qisqa muddat ichida auditoriyasini ko'payib borishini afzal ko'radi. Agar bunday salbiy bashoratlar o'zini oqlasa va

ijtimoiy tarmoqlar dunyodagi yetakchi ommaviy axborot vositalarini “o‘z tomoniga og‘dira” boshlasa, demak, OAV mahsulotlarini keng targ‘ib qilish vositasi dunyodagi mashhur mediabrendlarini yo‘q qiladi va ehtimol, axborotlarni tarqatish institutini “yutib” yuboradi. OAV o‘z maqsadiga erishishda ijtimoiy tarmoqlar imkoniyatlaridan foydalanishi kerak. Rivojlanishning bu bosqichida hamkorlik qilishdan boshqa chora yo‘q. OAV ijtimoiy tarmoqlar taqdim etadigan barcha imkoniyatlardan unumli foydalanish zarur.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda tasavvur qiling bunday kuch (ijtimoiy tarmoqlar) XX asrni eng dahshatli qirg‘inlariga sababchi bo‘lgan fashistlar Germaniyasi, Gitlerni qo‘lida bo‘lganda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin edi. Chunki Gitler fan, texnika, ommaviy axborot vositalari hali unchalik rivojlanmagan bir vaqtda o‘zini g‘oyalari va notiqlik qobiliyati bilan butun nemis xalqini ishontira oldi. Agar uning qo‘lida ijtimoiy tarmoqlardek bir “qurol” bo‘lganda Ikkinchi jahon urushi oqibatlarini yana ham dahshatli bo‘lishi mumkinligini tushunish qiyin emas. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «... *biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o‘tgan, yuksak ma’naviyat xazinasi bo‘lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz*». Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo‘hton va uydirmalarni tarqatish orqali yoshlarimizni aldab, o‘z qarmog‘iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda. Zero, milliy ma’naviyatimizni asrash orqali yoshlarimizni ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, o‘z xalqiga, yurtiga bo‘lgan muhabbatini oshirish asosiy vazifamizdir

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Harris R. Психология массовых коммуникаций. –М.: “ОЛМА-ПРЕСС”, 2002.
2. Srivastava K.M. Social media in business and governance. Sterling.: New Delhi, India. 2013. – P 153.
3. <http://www.xabar.uz/tehnologiya/ijtimoiy-tarmoqlar-insonlarning>
4. Rashidova D., Muratova N. Internet jurnalistika. –T.: 2007.
5. <http://www.xabar.uz/tehnologiya/onlaynda-milliard-yil>
6. <https://www.web-canape.ru/business/socialnye-seti-v-2018-godu-globalnoe-issledovanie/>

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI TARBIYALASH JARAYONIDA XALQ MAQOLLARINING TUTGAN O‘RNI

**Jumayeva Maxbuba Soatmurod qizi**

Termiz davlat Pedagogika instituti 2-kurs magistranti

Email: [jumayevamahbuba@gmail.com](mailto:jumayevamahbuba@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama barkamol, komil inson qilib voyaga yetkazishda, tarbiyalashda ularni mehnatga, ilm olishga, yaxshilikka, yaxshilik qilishga o‘rgatishda xalq maqollarining o‘rni, ahamiyati haqida so‘z boradi. Kattalarga hurmat, kichiklarni izzat qilish, odob-axloqqa o‘rgatish, ona vatanga mehr-muhabbat uyg‘otishda, uning har bir qarich yerini asrab-avaylash kabi insonparvar hislatlarni shakllantirish xalq og‘zaki ijodining muhim janri hisoblangan maqollardan foydalanish haqida so‘z boradi.*

**Kalit so‘zlar:** *Ta‘lim –tarbiya, xalq og‘zaki ijodi, janr, maqol, odob-axloq, insonparvarlik, sinf, tartib intizom, yaxshilik, barkamol shaxs.*

## THE ROLE OF FOLK PROVERBS IN THE PROCESS OF EDUCATION OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS

**Abstract.** *It talks about the role and importance of folk proverbs in raising elementary school students to become mature and perfect people in all aspect, teaching them to work, learn, be kind, and do good. It is about the use of proverbs, which are considered an important genre of folk art, to create humane feelings, such as respecting elders, honoring children, teaching manners, instilling love for the motherland, preserving every corner of it.*

**Keywords:** *Education, folklore, genre, proverb, manners, humanity, class, order discipline, goodness, perfect person.*

### KIRISH

Qadim zamonlardan buyon xalq orasida og‘izdan og‘izga o‘tib, sayqallanib, hayot tajribalarida o‘z tasdig‘ini topgan xalq og‘zaki ijodining o‘rni va ahamiyati yosh avlodni tarbiyalash jarayonida juda muhimdir.

Xalq og‘zaki ijodining bir qismi bo‘lmish maqollar asrlar davomida misqollab to‘plangan, qanchadan –qancha sinovlardan o‘tgan, insonlarga hamisha madad bo‘lib kelgan, doimo yaxshilik, ezgulik tomon yetaklovchi nurli mashaldir.

O'tmishda yaratilib va ishlatilib kelinayotgan eng yaxshi maqollar xalq donishmandlarining namunasi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda birlamchi vosita vazifasini bajarib kelmoqda, hozirgi texnologiyalar zamonida ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunday maqollar va hikmatli so'zlar har bir xalqning ma'naviy boyligining qimmatbaho xazinasini tashkil etadi.

## METADOLOGIYA

Maqol-arabcha so'zdan olingan bo'lib, "so'z", "otalar so'zi" degan ma'nolarni anglatadi. Maqollar— xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli, hikmatli ibora, chuqur mazmunli, muayyan aniq shaklga ega bo'ladi. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, kuzatishlari, natijalari, haqiqatdan tan olish kerak bo'lgan o'git va nasihatlari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va soda poetik shaklga kelgan. Ammo, shakli jihatdan kichik bo'lsada, ma'no jihatdan katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Maqollar ba'zan matal, zarbulmasal, naql, hikmat, hikmatli so'z, tanbeh, mashoyixlar so'zi, hikmatli maqol, donishmandlar so'zi, otalar so'zi kabi nomlar bilan ham yuritiladi. Maqollarning ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyati juda, hattoki, g'oyat katta. Matalda narsa tasviri, uning karakteristikasi beriladi, maqolda esa to'la tugallangan fikr-xulosa ifodalanadi.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, kitob haqida, do'stlik, ahillik, donolik, yaxshilik, ezgulik, orzu-havas, maqsad, to'g'rilik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rang-barang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko'p hollarda qofiyadoshlik, ba'zan ko'p ma'nolilik, majoziy ma'nolarga boylilik kabi xususiyatlar harakterlidir. Maqollarda antiteza hodisasi ko'p uchraydi ("Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda bo'l" va boshqalar).

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o'zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi. Masalan, Koshg'ariy asarida "Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin", ya'ni "Odam olasi ichida, mol olasi tashida" kabi. Biz bu maqollarni hayotda juda ko'p ishlatamiz, to'g'rimi?!

Maqolga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqat markazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abulg'azi Bahodirxon, Munis, Ogahiy,



Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G'afur G'ulom va boshqa o'nlab ijodkorlarning asarlari sinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan qancha maqollar ba'zan aynan, ba'zan o'zgargan holda mavjudligiga ishonch hosil qilamiz. Bu idodkorlar xalqqa tushinilishi oson bo'lsin deb xalq ijodidan samarali foydalanganlar, xalq maqollarining tarbiyaviy jihatini ochib berganlar. Yozuvchi M.Gorkiy ham maqollarga yuksak baho berib: "Eng ulug' donolik so'zning soddaligidadir. Maqollar va qo'shiqlar har vaqt qisqa bo'ladi. Ularda butun-butun kitoblar mazmuniga teng keladigan fikr va sezgilar mavjud bo'ladi" deb aytib o'tgan.

## MUHOKAMA VA NATIJA

Maqollarning tarbiyaviy ahamiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, bugungi kun yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda, ularni kamol toptirishda, ma'naviy jihatdan yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Endi 1-sinfga qabul qilingan o'quvchilarni boshidan, ilk kunlaridanoq maqollar yordamida tarbiyalab borish kelajak uchun mustahkam poydevor qurishlariga zamin yaratadi. Bu orqali ularda ona vatanga muhabbat, do'stlik, sadoqat, mehnatsevarlik, mardlik, odillik, ilm olishga intilish, hunar o'rganish, halollik, yaxshilik, omonatga xiyonat qilmaslik, tozalik va ozodalik, ne'matlarning qadriga yetish, kattaga hurmatda bo'lish, kichiklarni esa izzat qilish, mehnatkashlik kabi insoniy hislatlar shakllanib boradi. Masalan, 1-sinfning Alifbe kitobida "Mehnat - mehnatning tagi rohat" maqoli keltirilgan. Tuzilishidan oddiy, aytilishidan oson ko'rinsada zamirida olam-olam ma'no bor. Har qanday hayrli ish, chiroyli hayot, yaxshi turmush, jamiki orzu, maqsadlarga mehnat orqali erishiladi. Umumman birgina 1-sinf o'quvchilari hayotini olib qaraydigan bo'lsak, ular uchun bu davr qiyin va murakkab kechadi. Sababi o'yin faoliyatidan uzilmagan bolalarga maktab hayoti, o'qish faoliyati ancha qiyin. Bunday paytda o'qituvchidan katta mahorat talab qilinadi va bu maqolning mazmunini tushuntirish, singdirish orqali o'quvchilarni sabr-qanoatga, mehnatga o'rgatish, kun kelib mehnatining natijasini ko'rishlariga ishonitirish va amalyotda ko'rsatish orqali tarbiyalab borilsa yaxshi samaraga erishish mumkin. Xususan, ular o'z vaqtida darslarini tayyorlashlari, Alifbe kitoblarini o'qishlari ham aslida mehnat va bu mehnati uchun ustozidan bahosini olish jarayoni esa mukofot, ya'ni mehnatining rohati desak mubolag'a bo'lmaydi. "Mehnatdan kelar boylik, turmush bo'lar chiroylik" - bu maqol ham mehnatning qanchalik muhimligini, yashash uchun, inson uchun qanchalik zarurligini chiroyli, soddalik bilan ifodalab bergan. "Harakat-harakatda barakat" maqolini yuqoridagi maqolning mantiqiy davomi desak ham bo'ladi. Biror bir maqsadimizga erishish uchun harakat qilsak, mehnat qilsak shu harakatimiz, mehnatimizga yarasha mukofotini, barakasini olamiz, rohatini ko'ramiz.

“Oltin olma ,duo ol” maqoli zamirida bir nechta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’nolar mujassamlashgan. Keksalarni, ota-onani hurmat qilish ,ularning beminnat xizmatini qilib duosini olish, nafaqat yaqinning, balki yod insonga ham yaxshilik qo‘lini cho‘zib yordam berish, haq berganda olmasdan duosini olish nazarda tutilgan. Chunki ota-onaning, keksalarning, muhtojlarning duosi ijobat bo‘ladi, yomonliklardan asrab, yaxshiliklarga yetkazadi. Bu maqolning davomi sifatida xalqimizda yana shunday maqol bor: “Duo bilan el ko‘karar, yomg‘ir bilan yer ko‘karar”. Bu maqolda yuqoridagi maqolning manosi kengroq ochib berilgan. Duo olgan elning unib-o‘sishi, orzulariga yetishini bahor faslida yomg‘irdan keyin ko‘m-ko‘k maysalar unib chiqishiga qiyosan chiroyli o‘xshatish qilingan va bu o‘quvchi uchun ham maqolning mazmunini tushunishini osonlashtirgan. Bu maqollar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini haqiqiy insonparvar bo‘lib yetishishlariga turtki bo‘ladi, biror orzu-maqсадga erishish uchun faqat mehnat qilish emas, balki boshqalarga yordam berib ularning duosini olish kerakligini ham ko‘rsatadi. Bu maqollar orqali o‘quvchilar ham mehnat qilishga, ham yaxshilik qilishga o‘rganib borishadi.

Yosh avlodni hozirgi zamon talablariga mos, raqobatbardosh qilib tarbiya topishida, vatanning, xalqning haqiqiy tayanchi, suyanchi bo‘lib voyaga yetishida ular egallayotgan ilmning o‘rni muhimdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ilm olishga qiziqtirish, shu ruhda tarbiyalashda bilim to‘g‘risidagi maqollardan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Jumladan, “Ilmli bola elga manzur” maqoli zamirida ilmli bolani, bilimi bor insonni hamma hurmat qiladi, butun xalq uni sevadi, hammaga kerak bo‘ladi. Chunki bilimi bor inson shu bilimi bilan biror kishiga yordam berishi, mushkulini oson qilishi, xalqni yaxshilik tomon yetaklashi mumkin. Mushkul vaziyatlarga aql-u idroki bilan yechim topa oladi, ma’naviyati mustahkam bo‘ladi. Ilmli inson hech qachon xor bo‘lmaydi. “Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni”. Bu maqolning asosida ham katta ma’no bor. Jismoniy yetuklik bilan ,kuch bilan bir yoki ikki kishini yengish mumkin, ammo aql-idrok, bilim bilan minglab ,millionlab kishilarni mag‘lub qilish mumkin. Tarixga nazar tashlar ekanmiz ko‘plab shohlar, sarkardalar, vazirlar yurtidan uzoqda yashashga majbur bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Ularda qancha boylik, davlat bo‘lishiga qaramay baxtni his qilmaganliklarini eshitamiz yoki kitoblarda o‘qib qolamiz. Shunday paytda quyidagi maqol xayolimizga keladi, bunday holatni tushuntirish uchun boshqa so‘zga zarurat qolmaydi. “Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, Elidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar”. Yuqoridagi so‘zlar zamirida inson dunyoga kelibdiki, ilk bor kindik qoni to‘kilgan joy vatani hisoblanadi. Odam har qanday ayriliqqa chidasa ham yurt ayrilig‘iga chiday olmaydi. Buning yaqqol dalili sifatida buyuk ajdodimiz shoh

va shoir Zahridin Muhammad Bobur hayot yo‘llarini bir yodga olaylik. U butun umr yo‘llarini musurmonchilikda, yurtidan olisda vatan sog‘inchi bilan yashagan.

Tole yo‘qki jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.

O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,

Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Bu misralar Bobur o‘zining ichki kechinmalarini, his tuyg‘ularini yoritib bergan. Bu kabi ona diyorini qo‘msash, yurt sog‘inchi mavzusidagi maqollarni o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ko‘plab uchratish mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga Ona vatan, vatan tuprog‘ining nechog‘lik muqaddas, aziz va mo‘tabar ekanligini tushuntirishda, qalban, ruhan tug‘ilib o‘sgan makonning issiq taftini singdirib, ularni haqiqiy vatanning tayanchi, kelajagi sifatida voyaga yetkazishda bu kabi maqollar biz uchun yordam yordam beradi.

“Odam bo‘lish- oson, Odamiy bo‘lish- qiyin”. Bu maqol ma‘nosiga e‘tibor bersak, odamiyli insonning ko‘rki libosdir. Barchamiz odam bo‘lishimiz mumkin, lekin hammamizda ham odamiylik tuyg‘usi bo‘lavermaydi. Alisher Navoiy bobomiz “Odami ersang, demagil odami, Onikim, yo‘q xalq g‘amidan g‘ami” misralarini keltirganlari bejiz emas. Xalq g‘ami bilan yashagan insondagina odamiylik bo‘ladi. Faqat o‘z manfaatini o‘ylaydigan, odam bo‘lib odamiy bo‘lmagan, xalq g‘amini o‘ylamagan inson, inson bo‘la olmaydi. Yosh avlodni haqiqiy inson bo‘lib ulg‘ayishida, ularda odamiylik fazilati paydo bo‘lishida kichikligida beriladigan ta‘lim va tarbiya dasturil amal bo‘lib xizmat qiladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Respublikamizning siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy yo‘nalishlarini rivojlantirishda xalq ta‘limi tizimini takomillashtirish, ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichi ish-faoliyatini yuqori darajaga ko‘tarish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, kelajagimizning taqdiri hozirgi kunda boshlang‘ich ta‘lim bosqichida ilm olayotgan o‘quvchilarning tarbiyasiga bog‘liqdir. Tarbiyada xalqning milliy va ma‘naviy qadriyatlariga suyanish, xalq og‘zaki ijod namunalari, xususan maqollardan foydalanish, ular orqali 1-4-sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirish o‘ta dolzarb masalalardan biridir. Chunki bugungi kunda mafkuraviy poligonlarda yoshlar ongi va qalbi uchun kurash keskinlashgan bir paytda o‘quvchilarni iloji boricha, maktab yoshidanoq Ona vatanni sevishga, uni asrab avaylashga, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga o‘rgatish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Matchonov S. va b. O‘qish. 4- sinf uchun darslik: - T.: „O‘qituvchi» 2017
2. Mirzayev T., Musaqlulov A. «O‘zbek xalq maqollari» - T.: 2005.
3. Rabbonayeva D. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to‘plami. O‘quvslubiy qo‘llanma. Samarqand XTXQTMOHM. -2019.
4. Safarova R va b. Alifbe darsligi. - T.: O‘qituvchi, 2019.
5. Расулова, Р. Б. (2020). Она тили фанини ўқитишда иқтидорли ўқувчиларни аниқлаш ва уларнинг нутқ маданиятларини оширишда замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш. Ta'lim, fan va innovatsiya, 1(2), 37-40.
6. Усербай, Б. (9102). Мустақил таълим - талаба билимининг асоси. Туркийхалқлар фольклори, адабиётшунос ҳамда тилшуносликнинг аҳамиятли масалалари: Халқаро конференция, 1(1), 105-108.
7. Қучқоров, Ҳ. Ҳ. (2020). Жавдат ва унинг Самарқанд адабий ҳаётида тугатган ўрни. ИНТЕРНАУКА, 13(142), 89-90.
8. Қучқоров, Ҳ. Ҳ. (2020). Личность в системе человеческих общение и педагогических взаимоотношений. Innovative achievements in science, 439-441.
9. Ваьқабиллов, У. А. (2020). Та’лимда инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш босқичлари. Science and Education, 1(Special Issue 2), 51-56.
10. Холбеков, С. В. (2020). Adabiyot darslarida ijodkor tarjimaiholini o‘rgatish xususida. Science and Education, 1(Special Issue 2).
11. Jumaniyozov, S. A. (2020). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili fanini o‘qitishda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Science and Education, 1(Special Issue 2).
12. Ҳасанзода, Қ. Ҳ. (2020). Жавдат ижодида панд-ахлоқ мавзуси ва унинг ёш авлод тарбиясидаги ўрни. Science and Education, 1(2).
13. Байзаков, Ж. А. (2019). Тўки халықтарды дастандарындағы ўлттықерекшеліктер. Филология хэм оны оқытыў тараўларындағы фундаменталь хэминновациялық изертлеўлер, 35-37.
14. Байзаков, Ж. А. (2019). Тарихи дастандарда тўлға концепциясы. II Yunusov Readings: Modernization of the Great Steppe values as a key factor in the development of science and education, 250-253.
15. Shaykhislamov, N. Z., & Makhmudov, K. S. (2020). Linguistics and Its Modern Types. Academic Research in Educational Sciences, 1(1), 358-361.
16. Shayxislamov, N. Z. (2020). Lingvokulturologiyaning fanlar sistemasidagi maqomi va uning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan bog‘liqligi. Academic Research in Educational Sciences, 1(2), 221-231.

17. Shofqorov, A. M., & Shayxislamov, N. (2020). Ona tili ta'limda lingivistik mashqlarning o'rni. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).
18. Шайхисламов, Н. (2020). Изучение языка в социолингвистике и культура речи. *Экономика и социум*, 10(77).
19. Махмудов, Қ. Ш., Санакулов, З. И., Шайхисламов, Н. З., & Қаршиева, Д. Э. (2020). Педагогик таълимда "Кластер". *Science and Education*, 1(7), 587-593.
20. "Science and Education" Scientific Journal November 2020 / Volume 1 Special Issue 3 [www.openscience.uz](http://www.openscience.uz) 25
21. Bayzakov, J. A. (2020). Pedagogik texnologiyalardan foydalanib ta'limberishda o'qituvchiga qo'yilgan talablar. *Science and Education*, 1(7), 208-214.
22. Saidov, O'. R. (2020). Ona tilidan dars mashg'ulotlarini tashkil etishda ta'lim texnologiyalarini joriy etishning dolzarbligi. *Science and Education*, 1(7), 342-355.
23. Носирова, Т. (2019). Таълими эҳодиёти адибони маорифпарвар вадаврай бедории миллий дар мактабҳои таълими ҳамагонӣ. *Адабий алоқалар вамаданиятларнинг ўзаро таъсири*, 271-273.
24. Носирова, Т. (2019). Миллий кадриятлар ва таълим-тарбия жараёни. *Барқарор ривожланишда узлуксиз таълим: муаммо ва ечимлар*, 327-329.
25. Носирова, Т. Х. (2020). Воспитание как метод педагогической деятельности. *Innovative Achievements in Science*, 436-438.
26. Xolbekov, S. B. (2020). Adabiyot darslarida interfaol metodlardanfoydalanish samarasi. *Science and Education*, 1(5).
27. Jumaniyozov, S. A. (2020). Abdulla Qahhor hikoyalarini o'rganishdaininginnovatsion metodlar. *Science and Education*, 1(5).
28. Matkasimova, D. B. K., & Makhmudov, K. S. U. (2020). Importance of Interactive Methods in the English Language Grammar Teaching. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).
29. Шайхисламов, Н. (2020). Студенттердің ана тілі мен әдебиеті пәнінменгерудің педагогикалық негіздері. *Образование и наука в XXI веке*, 1(6), 421-426.
30. Шайхисламов, Н. (2020). Социолингвистические аспекты и стилистика языка. *Ilm-fan taraqqiyotida zamonaviy metodlarning qo'llanishi*, 796-799.
31. Makhmudov, K. (2020). Innovative Cluster of Pedagogical Education: Common Goals and Specific Interests. *Academic Research in Educational Sciences*, 32. [WWW.ziyonet](http://WWW.ziyonet)
32. [WWW.ziyonet](http://WWW.ziyonet)

## КАНАЛЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ АСОСИДА ТИЗИМ ЗАИФЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИНИ ЛОЙИҲАЛАШ

**Турдиматов Мамиржон Мирзаевич**

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Фарғона филиали “Ахборот хавфсизлиги” кафедраси доценти*

**Мўминова Мастура Махмуджон қизи**

*Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Фарғона филиали “Ахборот хавфсизлиги” кафедраси ассистенти*

**Қодиралиев Рохатали Иномжон ўғли**

*Муҳаммад аль-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети Фарғона филиали “Компьютер инжиниринг” йўналиши талабаси*

**Аннотация.** Мақолада алоқа каналлари орқали узатилаётган маълумотларни хавфсизлигига бўлаётган таҳдидлар ва улардан химояланиш усуллари тақриф этилган. Шунингдек алоқа каналларининг хусусиятлари, одатий хавфсизлик стандартлари, уларнинг заиф томонларини аниқлаш ва бартараф этиш усуллари лойиҳалаштирилган.

**Калит сўзлар:** ахборот хавфсизлиги, канал хавфсизлиги, таҳдид, таҳдид қилиш, тизим, лойиҳалаш, шифрлаш протоколлари, химоя қилиш, шифрлаш, симсиз алоқа.

## ПРОЕКТИРОВАНИЕ МЕТОДОВ ОЦЕНКИ УЯЗВИМОСТИ СИСТЕМ НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА КАНАЛОВ

**Аннотация.** В статье предлагаются угрозы безопасности данных, передаваемых по каналам связи, и способы защиты от них. Также разработаны характеристики каналов связи, общие стандарты безопасности, методы выявления и устранения их слабых мест.

**Ключевые слова:** информационная безопасность, безопасность каналов, угроза, система, конструкция, протоколы шифрования, защита, шифрование, беспроводная связь.

## DESIGNING METHODS FOR ASSESSING SYSTEM VULNERABILITY BASED ON CHANNEL ANALYSIS

**Annotation.** *The article proposes threats to the security of data transmitted over communication channels, and ways to protect against them. Also developed are the characteristics of communication channels, common security standards, methods for identifying and eliminating their weaknesses.*

**Key words:** *information security, channel security, threat, system, design, encryption protocols, protection, encryption, wireless communication.*

### КИРИШ

Маълумки, бугунги ривожланаётган ахборот муҳитида алоқа каналлари стандарт каналлар учун рақобатни кучайтирмоқда, шунинг учун симсиз тармоқлардан кенг миқёсда фойдаланиш иқтисодий тежамкорликка олиб келади. Умуман олганда тармоқ технологиялардан фойдаланиш, яъни кабел ўтказиш сарф харажати қиммат ёки имконсиз бўлган жойларда ажойиб алтернатив ҳисобланади. Бизнинг вазифамиз ушбу алоқа каналларига бўлаётган хавф-хатарларни бартараф этиш йўлларини излаб топишдан иборат. Бу муаммо бугунги кунда барча мутахассислар учун долзарблигича қолмоқда. Ахборот хавфсизлигининг амалий муаммоларини ҳал қилишда унинг заифлигини миқдорий баҳолаш катта аҳамиятга эга. Ахборот хавфсизлиги соҳасидаги бир қатор мутахассислар тасодифий ва қасддан таҳдидлардан ҳимоя қилиш усуллари ва воситаларини яратмоқдалар [1-4].

### ТАДҚИҚОТ МАТЕРИАЛЛАРИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ

Тасодифий таҳдидлардан ҳимоя қилиш учун автоматлаштирилган тизимлар ишлашининг ишончлилигини ошириш воситалари, маълумотларнинг захиравий нусхасини ошириш воситаларидан фойдаланиш катта аҳамиятга эга. Шунинг учун ҳар қандай ҳолатда ҳам маълумотларни захиралаш усуллари доимий равишда қўллаш албатта фойдали ҳисобланади.

Қасддан қилинаётган таҳдидлардан ҳимояланишни лойиҳалашда рўйхат ва тасниф маълум бир тизимда ҳимоя қилиниши керак бўлган маълумотларнинг табиати, жойлашуви, аҳамияти ва амал қилиш муддати билан белгиланади. Ушбу маълумотларнинг табиати ва аҳамиятига кўра, потенциал босқинчининг кутилаётган малакаси ва хатти-ҳаракати танланади. Таҳдид ахборотга рухсатсиз кириш орқали амалга оширилади, деб ишонилади. Лойиҳалаштирилган тизимда бузғунчи моделига мувофиқ, ҳимояланган маълумотларга рухсатсиз киришнинг

мумкин бўлган каналларининг турлари ва сони аниқланади. Ушбу каналлар техник жиҳатдан бошқариладиган ва бошқарилмайдиганларга бўлинади[5]. Масалан, терминал клавиатурасидан тизимга кириш махсус дастур орқали бошқарилиши мумкин, лекин географик жиҳатдан тақсимланган тизимнинг алоқа каналлари ҳар доим ҳам бошқарилмайди. Каналларни таҳлил қилиш асосида ушбу каналларни блокировка қилиш учун тайёр ёки янги ҳимоя воситалари танланади.

Ягона доимий ҳимоя механизмини яратиш учун махсус ажратилган марказлаштирилган бошқарув воситалари ёрдамида ҳимоя воситалари ягона автоматлаштирилган ахборот хавфсизлиги тизимига бирлаштирилиб, унинг таркиби ва қурилиш тамойилларини таҳлил қилиб, уни четлаб ўтишнинг мумкин бўлган усуллари текширилади. Агар шундай ҳолатлар аниқланса

ахборотни ҳимоя қилишнинг ёпиқ виртуал қобиғини қуришга тўғри келади[3]. Ҳимоя даражаси ахборотнинг оқиб чиқиши каналларининг тўлиқ қопланиши ва ҳимоя воситаларини четлаб ўтишнинг мумкин бўлган усуллари, шунингдек, ҳимоянинг мустаҳкамлиги билан белгиланади. Бузғунчининг хатти-ҳаракатларининг қабул қилинган моделига кўра, ҳимоя қилишнинг мустаҳкамлиги ушбу қобикни ташкил этувчи воситалар кучининг энг паст қиймати билан баҳоланади.

Агар тажовузкор томонидан уни енгиб ўтиш учун кутилган вақт ҳимояланган объектнинг ишлаш муддатидан ёки ушбу тўсиқни четлаб ўтиш йўллари бўлмаса, киришни аниқлаш ва блокировка қилиш вақтидан узоқроқ бўлса, ҳимоя тўсиғининг мустаҳкамлиги етарли деб ҳисобланади.

Ҳимоя қобиғи бир хил принцип бўйича қурилган ва бир хил турдаги (техник назорат остида ёки назоратсиз) каналларига жойлаштирилган ҳимоя воситаларидан иборат бўлиши зарур. Бошқариладиган каналларда бузғунчи қўлга тушиш хавфидан қулай вақтда иш юритиши мумкин. Иккинчи ҳолатда ҳимоя кучи анча юқори бўлиши керак. Шунинг учун, автоматлаштирилган тизимда алоҳида виртуал ҳимоя қобикларига эга бўлиш тавсия этилади[3].

Бузғунчи томонидан кутилиши мумкин бўлган таҳдидларлар мисоли сифатида симсиз тармоққа қандай зарар этказиши мумкин?

Биринчидан, у Wi-Fi кириш қурилмаларига ҳужум қилиш орқали бутун тармоқни ўчириб қўйиши ёки эгаллаб олиши мумкин. Бундай ҳолда, барча уяли алоқа ходимлари тармоқ ресурслари билан ишлай олмайдилар, бу эса ишламай қолиши сабабли йўқотишларга олиб келиши мумкин.

Иккинчидан, у мавжуд корпоратив серверлардан маълумотларни ўғирлашга уриниши мумкин. Бу ҳолатда маълумотларни ўғирлаш орқали тармоққа катта зарар келтиради.



Учинчидан, у Man-In-The Middle хужумини амалга ошириши мумкин. Бундай ҳолда, тажовузкор ўзи бошқарадиган ва кўрадиган қурилма орқали барча трафикни ўтказиши ва агар керак бўлса, ўтаётган трафикни ўзгартириши мумкин.

Тўртинчидан, у шифрлаш калитларини ўғирлаши ва тармоқ орқали узатиладиган барча трафикни жимгина ўқиши мумкин.

Агар олдинги учта усул у ёки бу тарзда тажовузкордан симсиз тармоқ билан ишлаш жараёнида ҳар қандай ҳаракатларни бажаришни талаб қилса, у тармоқни ўчириш учун трафик ҳосил қиладими, маълумотларни ўғирлайди ёки ўзгартирадими, у ҳолда у керакли шифрлаш калитларини ўғирлагандан кейин бутунлай эътиборга олинмаган ўқиш трафигига эга бўлади. Бу вариант энг хавфли ҳисобланади.

Демак, химоя усулларини тавсифлаш учун биз қуйида симсиз тармоқнинг ишлаш принципини ва шунинг учун унинг заиф томонларини тавсифлаймиз. Радио спектрининг оммавий табиати туфайли симли тармоқларда мавжуд бўлмаган ноёб хавфсизлик муаммолари мавжуд. Симсиз тармоқ опцияларининг аксарияти камида иккита мажбурий компонентдан қурилган: симсиз уланиш нуқтаси ва симсиз тармоқ фойдаланувчиси - Hot-spot (фойдаланувчилар бири-бири билан бевосита мулоқот қиладиган махсус режим ҳам мавжуд). Симли тармоқдан фарқли ўлароқ, уланиш учун сиз ишлайдиган тармоқ ускунасига тўғридан-тўғри жисмоний киришга эга бўлишингиз шарт эмас, лекин радиодан фойдаланиш имконияти доирасида бўлганингизда кириш нуқтаси билан мантиқий алоқани (ассоциатсияни) ўрнатиш кифоя.

Жисмоний принципларга кўра, ахборот оқиш каналларини қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин [6]:

- акустик (шу жумладан акустик трансдусерлар). Овоз тўлқинларининг ҳавода тарқалиши ёки бошқа муҳитда эластик тебранишлар билан боғлиқ;
- электромагнит (шу жумладан магнит ва электр);
- визуал-оптик (кузатиш, суратга олиш). Бунда ахборотни ажратиб кўрсатиш воситаси сифатида фото ва видеокамералар ва бошқаларни кўриш мумкин;
- моддий (қоғоз, фотосурат, магнит ташувчилар, чиқиндилар ва бошқалар);
- маълумот. ТСС элементларига кириш, ахборот ташувчилар, энг кўп кириш ва чиқиш маълумотлари, дастурий таъминот, шунингдек, алоқа линияларига уланиш билан боғлиқ.

Амалда оқиш каналлари ҳам техник (акустик, визуал-оптик ва электромагнит) ва ахборот каналларига бўлинади. Хавфсизлик тизимини қуришда нимани химоя қилиш кераклигини ва кимдан (ёки нимадан) химоя қилиш кераклигини аниқлаш жуда муҳимдир. Ҳимоя қилиниши керак бўлган

маълумотларнинг таърифи юқорида келтирилган. Сиз ўзингизни бузғунчининг ҳаракатлари орқали намоён бўладиган турли таҳдидлардан ҳимоя қилишингиз керак. Тизимда заифликлар, яъни ахборот хавфсизлигининг бузилишига олиб келиши мумкин бўлган тизим хусусиятлари мавжуд бўлса, таҳдидлар пайдо бўлади.

Таҳдидлар рўйхатини аниқлаш ва бузғунчи моделини яратиш ҳимоя тизимини лойиҳалашда мажбурий қадамдир. Ҳар бир тизим учун хавфсизликка эҳтимолий таҳдидлар рўйхати, шунингдек, эҳтимолий босқинчининг хусусиятлари индивидуалдир, шунинг учун рўйхат ва модел норасмий бўлиши керак. Ахборот хавфсизлиги тахмин қилинаётган таҳдидлар ва тажовузкорнинг сифатлари ҳақиқий вазиятга мос келган тақдирдагина таъминланади. Тизимда заифлик мавжуд бўлса, потенциал хавфсизлик таҳдиди ҳужум шаклида амалга оширилиши мумкин. Ҳужумлар одатда мақсадлар, мотивлар, фойдаланилган механизм, тизим архитектурасидаги ўрни ва тажовузкорнинг жойлашувига қараб таснифланади.

Муваффақиятли ҳужумларнинг олдини олиш учун тизимнинг заиф томонларини қидириш ва таҳлил қилиш керак. Заифликлар пайдо бўлиш манбасига, хавф даражасига, тарқалиш даражасига, тизимнинг ҳимояси қуйи тизимлари билан боғлиқлигига қараб фарқланади. Заифликни таҳлил қилиш - ахборотлаштириш объектини сертификатлашнинг мажбурий шarti хисобланади. Янги заифликлар пайдо бўлиши эҳтимоли туфайли уларни аллақачон сертификатланган объектда даврий таҳлил қилиш талаб қилинади. Ҳозирги вақтга келиб юзлаб элементларни ўз ичига олган автоматлашган тизмларда ахборот хавфсизлигига таҳдидларнинг етарлича кенг рўйхати кўриб чиқилмоқда. Жумладан, мумкин бўлган таҳдидларни аниқлашдан ташқари, бу таҳдидларни бир қатор белгилар бўйича таснифлаш асосида таҳлил қилиш мумкин. Таснифлаш хусусиятларининг ҳар бири ҳимоя тизимида қўйиладиган умумлаштирилган талаблардан бирини акс эттиради. Шу билан бирга, таснифнинг ҳар бир атрибутига мос келадиган таҳдидлар ушбу атрибутда акс эттирилган талабни батафсил баён қилиш имконини беради.

Ахборот хавфсизлиги таҳдидларини таснифлаш зарурати замонавий автоматлаштирилган ахборотни қайта ишлаш воситаларининг архитектураси билан боғлиқ. Унинг ўзига хослиги шундаки, тўпланган, сақланадиган ва қайта ишланган маълумотлар жуда кўп сонли омилларнинг тасодифий таъсирига дучор бўлади, бунинг натижасида таҳдидларнинг тўлиқ тўпламини тасвирлаб бўлмайди. Ҳимояланган тизим учун таҳдидларнинг тўлиқ рўйхати эмас, балки

бир қатор асосий хусусиятлар билан белгиланадиган таҳдидлар синфлари рўйхати белгиланади[3].

## ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ

Олинган натижаларга асосан таҳдидлар рўйхатини аниқлаш ва бузғунчи моделини яратиш ҳимоя тизимини лойиҳалашда мажбурий қадам ҳисобланади. Ҳар бир тизим учун хавфсизликка эҳтимолий таҳдидлар рўйхати, шунингдек, эҳтимолий боққинчининг хусусиятлари киради. Шунинг учун рўйхат ва модел норасмий бўлиши керак. Ахборот хавфсизлиги тахмин қилинаётган таҳдидлар ва тажовузкорнинг сифатлари ҳақиқий вазиятга мос келган тақдирдагина таъминланади. Тизимда заифлик мавжуд бўлса, потенциал хавфсизлик таҳдиди ҳужум шаклида амалга оширилиши мумкин.

Ахборот хавфсизлиги таҳдидларини қуйидагича таснифлашимиз мумкин:

### 1. Ходиса содир бўлиш хусусиятига кўра.

1.1. АЕС ва унинг таркибий қисмларига объектив жисмоний жараёнлар ёки инсон назорати остида бўлмаган табиий офатлар таъсиридан келиб чиқадиган табиий таҳдидлар.

1.2. Инсон фаолияти натижасида ахборот хавфсизлигига сунъий таҳдидлар.

### 2. Намойишнинг ниятлилик даражасига кўра.

2.1. Тасодифий ҳаракат таҳдидлари ёки инсон хатоси ёки бепарволиги туфайли юзага келган таҳдидлар. Масалан, тизимнинг дастурий таъминоти ва аппаратидаги хатоларнинг намоён бўлиши, номақбул фойдаланиш, конфигурация ёки хавфсизлик ходимлари томонидан ҳимояни ноқонуний равишда ўчириб қўйиш, алоқа каналларига қасддан шикаст етказиш.

2.2. Қасддан ҳаракат қилиш таҳдидлари. Масалан, тажовузкорнинг маълумотларни ўғирлаш ҳаракатларидан келиб чиқадиган таҳдидлар.

### 3. Таҳдидларнинг бевосита манбасига кўра.

3.1. Тўғридан-тўғри манбаси табиий муҳит бўлган таҳдидлар (табиий офатлар, магнит бўронлари, радиоактив нурланиш ва бошқалар).

3.2. Тўғридан-тўғри манбаи шахс бўлган таҳдидлар. Масалан, киришни бошқариш атрибутларини ошкор қилиш, узатиш ёки йўқотиш (пароллар, шифрлаш калитлари, идентификация карталари, рухсатномалар ва бошқалар).

3.3. Тўғридан-тўғри манбаси рухсат этилган дастурий таъминот ва аппарат воситалари бўлган таҳдидлар. Масалан, агар нотўғри ишлатилса, тизим иш фаолиятини йўқотиши (қотиб қолиши ёки айланиши) ёки тизимда қайтариб

бўлмайдиган ўзгаришлар (сақлаш воситаларини форматлаш ёки қайта тузиш, маълумотларни ўчириш ва ҳ.к.) олиб келиши мумкин бўлган технологик дастурларни ишга тушириш.

3.4. Тўғридан-тўғри манбага рухсатсиз кириш дастурий таъминот ва аппарат таъминоти бўлган таҳдидлар. Масалан, ёзиб олинмаган дастурларни (ўйин, ўқув, технологик ва қоидабузарнинг ўз хизмат вазифаларини бажариши учун зарур бўлмаган бошқа) ноқонуний жорий этиш ва улардан фойдаланиш, кейинчалик ресурсларни асоссиз равишда сарфлаш (процессор юкланиши, оператив хотира ва ташқи хотирани тортиб олиш), компютерни ҳалокатли хусусиятларга эга вируслар билан юктириш.

4. Таҳдидлар манбаи позициясига кўра.

4.1. Манба АЕС жойлашган ҳудуднинг (бинонинг) назорат қилинадиган зонасидан ташқарида бўлган таҳдидлар. Масалан, асбоблар ва алоқа линияларидан сохта электромагнит нурланишни ушлаб туриш, алоқа каналлари орқали узатиладиган маълумотларни ушлаб туриш; масофавий фото ва видео суратга олиш.

4.2 Манба АЕС жойлашган ҳудуднинг (бинонинг) назорат қилинадиган зонасида жойлашган таҳдидлар. Масалан, саноат чиқиндиларини ўғирлаш (босма нашрлар, ёзувлар, фойдаланишдан чиқарилган сақлаш воситалари ва бошқалар), тинглаш мосламаларидан фойдаланиш.

4.3. Манба АС периферик қурилмаларига (терминалларига) кириш имконига эга бўлган таҳдидлар.

4.4. Манба АСда жойлашган таҳдидлар. Масалан, АС ресурсларидан нотўғри фойдаланиш.

5. АС фаолиятига боғлиқлик даражасига кўра.

5.1. АС фаолиятидан қатъий назар ўзини намоён қилиши мумкин бўлган таҳдидлар. Масалан, ахборотни крипто-ҳимоя қилиш шифрларини очиш, ахборот ташувчиларни ўғирлаш.

5.2. Фақат автоматлаштирилган маълумотларни қайта ишлаш жараёнида пайдо бўлиши мумкин бўлган таҳдидлар. Масалан, дастурий таъминот вирусларини бажариш ва тарқатиш таҳдидлари.

6. АС га таъсир қилиш даражасига кўра.

6.1. Амалга оширилганда АС тузилиши ва мазмунида ҳеч нарсани ўзгартирмайдиган пассив таҳдидлар. Масалан, махфий маълумотларни нусхалаш таҳдиди.

## МУҲОКАМА

Ахборот технологиялари ривожланишининг ҳозирги босқичида қуйи тизимлар ёки химоя функциялари ахборотни қайта ишлаш комплексларининг ажралмас қисми ҳисобланади. Маълумот "соф шаклда" тақдим этилмайди, унга йўлда ҳеч бўлмаганда қандайдир химоя тизими мавжуд ва шунинг учун, масалан, махфийликни бузиш билан таҳдид қилиш учун тажовузкор ушбу тизимни енгиб ўтиши керак. Ҳимояни енгиб ўтиш ҳам таҳдид бўлганлиги сабабли, химояланган тизимлар учун биз унинг тўртинчи турини - химоя тизимини ўз ичига олган АС параметрларини ошкор қилиш таҳдидини кўриб чиқамиз.

Амалда ҳар қандай давом этаётган ҳодисадан олдин тадқиқот босқичи бўлиб, бу босқичда тизимнинг асосий параметрлари, унинг характеристикалари ва бошқалар аниқланади. Иккинчиси учун тизим параметрларини ўрганиш таҳдиди амалга оширилган деб ҳисобланади.

Таҳдидларни амалга оширишнинг асосий йўналишлари ва усулларини амалга оширишнинг асосий йўналишлари қуйидагилардан иборат[4]:

- кириш объектларига тўғридан-тўғри кириш;
- химоя воситаларини четлаб ўтган ҳолда кириш объектларига киришни амалга оширадиган дастурий ва техник воситаларни яратиш;
- ахборот хавфсизлигига таҳдидларни амалга оширишга имкон берувчи химоя воситаларини ўзгартириш;
- АСнинг мўлжалланган тузилиши ва функцияларини бузувчи дастурий таъминот ёки техник механизмларни АС аппаратига киритиш.

АСнинг ахборот хавфсизлигига таҳдидларни амалга оширишнинг асосий усуллари қуйидагиларни ўз ичига олади [7,8]:

- тажовузкор томонидан ахборот ташувчиларнинг тури ва параметрларини аниқлаш;
- тажовузкор томонидан дастурий-аппарат муҳити, ҳисоблаш турлари ва параметрлари ҳақидаги маълумотларни олиш технологияси, операцион тизим тури ва версияси, амалий дастурий таъминот таркиби;
- ҳужумчи томонидан АС бажарадиган функциялар ҳақида батафсил маълумот олиш;
- тажовузкор томонидан қўлланиладиган химоя тизимлари тўғрисидаги маълумотларни олиш;
- ахборотни тақдим этиш усулини аниқлаш;
- бузғунчи томонидан АСда қайта ишланган маълумотлар мазмунини сифат даражасида аниқлаш (АС мониторинги ва хабарларнинг шифрини очиш учун фойдаланилади);

- махфий маълумотларни ўз ичига олган машина воситаларини ўғирлаш (нусхалаш);
- сохта электромагнит нурланиш ва пикапларни ушлаб туриш учун махсус техник воситалардан фойдаланиш;
- компьютер техникаси ва ахборот ташувчиларни йўқ қилиш;
- махсус воситалар, усуллар, усуллардан фойдаланган ҳолда ҳимоя тизимларини четлаб ўтган ёки четлаб ўтган ҳолда АС ресурсларига фойдаланувчи рухсатсиз кириши;
- фойдаланувчи ваколатларини рухсатсиз ошириб юбориш;
- дастурий таъминотни рухсатсиз нусхалаш;
- алоқа каналлари орқали узатиладиган маълумотларни ушлаш;
- визуал кузатиш;
- ахборот тақдимотини ошкор қилиш (маълумотлар шифрини очиш);
- ахборот мазмунини семантик даражада очиш;
- машинани сақлаш воситаларини йўқ қилиш;
- фойдаланувчи томонидан АУ нинг дастурий ва аппарат қисмларига ва қайта ишланган маълумотларга рухсатсиз ўзгартиришлар киритиш;
- ностандарт аппарат ёки дастурий таъминотни ўрнатиш ва улардан фойдаланиш;
- дастурий вируслар билан зарарланиш.

Тадқиқот натижаси сифатида оптимал техник воситаларни танлаш ва уларни ўз ўрнида тадбиқ этиш катта аҳамиятга эга. АС параметрларини ошкор қилиш таҳдидини билвосита деб ҳисоблаш мумкин. Уни амалга оширишнинг оқибатлари қайта ишланган маълумотларга ҳеч қандай зарар етказмайди, балки асосий ёки дарҳол амалга оширишга имкон беради. Ушбу турдаги таҳдиднинг жорий этилиши бизга илмий ва услубий нуқтаи назардан ҳимояланган ахборот тизимлари ва очиқ тизимлар ўртасидаги фарқларни тавсифлаш имконини беради.

## ХУЛОСА

Кўриб турганингиздек, замонавий ҳимоя тизимлари ҳар бир ҳолатда қўшимча эътибор талаб қилади. Оддий фойдаланувчи учун, энг осон йўли, учинчи шахсларнинг симсиз тармоққа кириш қобилиятини жисмоний чеклашдир. Замонавий шифрлаш протоколларини оптималлаштиришнинг кўплаб усуллари мавжуд, ҳеч бўлмаганда замонавий WPA протоколларига ўтишини тавсия қиламиз.

## АДАБИЁТЛАР

1. Бирюков, А.А. Информационная безопасность: защита и нападение. / А.А. Бирюков. - М.: ДМК Пресс, 2013. - 474 с.
2. ISO/IEC 27002:2013, Information technology- Security Techniques - Code of practice for information security controls.
3. Турдиматов М.М., Мирзаев Ж.Б. Ахборотни химоялашда ёпиқ виртуал қобилини лойиҳалашни математик модели. JOURNAL OF SCIENCE AND INNOVATION. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7178488>. 15 oktabr 2022 yil. 430-436 бет.
4. Turdimatov M.M., Tillaboev M. Qo‘riqlanadigan zonalarda xavf-xatarlarni baholash va bartaraf etish usullari. Международный журнал “Образование и наука в XXI-веке” Ноябрь, часть 1, 2021 г. 138-142 стр.
5. O‘z Dst ISO/IEC 27005:2013 «Информационные технологии. Методы обеспечения безопасности. Управления рисками информационной безопасности».
6. ISO/IEC 27002:2013, Information technology — Security Techniques — Code of practice for information security controls.
7. Баранова Е.К., Бабаш А.В. «Информационная безопасность и защита информации». Учебное пособие. М.:РИОР:ИНФРА-М, 2019.336с.
8. [www.intuit.ru](http://www.intuit.ru) – Основы информационной безопасности.

## XX ASRNING 40-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONSSR-DA PAXTA YAKKAHOKIMLIGINING AHOLI TURMUSH DARAJASIGA TA‘SIRI

**Tuxtayev Izzatillo Ibodullo o‘g‘li**

O‘zMU talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asrning 40-80 yillarida O‘zbekistonSSR da paxta yakkaxokimligining aholi turmush darajasiga ta‘siri, xususan aholi salomatligiga yetkazilgan zarar, turli xil kimyoviy vositalarning ishlatilishi, turli xil kasalliklarning kelib chiqishi, va bu ishlarni oldini olish bo‘yicha qilingan ishlar, tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Paxtachilik, komunistik, sotsialistik, sanoatning bir tomonlama rivojlanishi, Orol fojiasi.

### THE INFLUENCE OF THE COTTON MONOLOGY ON THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION IN THE UZBEKISTAN SSR IN THE 40-80S OF THE 20TH CENTURY

**Abstract.** In this article, in the 40s-80s of the 20th century, the impact of the cotton monopoly on the living standards of the population in the Uzbek SSR, in particular, the damage caused to the health of the population, the use of various chemical agents, the origin of various diseases, and the work done to prevent these cases, is analyzed.

**Key words.** Cotton farming, communist, socialist, one-sided development of industry, tragedy of the island.

#### KIRISH

Paxtachilikda yuz bergan holatlar bevosita aholi turmush darajasiga ta‘sir etmay qolmadi. Uzoq yillar davomida qishloq xo‘jaligi hisobiga sanoatni rivojlantirish strategiyasi 1970 yillarga kelib yanada kuchaytirildi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari esa tashib ketildi. Ayniqsa, markazning paxta yakkahokimligini mustahkamlash uchun bir taraf lama olib borgan siyosati dehqonlarni xonavayron qildi.

Sovet hukumatining dastlabki kunlaridan qishloq xo‘jaligini «sotsialistik asosda qayta qurish» shiori «kommunizmga jadal yurish» bilan almashtirildi. Keyinroq «kommunistik jamiyat qurilishini jadallashtirish» va «rivojlangan sotsializm» shiorlari ilgari surildi. Bu shiorlarni amalga oshirish borasida kommunistik mafkura betinim ishlab, millionlab tonna xom ashyo yaratuvchisi dehqonning moddiy farovonligi,



ijtimoiy-madaniy turmush saviyasi ko'tarilmadi, aksincha qishloq aholisini talashga qaratilgan soliq to'lash siyosati qo'llanilib, sut, go'sht mahsulotlari uchun maxsus soliq joriy qilindi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

XX-asr 60-yillarning o'rtalaridan boshlab qishloq xo'jaligini qayta tiklash uchun qabul qilingan tadbirlar qog'ozda qolib ketdi. 1970-yildan boshlab ishlab chiqarish ko'rsatkichi pasayib, 9-besh yillikda ijtimoiy mahsulotlarning umumiy miqdori 7,2 foizga, 10-besh yillikda 5,7 foizga, 11-besh yillikda esa 3,6 foizga tushib qoldi. Milliy daromad ko'rsatkichi nisbatan, 6,8, 5,7, 3,3 foizdan iborat bo'ldi. Shuningdek mehnat unumdorligi ham yildan-yilga pasayib, 11-besh yillikda 0,7 foiz bo'ldi.

1970-yillar o'rtalariga kelib kapital mablag'larning asosiy qismi yangi yerlarni o'zlashtirishga sarflandi. Xo'jaliklararo integratsiya bahonasida «yirik jamoa xo'jaliklari» barpo etilib, qishloq xo'jaligini «agrar fabrika»ga aylantirishga katta miqdordagi mablag'lar jalb etildi. Natijada ijtimoiy sohaga ajratilgan kapital mablag' kamaydi yoki 1966–1970 yillardagi 21,9 foizdan, 1970–1980 yillarda 19,4 foizga tushib qoldi.

«Rivojlangan sotsializm» sharoitida sanoat mahsulotlarining narxi 60 foizga, qishloq mahsulotlari esa 3 barobarga sanoat mahsuloti narxidan kam oshirildi. Oqibatda, davlat ulgurji, chakana xarid narxlari nomuvofiqligi vujudga kelib, ular o'rtasidagi birlik va o'zaro aloqadorlik buzildi.

Qishloq xo'jalik mashina va ehtiyot qismlari, yoqilg'i va mineral o'g'itlarga baholarning xarid narxlari muttasil oshirib borildi. To'g'ri, 1960–1980 yillar ichida sovet hukumati paxta xom ashyosi xarid narxlarini o'zgartirish buyicha 22 marta qaror qabul qilgan. Paxtachilikda muttasil ishlab chiqarish xarajatlari ko'payib bordi. Yerni shudgorlash, chigitni ekish, mavsumiy agrotexnika, etishtirilgan hosilni yig'ib-terib olish, ortish-tushirish, paxta tayyorlash zavodi va punktlariga topshirish jarayonlari ishlab chiqarish xarajatlari hisoblanadi. Afsuski, bu xarajatlarni hisob-kitob qilish, tahlil etish va nazorat qilish yalpi hosilni ko'paytirish bahonasida e'tibordan chetda qolib ketdi. Natijada, qishloq xo'jaligida elektr energiyasi, yoqilg'imoylash materiallari, mashina va agregatlar, mehnat resurslari, tayyor mahsulot va moliyaviy imkoniyatlar o'z holicha ishlatildi. Chunonchi, 9,6 foiz moddiy xarajatlar xom ashyoning qariyb 95 foiz tannarxidan iborat bo'ldi.

## NATIJALAR

Paxtachilikda pirovard mahsulot ishlab chiqarish faqat «yalpi» mahsulot etishtirishga qaratilgan edi. Shu munosabat bilan xo'jaliklarning o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy rag'batlantirish tizimini joriy etishga ruxsat

berilmadi. Ayni paytda bu holat qishloq xo'jaligi tarmoqlarida nomutanosiblikni keltirib chiqardi. Ikkinchidan, xomashyodan olinadigan paxta tolasi yoki lint, kunjara hamda qayta ishlashdagi barcha mahsulotlardan keladigan daromadlar dehqon qo'liga borib tegmadi. Uchinchidan, paxtakorlar va paxtani qayta ishlovchilar o'rtasida tolaning chiqishiga qarab belgilanadigan hisob-kitoblar yo'lga qo'yilmadi. To'rtinchidan, asosan xom ashyoni ko'paytirishga qaratilgan siyosatga muvofiq paxta tolasiga qo'yilayotgan narxlarni markaz belgilab, xorijga sotib katta foyda oldi. Beshinchidan, paxta moyi olishda ham bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yildi.

Jumladan, chigitning moylik darajasi va miqdori yildan-yilga kamayib bordi. chunki paxtachilikdagi qo'shib yozish va ko'zbo'yamachiliklar natijasida 19 yog'-moy korxonalarini uchun zarur bo'lgan 3 million tonna chigit o'rniga 3 million tonna yoki 83 % chigit bilan ta'minlandi.

1970–1985 yillarda ichida mineral o'g'it, texnika, yoqilg'i mahsulotlarining narxi 1,6 barobarga oshgan bo'lsa, paxta xom ashyosi narxlari esa faqat 12 foizga ko'paydi. Shu bois jamoa xo'jaliklarda tannarx 40 dan 24 foizga, davlat xo'jaliklarida esa 28 dan 7 foizga tushib ketdi. Volyuntaristik va sub'ektivistik ruhda qabul qilingan qarorlardan biri bu 1960 yillar boshida aholi ixtiyoridagi chorva mollarining sonini chegaralab qo'yilishidir. Bu qarorga muvofiq har bir oilada to'rtta mayda tuyoqli va bir bosh qoramol hamda ma'lum hisobdagi parranda boqish belgilandi. Shahar va sanoat joylarida esa molning har qanday turini boqish man qilindi. Chegaralashdan norozi bo'lgan ko'pgina oilalar bor mollarini ham sotishdi yoki yo'q qilishdi. Jamoa xo'jaliklaridagi ot, tuya va eshak fermalari tugatildi, shaxsiy xo'jaliklarda ot va tualardan foydalanish taqiqlandi.

1961–1975 yillar otlarning soni 109,5 mingtaga kamaydi. Bu noqonuniy mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan bo'lsa, endi iste'molchilar safiga qo'shildilar. Bundan tashqari, jamoa xo'jaliklardagi qo'y va echkilar mutlaqo kamaydi.

Samarqand viloyatining Narpay tumanidagi «Oktyabr» jamoa xo'jaligida 1958 yildagi 52 ming 306 ta qo'y va echkilardan 1963 yilda 26,6 mingtasi qoldi. Xo'jalikda 1,5–2 tonna go'sht etishtirishga chek qo'yildi. Shuningdek har bir xonadonlarga qo'zilatish mavsumida qorako'l terisi olingan yosh qo'zichoq go'shtlarni tarqatish ham to'xtatib qo'yildi.

Paxtachilikni yanada rivojlantirish maqsadida 1972 yil 30 mayda O'zbekiston hukumati qabul qilgan «Respublika jamoa xo'jaliklarida kapital qurilishni yaxshilash va kichik qishloq tizimini tugatish tadbirlari to'g'risida»gi 587 qaroriga muvofiq, 1973–1975 yillar ichida 250 ming qishloq oilasini o'z ichiga olgan uch mingdan ortiq kichik qishloqlar yo'q qilindi.

1975-yil iyun oyidan boshlab, uy-joy qurish shirkatlari tuzilib, o'zbek qishloqlarining buzilishiga olib keldi. 1980 yil o'rtalariga kelib, shaxsiy tomorqaning

o'rtacha hajmi me'yordagi 13 sotixdan avval 10, keyinchalik 8 va 4 sotixga tushirildi. Shu bois qishloq aholisi bir bosh sigirni ham boqishga imkon topa olmagan. Mol boqish uchun tomorqasiga aksariyat xonadonlarda makkajo'xori va beda ekilgan. Soyasi tushmasin, deb o'rik, olma va boshqa mevali daraxtlar ham kam ekilgan.

O'zbekistonda aholi jon boshiga ho'l meva va sabzovot iste'moli 170–173 kg, sobiq Ittifoqda esa 260–270 kg ga to'g'ri kelgan. Darhaqiqat, shaxsiy yordamchi xo'jaliklar O'zbekiston aholisining iste'molidagi 61 foiz urug'li, 10 foiz rezavor mevalarni, 17 foiz yong'oqni, 80 subtropik va 2,5 foiz sitrusli mahsulotlarni etkazib bergan. Bundan tashqari, aholi jon boshiga 30 kg go'shtning 20,7 kg, 187 kg sut mahsulotlaridan 132 kg yoki go'shtning 69, sutning 70, tuxumning 33 foizini etkazib bergan. Ammo qishloq oilasining beshdan bir qismida chorva moli bo'lmagan. Atrof-muhitni buzilishga olib kelgan sabablardan yana biri, paxtachilik uchun kerakli mineral o'g'itlarni yetkazib beruvchi kimyoviy zavodlarni qurilishidir.

Ilmiy izlanish jarayonida shunga guvoh bo'ldikki, ya'ni O'zbekistonni har bir zonasi ob-havosini buzish uchun, ataylab, kimyo zavodlar qurilgandek tuyuladi. Farg'ona vodiysida – Qo'qonda ikkita, Toshkent vodiysidagi Chirchiq va Olmaliq zavodlari, Zarafshon vohasidagi Samarqand va Navoiy kabi kimyo zavodlari shular jumlasidandir. Bu zavodlardan tarqalgan badbo'y hidlar va behisob chiqindilar atrof-muhitnigina zararlab qolmasdan, balki odamlarning salomatligiga ham bevosita salbiy ta'sir etdi. Ayniqsa, Samarqand va Olmaliq kimyo zavodlarida to'planib qolgan 60 tonna fosfogips, qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan 12-14 ming tonna pestitsidlar, shahar avtomobil transportining 60–70 foiz ob-havoni buzishi hamda qariyb 30 mln tonna chiqindilar, har yili 350 ming tonna qattiq va gazsimon chiqindilarning 60 foizi, 13 mingdan ortiq ifloslantiruvchi manbalarning 50 foizi, 470 ta korxonalar atrof muhitni zararli moddalar bilan muntazam bulg'ab turgan.

Masalan, Navoiy shahrining o'zida har yili qariyb 129 ming tonna zaharli moddalar havoga tarqalgan. Elektr-kimyo zavodi yil davomida 482 tonna zaharli gazlar, 50 tonna inson salomatligi uchun o'ta xavfli sulfat kislotasi, 35 tonna sulfat oksidi chiqindi sifatida havoni zararlab kelgan, zaharli ximikatlarning 980 tonnasi, jumladan, 32 tonnasi ammiak kislotasi, 3920 killogramm ammiak changi, 98 tonnasi metilaklirod moddasi, 392 tonnasi azot kislotasi oksididir. «Navoiy azot» birlashmasidan 10,4 tonna zahri qotil atrof-muhitni, yerni, suvni va havoni bulg'agan. Sement zavodi 22 ming 137 tonna zaharli changni, Navoiy GRESi esa 20 ming 342 tonna zaharli oqavani chiqarib turgan. Shu tufayli Navoiy tuman aholisidan 1988-89 yillarda ming kishi, jumladan 556 tasi o'ta og'ir oshqozon-ichak kasali, 91 tasi engil ko'rinishdagi sariq, 31 tasi tif va paratif, 31 tasi qoqshol, 21 tasi brutsellyoz bilan og'rigan.

Shu tumandagi birgina Xonchorbog' qishlog'ida 540 boladan 240 nafari turli kasalliklarga chalingan. Ma'lumki mutaxassislarning fikricha, odamlarning salomat bo'lishi uchun 17-20 foiz irsiy kelib chiqish va boshqa biologik qonunlar, 45-50 foiz turmush tarzi, 17-20 foiz esa atrofni o'rab turgan tabiiy va tashqi muhit ta'sir etar ekan. Haddan tashqari gerbitsid va pestitsidlarni ishlatilishi, Orolni o'lik dengizga aylanishi va boshqa sabablarga ko'ra ekologik tanazzul yuz berdi.

Chunonchi, O'zbekistonda 1986-yil mingta tug'ilgan chaqaloqdan 46,2, Qoraqalpog'istonda – 69,6, Surxondaryo viloyatida – 57,7, Farg'ona vodiysida – 50,0 tasi nobud bo'lgan. Shuningdek Bahoriston, Qiziriq, Uchquduq, Nukus va Buzatov tumanlarida esa go'daklar o'limi 80 dan 118 tagacha bo'lgan.

Ma'lumki, turg'unlik yillarida O'zbekistondagi 150 ming yuqori sinf o'quvchilari erta bahordan boshlab, ekish, chopiq, paxta terimining so'nggi kunlarigacha (ba'zi yillari dekabr oyini oxirigacha) sharoiti yo'q bo'lgan dalashiyponlarida yoki boshqa maqsadlarda qurilgan (omborxonalar yoki traktor uchun moslangan) binolarda uylariga bormasdan, yotib paxta terdilar. 1965-yildan boshlab 7 sinf o'quvchilari, 1970 yillarga kelib esa 5 sinf o'quvchilari xam ularning safiga qo'shildilar. Qishloq va tuman markazidagi barcha maktablar hamda hatto katta shaharlardagi ayrim maktablar paxta mavsumiga yopilgan va ularning o'quvchilari esa «paxta fronti»ga jo'natilgan. Bunday «ekspriment» yoki «tajriba»lar natijasida qishloq maktablarida ta'lim olayotgan 12-17 yoshdagi o'gil bolalarning 30 foizida, qizlarning esa 68 foizida tabiiy o'sish jarayonlari buzilgan va ularda funksional etishmovchiliklar tibbiy tekshirish davomida kuzatilgan.

Qishloq maktablarida yil davomidagi o'qitish nari borsa 4-5 oyni tashkil etgan. Oqibatda, maktab dasturidagi fanlar «ekspress» usulida o'tilib, attestat berib yuborilavergan. 1987-yil qishloq maktablarini bitirgan shaharlik o'quvchilarga Karaganda 3 hissadan kam qismi institutlarga kirgan yoki 5-7 foizi imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tgan. Natijada o'gil va qiz bolalarning uchdan ikki qismi maktabni bitirgandan so'ng qishloq sharoitida ishlashga majbur bo'lgan.

Qishloq maktablarini qurish rejasi kam hollarda bajarilgan. Masalan, 1985 yilda 1975-yilga nisbatan 14 foiz, 1981-1985 yillarda esa 1971-1975 yillarga nisbatan 11,5 foiz qishloq maktablari kam qurilgan. Shu yillar ichida o'qituvchilarning ishdan ketib qolish hollari 35 foiz bo'lib, ba'zi bir fanlar umuman o'tilmagan, ota-onalarning umuman ta'lim ma'lumoti 46,7 foizni tashkil etgan.

1966 yilda maktabgacha tarbiya muassalari kam bo'lganligi uchun 50 foizdan ortiq bolalar jalb etilmagan yoki bor bog'chalar noqulay binolarda joylashgan.

Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining ko'pgina xo'jaliklarida maktabgacha tarbiya muassalari umuman bo'lmagan. 1986 yilda maktabgacha bolalarning 34 foizi bog'chaga jalb etilgan shu yilda har bir yuz bolaga

7,2 ta o‘rin to‘gri kelgan, bu kursatkich 1980-yilda 9,8 tani tashkil etgan, ya‘ni sobiq Ittifoq bo‘yicha taqqoslaganda qariyb 2 barobar kam bo‘lgan.

Muttasil paxta miqdorini ko‘paytirish, ekin maydonlarining o‘ta sho‘rlanishi, mineral o‘git va zaxarli kimyoviy vositalarning ayovsiz qo‘llanishi atrof-muhitga, suv manbalariga, ayniqsa, odamlar salomatligiga salbiy ta‘sir etdi. Uylamasdan, rejasiz va ilmiy ko‘rsatmalarga amal qilmasdan tabiatdan foydalanish, mahalliy ichki imkoniyatlarni mensimaslik usulida ish olib borilib, ma‘muriy-buyruqbozlik boshqaruvi tazyiqiga muvofiq cho‘llar, qir-adirlar va boshqa foydalanishga yaroqsiz yerlar o‘zlashtirilib, Orol havzasida sug‘oriladigan yerlar maydoni 6,9 mln. gektarni tashkil etdi.

1960-1985 yillar 1,5 mln. gektar yangi er o‘zlashtirilgan bo‘lsa, Orol atrofidagi 3 million gektar yer cho‘lga aylandi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra Orol dengizi tubida 10-11 mlrd. tonna tuz yigilgan bo‘lib, dengiz o‘z qirg‘og‘idan 100 kilometr ichkariga chekindi va uning tubida 33 ming kvadrat kilometrlik yaroqsiz maydon hosil bo‘ldi. 1975-yildan boshlab, dengiz tubidan uchayotgan 100 mln. tonnalik minerallashgan tuzli-qum to‘zoni uzunligi 400-500 kilometr eni esa 50-60 kilometrdagi maydonlarni zararlangan.

1983-yildan boshlab Orol dengizida baliq urchimaydigan bulib, dengizni suvi o‘ta (22 gr) sho‘rlanib ketdi. Shunday qilib Orol bo‘yi regionini ekologik halokatli zonaga aylandi. Tabiiyki, bu nafaqat Orol dengizi xavzasi, balki O‘zbekistondan tashqari Qozog‘iston, Turkmaniston, Tojikiston xalqlarining ham yashash ahvoli yomonlashdi. Yangi yerlarni o‘zlashtirish bahonasida qumlik va tuzli maydonlarda yerlarning tuzini kamaytiradigan, tuproqni erroziya (emirilish)dan saqlaydigan va chorva mollari uchun yem-xashak, ro‘zgorda yoqilgi sifatida foydalansa bo‘ladigan o‘simlikzorlarni shiddat bilan o‘zlashtirib yuborilishi xam atrof-muhitni buzilishiga olib keldi.

## XULOSA

Xulosa: xulosa qilib aytadigan bo‘lsak sobiq Sovet davatining manfaatlariga to‘lig‘icha O‘zbekiston SSR dagi jamiyki mavjud sanoat korxonalarini yer-osti va yer-usti boyliklari qolaversa paxtachilikni yuqori darajada rivojlantirib markazning ehtiyojlari uchun sarflanib to‘panib boravergan. O‘zbekiston SSRdagi aholini yashash darajasi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli inobatga olinmagan. Paxtachilikni kuchayib borishi aholini hayot tarzini yomonlashtirib boravergan turli xil zaharli moddalarning aholi salomatligiga ta‘siri ortib boravergan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Марасулов Ш.Р Ўзбекистонда тўқимачиликнинг ривожланиши Тошкент: Билим, 1972. 36 б.
2. Жураев М., Урулин Р.Н Узбекистоннинг янги тарихи иккинчи китоб - Тошкент: шарк, 2000. 520 б.
3. Shamsutdinov R. Vatan tarixi (O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida) III jild, to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri. -Toshkent: Sharq, 2010. - 496 б.
4. Jo'rayev N., Karimov Sh. O'zbekiston tarixi -Toshkent: Sharq, 2011. 720 б.
5. Usmonov Q., Sodiqov M., Burhonova S. O'zbekiston tarixi. -Toshkent: 2006. 520 б.
6. To'xliyev N. Paxta yakka hokimligi (Monokultura) haqida // Yoshlik 1989. 7 son.
7. Сарыбаев М.К. История хлопководства Каракалпакстана (1873-1941 г.г.): Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. - Нукус, 1998. - 20 с.
8. Саидов Х. Большевики в борьбе за хлопок.: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. - М., 1950. - Сарыбаев М.К. Политика хлопковой монокультуры советской власти в Каракалпакстане и ее последствия (1917-1990 г.г.): Автореф. дисс. ... докт. истор. наук. - Ташкент, 2008. - 47 с.
9. Саъдуллаев И. Борьба трудящихся Узбекистана в борьбе за дальнейший подъем хлопководства: по материалам Сурхандарьинской области в 1959-1970 гг.: Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. - Ташкент, 1975. - 23 с.
10. Сиддиков Б. Социально-экономические аспекты развития совхозного производства Узбекистана в 1965-1985 г.г. Опыт, уроки и проблемы.: Дисс. ... докт. истор. наук. - Ташкент, 1994. - 291 л.
11. Султанов Э. Деятельность Компартии Узбекистана по укреплению партийных организаций и повышению их роли в подъеме хлопководства в годы семилетки (1959-1965 г.г.): Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. - Ташкент, 1967. - 25 с.

**TABLE OF CONTENTS**

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>USE OF SEWING PRODUCTS IN HEALTHY DEVELOPMENT OF CHILDREN</b> <i>Orziqulova Gavharxon, Asadbek Dusbek o'g'li</i> <b>Page No.: 4-6</b>
2	<b>O'ZBEK TILIDA "SAR" LEKSEMASI</b> <i>Nodirbek Habibullayev, Xolboyev Sirojiddin,</i> <b>Page No.: 7-10</b>
3	<b>O'LCHOV TRANSFORMATORLARIDA ERTA DIAGNOSTIKANING ZAMONAVIY USULLARINI TADQIQ QILISH VA ISHLAB CHIQISH</b> <i>Kurbanbayev Maqsud, Hanidov Eldor Rahmonovich, Ergashev Yoqub Hamro</i> <b>Page No.: 11-16</b>
4	<b>ИНСОН КАПИТАЛИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УЧУН ИНВЕСТИЦИЯЛАР</b> <i>Жуманова Раъно, Шодмонбекова Нодира</i> <b>Page No.: 17-23</b>
5	<b>LOPHANTHUS ANISATUS BENTHNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI</b> <i>G.I.G'aniyeva, M.O'.Ulashova, H.A.Xasanova, SH.Z.Allaberdiyev</i> <b>Page No.: 24-26</b>
6	<b>KVANT KOMPYUTERLARI VA ULARNING ZAMONAVIY KRIPTOGRAFIYAGA TAHDIDI</b> <i>Salayev Alisher</i> <b>Page No.: 27-29</b>

7

**TABIY FANLARNI O'QITISHDA MULTIMEDIA VOSITALAR VA VIRTUAL LABORATORIYALAR***Kuchkarova Surmaxon***Page No.: 30-37**

8

**CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH AFZALLIGI***Komilova Shahzoda***Page No.: 38-42**

9

**INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOG TEXNOLOGIYALARI***Sabirjonoa Dilnoza***Page No.: 43-46**

10

**MARKAZIY BANK PUL KREDIT SIYOSATINING TO'LOV BALANSIGA TA'SIRI***Muminova Nigora***Page No.: 47-51**

11

**BOSHLOVCHI TELENUTQINING PRAGMATIK VOSITALARI***Parpiyev Ma'murjon***Page No.: 52-55**

12

**INGLIZ TILIDA O'QUVCHILARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH METODLARI***Burxonboyeva Zulxumor***Page No.: 56-58**

13

**АДАБИЙ БАДИИЙ ТЕЛЕКУРСАТУВЛАРДА ҒОЯ, МАВЗУ, МАТН ВА ТАСВИР УЙҒУНЛИГИ МАСАЛАЛАРИ***Темирова Гулзор***Page No.: 59-66**



14

**“ЖУРНАЛИСТ КАСБ ЭТИКАСИ” ТУШУНЧАСИНИНГ  
ШАКЛЛАНИШИ***Собирова Шахноза***Page No.: 67-71**

15

**ОЧИҚ АХБОРОТ ТИЗИMLARIDA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK  
MASALALARI***Kadrov Dilshod***Page No.: 72-79**

16

**IJTIMOIIY TARMOQ XABARLARINING JAMIYATGA PSIXOLOGIK  
TA’SIRI***Iroda Mullajonova***Page No.: 80-86**

17

**BOSHLANG’ICH SINIF O’QUVCHILARINI TARBIYALASH JARAYONIDA  
XALQ MAQOLLARINING TUTGAN O’RNI***Jumayeva Maxbuba***Page No.: 87-93**

18

**КАНАЛЛАРНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ АСОСИДА ТИЗИМ ЗАИФЛИГИНИ  
БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИНИ ЛОЙИХАЛАШ***Турдиматов Мамиржон, Қодиралиев Рохатали,**Мўминова Мастура***Page No.: 94-103**

19

**XX ASRNING 40-80 YILLARIDA O’ZBEKISTONSSR-DA PAXTA  
YAKKANOKIMLIGINING AHOLI TURMUSH DARAJASIGA TA’SIRI***Tuxtayev Izzatillo***Page No.: 104-110**